

BOSH ILMIY-METODIK MARKAZ

---

# O'ZBEKISTONDA TARIXIY- DEMOGRAFIK JARAYONLAR

---

SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI

SAMARQAND-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI  
VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI**

**“O'ZBEKISTONDA TARIXIY-DEMOGRAFIK JARAYONLAR”**

**MODULI BO'YIChA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo‘nalishi: O’zbekiston tarixi**

**Samarqand -2022**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2020 yil “7”-dekabrdagi 648-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan o‘quv  
dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:**

Samarqand davlat universiteti O’zbekiston tarixi kafedrasи professori F.Nabiев, dotsent O.Irisqulov, dotsent S.Muhiddinov

**Taqrizchilar:**

Samarqand davlat universiteti O’zbekiston tarixi kafedrasи mudiri, professor B.G’oibov

**Xorijiy ekspert:**

Tojikiston davlat pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori Sh.Vaxidov

O’quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universiteti ilmiy-metodik kengashi (2020 yil “28”-  
dekabrdagi 4- sonli bayonnomasi).

## **MUNDARIJA**

I.	MODULNING IShChI DASTURI.....	5
II.	INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	12
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	22
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	65
V.	GLOSSARIY.....	95
VI.	ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	98
VII.	EXPERT XULOSA.....	103

## **I. MODULNING IShChI DASTURI**

### **Kirish**

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdag'i "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

#### **I. Modulning maqsadi va vazifalari**

**"O'zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar" modulining maqsadi**, pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

##### **"O'zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar" modulining vazifalari:**

- "O'zbekiston tarixi" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzlusiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'lifning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;
- "O'zbekiston tarixi" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash.

##### **Kurs yakunida tinglovchilarining bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:**

**“O’zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar”** fani bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

- fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari, tarix va tarixiy xotiraning milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati;

- “O’zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni respublika aholisi va uning farovonligi to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumot, uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlarini;

- barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini;

- Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, demografiya fanini rivojlanishi tarixini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalishni;

- O’zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: aholi o‘sishi va joylashishi, aholi yosh tarkibiga ta’sirini;

- Respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlarini;

- Globallashuv davrida O’zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida. Mehnat migratsiyasi. Ko‘pmillatli O’zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari. Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’sirini;

- Respublikani yanada rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini ***bilishi*** kerak.

**Tinglovchi:**

- Ijtimoiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha yangi texnologiyalarni amaliyatda qo‘llash;

- **“O’zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar” fani** bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;

- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- **“O’zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar”** fannining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;

- Ijtimoiy fanlarni turli sohalarga tatbiq qilish va dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash ***malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- ijtimoiy fanlarning dasturlar paketini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;

- ijtimoiy fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy masalalarini tahlil qila olish;
- O’zbekiston tarixiga oid masalalarni yechishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalana olish;
- ijtimoiy fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;
- ilg‘or axborot-texnologiyalarida ishlash;
- videodarslarni tayyorlash;
- egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;
- ijtimoiy fanlarda tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish;
- Mustaqil O’zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari, innovatsiyalarni ta’lim tizimiga tadbiq etilishi, yangicha qarash va yondashuvlarga oid zamonaviy manbalardan foydalana, tarixiy-demografik jarayonlarni tahlil qila olish olish *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

### Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat					
	Hammasi	Jami	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim
			Nazariy	Amaliy	Jumladan	
1. ““O’zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi	2	2	2			
2. “O’zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlari.	2	2	2			

3.	Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish omillari.	2	2	2		
4.	Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.	2	2	2		
5.	Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, demografiya fanini rivojlanishi tarixini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalish.	2	2		2	
6.	O‘zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: aholi o‘sishi va joylashishi, aholi yosh tarkibiga ta’siri. Respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlari.	2	2		2	
7.	Globallashuv davrida O‘zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida. Mehnat migratsiyasi.	2	2		2	
8.	“Ko‘pmillatli O‘zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari.	2	2		2	
9.	Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’siri.	2	2		2	
<b>Jami:</b>		18	18	8	10	

### **NAZARIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu: “O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi (2 soat)**

**Reja:**

1. Fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi

Darsda “O’zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar” fanining nazariy-konseptual asosi O’zbekiston Respublikasining Prezidentining asarlari ekanligi ko’plab manbalar va misollar asosida tushuntiriladi. Nazariy konseptual asosning natijalari tushuntiriladi.

**2-mavzu: “O’zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlari. (2 soat)**

**Reja:**

1. O’zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
2. Uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlari

“O’zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni respublika aholisi va uning farovonligi to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumot, uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlarini o‘rganish.

**3-mavzu: Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minalash dasturlarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish omillari. (2 soat)**

**Reja:**

1. ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minalash dasturlarini ishlab chiqish va barqaror rivojlanish
2. Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish.
3. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.

Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minalash dasturlarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.

**4-mavzu: Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida. (2 soat)**

**Reja:**

1. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarining omillari
2. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanishning ilmiy uslublari hamda yo’llari.

Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar

olib borish obe'kti sifatida o'rganish.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR**

**1-mavzu: Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, demografiya fanini rivojlanishi tarixini o'rganadigan fanlararo yo'nalish.. (2 soat)**

**Reja:**

1. Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini.
2. Demografiya fanini rivojlanishi tarixini o'rganadigan fanlararo yo'nalishlar.

Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, demografiya fanini rivojlanishi tarixini o'rganadigan fanlararo yo'nalishlar to'g'risida ilmiy – amaliy ma'lumotlar.

**2-mavzu O'zbekistonda mustaqillik yillarida demografik jarayonlardagi o'zgarishlar: aholi o'sishi va joylashishi, aholi yosh tarkibiga ta'siri. Respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlari. (2 soat)**

Reja:

1. Mustaqillik yillarida demografik jarayonlardagi o'zgarishlar
2. Aholi o'sishi va joylashishi, aholi yosh tarkibiga ta'siri.
3. Respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlari.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida demografik jarayonlardagi o'zgarishlar: aholi o'sishi va joylashishi, aholi yosh tarkibiga ta'siri. Respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlari.

**3-mavzu. Globallashuv davrida O'zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida. Mehnat migratsiyasi.2 soat)**

Reja

1. Globallashuv davrida O'zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida.
2. Mehnat migratsiyasi.

Globallashuv davrida O'zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida. Mehnat migratsiyasi siyosatining o'ziga xos xususiyati.

**4-mavzu. Ko'pmillatli O'zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o'rni, uning asosiy tamoyillari. (2 soat)**

## Reja

1. O'zbekiston va demografik jarayonlar.
2. Davlat milliy siyosatining o'rni, uning asosiy tamoyillari.

Ko'pmillatli O'zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o'rni, uning asosiy tamoyillari. Millatlararo totuvlik va tolerantlik.

## **5-mavzu. Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta'siri. (2 soat)**

### Reja

1. Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta'siri.
2. O'zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi.
3. O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi.

Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta'siri. O'zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi. O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi.

## **II. INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

### **“SWOT-tahlil” metodidan foydalanish**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Ana'naviy va zamonaviy ta'lif shakllarini "SWOT-tahlil" metodida tahlil qiling.

	Oddiy ma'ruzada ma'ruzachi talabalar, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera oladi	Muammoli ma'ruzada kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular talabalar ongiga singdirib beriladi
	O'qituvchi asosan o'zi va a'lochi, qiziquvchi talabalar bilan gapplashadi, ya'ni darsda oz sonli talabalar qamrab olinadi	Muammoli ma'ruzada ko'p sonli tinglovchilar qamrab olinadi
	Oddiy ma'ruzada faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Muammoli ma'ruzada muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalar tuhilishi mumkin.
	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, talaba uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, talabalarni mavzudan chetga burishga intilishlari

## Rezyume, Veyer metodidan foydalanish

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida foydalanish mumkin.

### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик групкаларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир групка умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма



хар бир груп ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қиласди;



навбатдаги босқичда барча групкалар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва

### Namuna:

Falsafadan malaka talablari					
Sobiq standartlar		Amaldagi standartlar		Takomillashtirilgan standartlar	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

## “FSMU” metodidan foydalanish

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uygazavifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

### Namuna.

**Fikr:** “Falsafadan malaka talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.


## Venn Diagrammasi metodidan foydalanish


**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruhi a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birqalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna: Falsafani turli yo‘nalishlarda o‘qitishning farqli jihatlari o‘ziga xosliklari**





## Muammoli vaziyatlarni echishga qaratilgan interaktiv metodlar

“CWOT-tahlil”

“Debat”,

*Muammol  
i vaziyat*

“Rezyumi”

“T-chizma”,

“Venn  
diagrammasi”,

“Organayzer”,

Chizma va  
jadvallar:



### 1-topshiriq

<b>Savol</b>	<b>Javob</b>
<b>Zamonbobo</b>	Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi Zamonbobo ko'li bo'yalarida miloddan avvalgi II mingyillikda yashagan chorvador va dehqonlarning qadimiy madaniyati.
<b>matriarxat</b>	eng qadimgi tuzum rivojidagi bir bosqich bo'lib, qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilangan, urug'ga va oilaga ayol kishi sardorlik qilgan.
<b>patriarxal oila</b>	ota tomonidan yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlaridan tashkil topgan oiladir.
<b>patriarxat</b>	eng qadimgi jamoa tuzumining bir davri bo'lib, unda erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqyega ega bo'lgan, qarindoshlik munosabatlari ham ota tomonga qarab belgilangan.

### 2-topshiriq

<b>Savol</b>	<b>Javob</b>
<b>so'nggi paleolit</b>	bu davr miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi.
<b>urug'chilik</b>	o'zaro qon-qarindosh bo'lgan kishilardan iborat dastlabki odamlar uyushmasi.
<b>sivilizasiya</b>	(lotincha «sivilis»-fuqaroviylar, ijtimoiy, ya'ni harbiylar va dindorlar hukmronligisiz) — jamiyatning o'z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarining hamda ularni yanada ko'paytirib takomillashtirib borish usullarining majmui.
<b>eng qadimgi urug'chilik tizimi</b>	insoniyat tarixining barcha mehnat qurollari umumiy bo'lgan, hamma odamlar hamkorlikda mehnat qilgan bir davridir.

### 3-topshiriq

<b>Savol</b>	<b>Javob</b>
<b>Baqtriya</b>	Afg'onistonning shimoli-sharqiyl qismi, Janubiy Tojikiston va Surxondaryo viloyati.
<b>varzana</b>	"vis"lar birikuvidan vujudga kelgan yirik qo'shni jamoa
<b>Dovon</b>	Farg'ona vodiysining qadimgi nomlaridan biri
<b>Zulqarnayn</b>	Aleksandr Makedonskiyning laqabi. O'rta osiyoda u shu laqab bilan atalgan. Bu laqab – "ikki shoxli , "ikki tomonni tutuvchi" degan ma'nolarni anglatgan.

### 4-topshiriq

<b>Savol</b>	<b>Javob</b>
<b>Qiziltepa</b>	hozirgi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati hududida joylashgan qadimgi shahar.
<b>Abbosiylar</b>	arab xalifalari sulolasini bo'lib (749-1258 yy.), bu sulolaga Muhammad Payg'ambarning amakivachchasi Abu'l Abbos as-Saffoh (749-754 yy.) asos solgan. Abbosiylar sulolasini besh asr, ya'ni 749 yildan 1258 yilgacha hukm surgan. Abbosiylardan 38 kishi xalifa bo'lgan.
<b>amir al-mo'minin</b>	mo'minlarning hukmdori. Ilk islom davrida xalifalarning keng qo'llanilgan unvoni. Bu unvonni dastlab xalifa Umar olgan. Keyingi barcha xalifalar ham shu unvon bilan yuritilgan
<b>Ummaviylar</b>	arab xalifalari sulolasini (661-750 yy.). Asoschisi makkalik yirik savdogar va qurayshiylar zodagoni Abu So'fyonning o'g'li Muoviyadir. Muoviya xalifa Ali hokimiyatini tan olishdan bosh tortib, Damashqda o'zini xalifa deb e'lon qilgan.

### III. NAZARIY MATYERIALLAR

#### MA'RUZALAR MAZMUNI

(8 soat ma'ruza)

#### O'QUV MATYERIALLARI (MA'RUZA MATNI)

**1-mavzu: ““O'zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar”** fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi

#### 1§ . O'zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar fanning predmeti, maqsadi, vazifalari va tadqiqot metodlari

Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida yangi qit'alarining ochilishi, kashf etilgan materiklar tabiiy boyliklarini o'zlashtirishga rivojlangan mamlakatlarning intilishi, jahon urushlari aholi harakatida muhim o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, o'tgan XX asrda jahon urushlari oqibatida dunyo aholisining hududiy taqsimotida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, tug'ilish, o'lim, aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni tutadi. Shu bois, aholi uning tabiiy harakati bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish falsafa, iqtisod, sotsiologiya kabi fanlar namoyondalari bilan bir qatorda, birinchi navbatda, geograf olimlar diqqatini ham o'ziga jalb etdi.

Bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida inson omili, uning intellektual salohiyati eng birinchi omil sifatida qaralmoqda.

Demografiyaning paydo bo'lishi boshqa fanlardan farqli ravishda aniq sanaga ega. 1662 yilning yanvarida ingliz savdogari, kapitani Jon Traunta (1620-1674)ning «O'lim byulleteni asosidagi tabiiy va siyosiy kuzatishlar (shaharlardagi e'tiqod, savdo, aholining o'sishi, kasalliklar va boshqa o'zgarishlarni boshqarish) muqaddimasi» nomli kitobi Londonda chop etilgan. Bu kitob bir davrning o'zida statistika, sotsiologiya va demografiya kabi fanlarning rivojlanishiga hissa qo'shdi.

«Demografiya» - grekcha «demos» - xalq, aholi va «grafo» - yozaman so'zlaridan olingan.


XX asrga kelib, demografiya fan sifatida ikkita asosiy yo'nalishda rivojlandi. Ulardan biri, demografiyaning tadqiqot maydonini aniqlashtirish bo'lsa, ikkinchisi demografik jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar doirasining kengayishi bo'ldi.

1960 yillar o'rtalarida ko'pchilik mutaxassislar demografiyaning predmetini aholining tabiiy harakati masalalari bilan shug'ullanuvchi fan sifatida chegaralab qo'ydi.

Aholining tabiiy harakati – bu tug'ilish, o'lim, nikohga kirish va nikohdan ajralish natijasida aholi soni va tarkibining uzlusiz o'zgarib turishidir. Shuningdek, aholining tabiiy harakatiga aholining jins va yosh tarkibidagi o'zgarishlar kabi o'zaro bog'liq barcha demografik jarayonlar kiradi. Masalan, 90-yillar boshida Yevrosiyoda ko'plab mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi oqibatida migratsiya jarayonlar sezilarli ravishda faollashdi. Bu, o'z navbatida, mintaqadagi barcha hududlar aholisining tabiiy harakatida o'zgarishlar sodir etdi.

Har qanday fan ob'ekt doirasidagi voqelikning qonun va qonuniyatlarini ochib berish, uning tadqiqot maqsadi hisoblanadi. Shunga ko'ra, demografiyaning predmeti

aholi tabiiy takror barpo bo‘lishining qonun va qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat. O’z navbatida, demografiya quyidagi fan tarmoqlariga bo‘linadi:



Demografik statistika – demografiyaning tarixiy tarmog‘i bo‘lib, aholi takror barpo bo‘lishining tarixiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Statistik demografiyaning vazifalari aholining takror barpo bo‘lishiga oid materiallarni to‘plash va dastlabki qayta ishlash, demografik jarayonlarni statistik tahlil etish va kuzatish metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Matematik demografiya – demografik jarayonlarni modellashtirish va bashoratlash hamda ular o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganishning matematik usullarini ishlab chiqish va tatbiq etish bilan shug‘ullanadi. Demografik modellarga tug‘ilish, o‘lim, nikoh jadvallarining aniqligi, statsionar va barqaror aholi modeli kabilalar kiradi.

Tarixiy demografiya – mamlakatlar va xalqlar tarixidagi demografik jarayonlar holati va dinamikasini o‘rganadi.

Etnik demografiya – aholi takror barpo bo‘lishining etnik xususiyatlarini tadqiq etadi. Xalqlar turmush tarzining etnik xususiyatlari, urf-odatlari, an‘analari, oilaviy munosabatlar tarkibi kabilalar aholining tug‘ilish darajasi, o‘rtacha umr ko‘rishi va salomatligi holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy demografiya – aholi takror barpo bo‘lishining iqtisodiy omillarini tadqiq etadi. Iqtisodiy omillar deganda, jamiyat hayotining barcha iqtisodiy shart-sharoitlari hamda ularning tug‘ilish, o‘lim, nikohlanish darajasiga, aholining o‘sish darajasiga ta’siri tushuniladi.

Sotsial demografiya – demografik jarayonlarga aholining sub’ektiv harakati, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik ta’sirini o‘rganadi.

«Aholi geografiyasи va demografiya asoslari» nomli kursning predmeti aholining tabiiy o‘sishi va uning taqsimlanishi bilan bog‘liq geografik jarayonlardir.

Kursning asosiy maqsadi quyidagilar:

1. Aholi dinamikasidagi o‘zgarishlarning nazariy asoslari va bu o‘zgarishlarning iqtisodiy ijtimoiy turmush tarziga ta’sirini tadqiq etish;
2. O’zbekistondagi demografik o‘zgarishlarni dunyo mamlakatlaridagi demografik jarayonlar bilan qiyoslash;

3. Aholining tabiiy o'sishi, migratsiyasi bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish asosida aholining tabiiy harakati va migratsiyani tartiblash jarayonlarini o'rganish.

Kursning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Aholining tabiiy o'sishi va migratsiyasiga xos hududiy xususiyatlarni o'rganish;

2. Aholining ko'payishi va migratsiyasini hududiy qiyoslash va o'zgarishlar bilan bog'liq omillarni o'rganish;

Aholini o'rganishda tadqiqot usullarini tanlash va ulardan samarali foydalanish, ta'lim oluvchi ishining samaradorligini oshiradi. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda tadqiqot usullari dialektik usullarning tarkibiy qismi hisoblanib, ta'lim-tarbiya o'qitish jarayonlaridagi metodik usullardan birmuncha farq qiladi. Biroq, mavjud tajribalarni o'rganish va umumlashtirish, kuzatish, ekspeditsiya, anketa so'rovlari asosida suhbat, eksperiment va tajriba usullaridan geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda ham foydalaniadi. Masalan, tadqiqot qilinayotgan ob'ekt haqidagi axborot va xizmatlarni o'rganib chiqish usuliga har qanday tadqiqotda zaruriyat tug'iladi yoki eksperiment va tajriba usuli bugungi kunda iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Chunki, iqtisodiyotda biror yangilik yoki modelni to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga tadbiq etish mumkin emas, ya'ni, agar u tajribada sinalmagan bo'lsa, sohada shunday qaltisliklarni keltirib chiqaradiki, natijada bu qaltisliklar iqtisodiyotning biror tarmog'ini yoki butun iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib keladi.

Shuningdek, «Aholi geografiyasi va demografiya asoslari» nomli kursning ham xususiy metodologiyasi mavjud bo'lib, bu ishlab chiqarishning rivojlanishi, yuksalishida muhim vazifa bajaruvchi inson omilidan unumli foydalanishga asoslanadi.

«Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan» nomli kursning tadqiqot usullari quyidagilar:

- Geografik taqqoslash usuli;
- Tarixiy qiyoslash usuli;
- Iqtisodiy-matematik usul;
- Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul;
- Qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli;
- Me'yoriy-balans hisobi usuli;
- Kartografik tadqiqot usuli;
- Sotsiologik so'rovlар o'tkazish usuli;
- Omillarni tahlil qilish usuli;
- Iqtisodiy prognoz usuli.

**Geografik taqqoslash usuli** - o'rganilayotgan sohani tahlil etishda hududga asosan e'tibor qaratiladi. Bunda asosan hududning tabiiy shart-sharoiti muhim o'rinn tutadi.

**Tarixiy qiyoslash usuli** - deyarli barcha fanning tadqiqot usuli hisoblanadi.

Chunki, o'rganilayotgan biror sohaning ertasi albatta, uning tarixi bilan bog'liq.

**Iqtisodiy-matematik usul** - Tadqiqot natijalarini tahlil etish uchun matematik usulni qo'llash katta imkoniyat yaratadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy matematik usul ikki yoki undan ortiq holatlар o'rtaSIDagi ishonchli farqlarni qayd qilishi mumkin.

**Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul** - Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda statistik va ko'p o'lchamli statistik usul yordamida turli-tuman omillar ta'sirida shakllanuvchi holatlarni o'rganish imkonini beradi.

**Qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli** - Iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda iqtisodiy qiyosiy tahlil usulini chetlab o'tib tadqiqotni amalga oshirish mumkin emas. Chunki, har qanday iqtisodiy va iqtisodiy geografik tadqiqotda o'rganilayotgan hudud boshqa hudud bilan yoki sohaning turli hududlardagi holati tahlil etiladi.

**Me'yoriy-balans hisobi usuli** - Me'yor va nisbat tushunchasi tabiatning eng muhim qonuniyatlaridan biridir. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda me'yoriy-balans hisobi usuli keng foydalaniladi.

**Kartografik tadqiqot usuli** - Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda kartografik tadqiqot usulidan foydalanish tadqiqot ishining vazifasida ko'zda tutilgan xususiyatlarining uyg'unligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

**Sotsiologik so'rovlар o'tkazish usuli** - Sotsiologik so'rovlар usuli ayniqsa, aholining ijtimoiy demografik holatini o'rganishda ko'p qo'llaniladi. Anketa so'rovlari ma'lum maqsaddan kelib chiqib, keng qamrovli tuzilganligi tadqiqotni samarali o'tkazishda muhim ahamiyatga ega.

**Omillarni tahlil qilish usuli** - Geografik tadqiqotlarda muammoning kelib chiqishi yoki uni tartiblash omillarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tadqiqot maqsadi va doirasiga ko'ra turlich bo'lishi mumkin:

1. Tabiiy omillar
2. Iqtisodiy omillar
3. Demografik omillar
4. Etnik omillar
5. Ijtimoiy-psixologik omillar va boshqalar

Omillarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin: 1) sub'ektiv omillar, ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yoki inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan omillar. Yuqoridagi demografik, ijtimoiy-psixologik, etnik omillar shular jumlasidandir. 2) ob'ektiv omillar, ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq bo'limgan omillar. Masalan, qurg'oqchilik, sho'rланish, toshqinlar, ko'chkilar, ob-havodagi keskin o'zgarishlar kabilar tabiiy omillar hisoblanib, ishlab-chiqarishning biror mavsumda izdan chiqishiga yoki butunlay inqiroziga olib kelishi mumkin.

**Iqtisodiy prognoz usuli** - Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda iqtisodiy prognoz qo'llanishi ishlab chiqarish hajmining ortishi yoki tabiat resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilab beradi.

## 2 §. Demografik tadqiqotlar tarixi va ularning hududiy xususiyatlari

Ma'lumki, mamlakatimiz o'z mustaqilligi yo'lidan barqaror rivojlanishida davom etayotgan bugungi kunda yetishtirilayotgan va ishlab chiqarilayotgan moddiy ne'matlar birinchi navbatda inson manfaati uchun, ya'ni uni himoya qilish, muhofaza etish, ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini yuksaltirishga yo'naltirilgan. Jumladan, demografik jarayonlar ham mamlakatimiz aholisining hayotiga bevosita o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, mamlakatimizdagi demografik jarayonlar tarixi ham uzoq davrlar davomida Markaziy Osiyodagi qolaversa, butun Yevrosiyodagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'ldi.

Umuman, demografik jarayonlar tadqiqoti bilan XIX asrdan Oktabr to'ntarishiga qadar rus olimlari V.S.Poroshin (1840), Yu.E.Yanson (1880), P.Okeppen (1890), B.P.Kodomsev, A.Kotelnikov, G.S. Pollyak, G.G.Shvittaular, birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida (1917-1945) D.Bozin, A.Ya.Boyarskiy, V.K.Vobley, N.Ya.Vorobev, A.I.Gozulov, Ye.O.Slutskiy, Dj.Uippl kabi olimlar shug'ullanishgan.

Demografik jarayonlar tarixi ham insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

XX asr boshlariga qadar bo'lган dunyoning turli mintaqalaridagi kichik urushlar davrida ham aholi qisman aralashgan. Bu jarayonlarni turli tadqiqot namoyondalari turlicha, ya'ni tilshunoslar til oilalarining shakllanishi, tarixchilar davlatlarning paydo bo'lishi, madaniyat rivojlanish bosqichlarini tadqiq etuvchilar turli davr madaniyatining rivojlanish davri bilan bog'lab o'rghanadilar. Demografik jarayonlar taraqqiyoti bevosita hududlarning kashf etilishi, ya'ni Buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog'liq bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Albatta, hamma tarixiy davrlarda bir qit'aga mansub aholining ikkinchisiga ko'chishiga ma'lum sabablar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, XVIII asr oxiriga qadar Avstraliya ma'lum bo'lмаган davrda yevropaliklar dastlab Amerikaga, keyinchalik rudali konlarga yoki qimmatbaho metallarga boy mintaqalarga, Afrikaga borishga boylik orttirishga intilishgan. Tarixdagi «Burlar urushi»ni, birmuncha ilgari borib mahalliylashgan gollandlar va inglizlar o'rtasidagi «Transvalda» majorosini eslang. Umuman XVIII asr oxiriga qadar butun dunyo xalqlarining yangi yerlarni o'zlashtirishga intilishi yuqori bo'ldi.

Shuningdek, XVII-XVIII asrlarda ruslar ham Shimoli-sharqi Osiyo bo'y lab yurishda davom etdi. Bu davrda ispanlar va portugallar asosan, Markaziy va Janubiy Afrikani egallashga harakat qilishdi. Albatta, bu davrdagi koloniyalarni tashkil etish bilan bog'liq yurishlarga tabiiy va iqlimi omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan, ya'ni iqlimi yashash uchun qulay bo'lган serunum, hosildor yerlarga ega bo'lishga intilishgan. Astasekin bu jarayonlar bevosita davlatchilikning aralashuvi, ba'zi diplomatik munosabatlarning shakllanishiga sabab ham bo'lган. Masalan, A.Gumboldt (1799-1804) ekvatorial davlatlar bo'y lab sayohatga chiqish uchun Ispaniya hukumatidan maxsus ruxsat olgan. Keyinchalik, Germaniyada emigrantlarni ro'yxatga olish an'anaviy tus

olgan (1832 yildan Berlinda, 1846 yildan Hamburgda v.b.).

Demografik vaziyatlarni ob'ektiv baholash uchun 1970-1980 yillardagi demografik revolyutsiya jarayoniga e'tibor qaratish lozim. Demografik revolyutsiya nazariyasini dastlab (1934 yil) A.Landri ilgari surdi va keyinchalik bu borada tadqiqotlarining rivojlanishiga asos soldi. So'ngra uning taraqqiyotiga uzoq xorij olimlaridan F.V.Notsteyn (1953); Z.Pavlik (1964, 1979); V.S.Tompson (1942), rus olimlaridan A.G.Vishnevskiy 1973, 1976, 1982; A.Ya.Kvasha (1974); V.S.Urlanis (1974); demografik taraqqiyotning zamonaviy konsepsiyasining shakllanishiga o'zlarining ilmiy ulushini qo'shdilar. Bu konsepsiya muvofiq, aholining qayta barpo bo'lishi jamiyatning sotsial-iqtisodiy sotsiopsixologik rivojlanishi kabi murakkab omillar majmuasi bilan bog'liq bo'lishini va tizimli bosqichlar asosida rivojlanishini asoslardilar.

Bugungi kunda bu olimlarga yana ikkita asosiy geosiyosiy va sotsial ekologik omillar dolzarbligi ahamiyat kasb etmoqda. BMT ekspertlarining qarashlariga ko'ra, demografik o'tish davrini 4 ta fazaga ajratishi mumkin. Avvalo o'lim koeffitsiyenti tug'ilish koeffitsiyentiga nisbatan tez tushib ketadi. Natijada, tabiiy o'sish koeffitsiyenti toki maksimal darajaga yetguncha o'sadi. Keyin tug'ilish koeffitsiyenti o'lim koeffitsiyentiga nisbatan tezroq pasayadi. Bu jarayon o'lim koeffitsiyenti minimal darajaga yetguncha davom etadi. Keyin tug'ilish koeffitsiyenti sekin tempda pasaya boradi. Bunda o'lim koeffitsiyenti aksincha ko'tariladi va nihoyat tug'ilish qayta barpo bo'lish darajasigacha pasayadi.

Bunda tug'ilish koeffitsiyenti oxirgi statsionar darajaga yaqinlashib qoladi. Shunda o'lim koeffitsiyenti bir necha martaga oshishi bilan xarakterlanadi. Bu konsepsiya AQSh va Yevropa davlatlari ilg'or demografik munosabatlari umumiyligini qonuniyatlari asosida paydo bo'ldi. Ayniqsa, II-jahon urushidan keyingi demografik jarayonlardagi o'zgarishlar mazkur konsepsiyaning tasdiqlandi. Uning tasdiqlanishi rivojlanayotgan davlatlardagi demografik jarayonlarni boshqarishda qo'l keldi.

M.S.Betnyuy (1972) ning ta'kidlashicha, bunda aholining o'rtacha umr ko'rishi muhim o'rin tutgani holda, tug'ilish shu darajada kamayadiki, natijada aholining umumiyligini o'lim koeffitsiyenti aholi tug'ilish koeffitsiyentining o'sishiga sabab bo'ladi. Umumiy holatda aholi soni kamayadi. Agar ko'rsatilgan demografik vaziyatda o'zgarish yuzaga kelsa, aholining ko'payishiga boshqa omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday qilib, A.Landri (1934) tomonidan kiritilgan «demografik inqilob» tushunchasi hozirgi paytda aholi qayta barpo bo'lishining samarali harakati sifatida izohlanadi. Bu yondashuv A.G.Vishnevskiyning 1976 hamda 1982 yillardagi monografiyalarida keng yoritilgan bo'lib, unda aholi qayta barpo bo'lishi 3 ta asosiy tarixiy tipga ajratiladi: arxetip, an'anaviy va zamonaviy tiplar. Unga ko'ra, bir tipdan ikkinchisiga o'tish inqilobiy bosqich sifatida izohlanadi.

Aholining qayta barpo bo'lishi haqidagi prognozlar o'tgan asrning 80-yillarida ko'p variantli tus oldi. Shulardan bevosita hozirgi Markaziy Osiyo mamlakatlari haqidagi tadqiqotlar D.Veresov ishlaridan o'rin egallagan. Uning prognozlari to'rtta vaziyatni e'tiborga olgan holda amalgalash oshirilgan:

birinchidan, o'sha davrda Sobiq Ittifoq tarkibidagi musulmon respublikalaridagi tug'ilish koeffitsiyenti boshqa mintaqalardan farq qilishga e'tibor qaratilgan. Biroq, bu prognozlar biologik xarakter kasb etgani holda respublikalararo migratsiyani hisobiga

olmagan. Unda barcha ittifoqdagi boshqa respubliklarga xos tug‘ilish koeffitsiyentlarining pasayishi musulmon respublikalarida kuzatilmaganligini aholining qayta barpo bo‘lishining oddiy rejimi XX asr oxiriga qadar davom etishi prognoz qilinadi. Bunda muallif (D.Veresov) kelgusida bu mamlakatlarning birmuncha islomlashuvini va reproduktiv targ‘ibotlar o‘zini oqlamasligini e’tirof etgan. Natijada bu kabi ob’ektiv demografik omillar demografik bosqichlarining birdan ikkinchisiga o‘tishiga to‘sinqlik qilishini e’tirof etgan. Boshqa tadqiqotchilar (Ye.Andreyev, S.Perechkov 1975; P.Vensan, 1945) aholining qayta barpo bo‘lishiga iqtisodiy omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatishini ya’ni aholining birlamchi dehqonchilik ishlaridan sanoat ishlab chiqarishga o‘tishi jamoat ishlariga ko‘plab ayollarning jalb etilishi tug‘ilishning kamayishiga sabab bo‘lishini e’tirof etishgan.

Ikkinchidan, D.Veresov aholining qayta barpo bo‘lishida tashqi migratsiyani e’tiborga olmaganligini tadqiqotlarining eng muhim kamchiligi sifatida e’tirof etadi. Shuningdek, T.Ivanov va I.Kalinyuk (1979) larning tadqiqot ishlarida ham migratsiyaning aholi qayta barpo bo‘lishiga ta’siri ifoda etilmagan. D.Veresov sovet hukumatining migratsiyani boshqarishdagi siyosatining mantiqsizligini o‘z davrida qayd etdi (1987). U iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun emigratsion siyosatni tashqi kuchlar bosimida idora etishni qoralagan.

Uchinchidan, D.Veresov prognozi aholining o‘rtacha umr ko‘rishi qisqartirilgan variantning qo‘llanganligini oldingi tadqiqotchilar prognozlaridan farqli jihatni sifatida ajratib ko‘rsatadi. U bu ko‘rsatkichning davriy tebranishi prognoz ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir etmasligini ta’kidlagan.

To‘rtinchidan, oldingi tadqiqotlarda ham, D.Veresov prognozlarida ham aholining qayta barpo bo‘lishiga fojeali omillar ta’siri e’tiborga olinmagan. Biroq, katta mashtabda Chernobil fojeasi singari fojea yuz bermagan bo‘lsada, Sobiq Ittifoqning yemirilishi katta hududni ishg‘ol etgan. Imperiyadagi siyosiy o‘zgarishlar aholi qayta barpo bo‘lishida katta o‘zgarishlarni sodir etdi va mamlakatlar oldiga talay yangi muammolarini qo‘ydi. Albatta, o‘z davrida umumiyo ko‘rinishga ega bo‘lgan aholining qayta barpo bo‘lishidagi bu kabi tadqiqotlar o‘z natijalariga ko‘ra ham Markaziy Osiyodagi demografik jarayonlar o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyodagi demografik jarayonlarning spetsifik jihatlari to‘g‘risida O.B.Ota-Mirzayev ta’kidlaganidek, «Sotsial demografik stereotip kelajakka qadar, hech bo‘limganda joriy yuz yillik oxiriga qadar saqlanib qoladi» [1]. Markaziy Osiyo respublikalaridagi tub aholining asosiy qismida tug‘ilishning yuqoriligi saqlanib qolishi ko‘pchilik mahalliy olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Shundan farqli holatda M.Amanekov Turkmanistonda tug‘ilishning pasayishi holati faollashuvi haqidagi ma’lumotlar keltiradi [2]. A.G.Vishnevskiy O’rta Osiyo va boshqa mintaqalarda tug‘ilishning yuqoriligi sababli aholining qayta barpo etilishini prognozlashga va aniq natjalarga erishishga har qanday nazariy tahlil, butun dunyo tajribasidan kelib chiqib yondashishi yoki alohida olib borilgan aniq tadqiqot ham yordam berolmasligini ta’kidlaydi. Tug‘ilishning yuqoriligi milliy xususiyat emas, dunyoda hech bir xalq yo‘qki, uning tarixida tug‘ilishning yuqoriligi an’anasi kuzatilmasa, qachonki tarixiy taraqqiyot bu an'anadan ob'ektiv asosda mahrum etar ekan, u bir muddat inersiya kuchi singari saqlanib qoladi. Bu inersiyaning qancha muddat davom etishi joy va vaqtning ko‘plab

xususiyatlari bilan bog‘liq. Shuningdek, bu bog‘liqlik o‘tmishdagi inersiyaning hozirgi talablaridan kuchli emasligi bilan izohlanadi[3].

### 3 §. Demografiya statistikasi

Aholi bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘plash, ilk davlatchilikning shakllanish davrlariga borib taqaladi. Hatto uzoq o‘tmishda, ya’ni Rim imperiyasi davrida mamlakat harbiy qudratini oshirish maqsadida aholi, yoshi, jinsi haqida dastlabki ma’lumotlar to‘planganligi tarixdan hammaga ma’lum.

**Aholi haqida ma’lumot to‘plash** - Demografiyadagi asosiy axborot manbalari quyidagilar:

1. Har 10 yilda bir marta o‘tkazilib turadigan aholi ro‘yxati.
  2. Demografik xodisalarining joriy statistik ro‘yxati (tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish)ning hisobi va uzluksizligi.
  3. Aholi joriy kartotekasining uzluksizligi.
  4. Alohida va maxsus kuzatuvlar.
1. Aholi ro‘yxati bu mamlakat yoki uning biror hududida ma’lum vaqtida yashovchi aholi bilan bog‘liq ma’lumotlar to‘plami bo‘lib, unda demografik va aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma’lumotlar tahlili va bahosi aks ettiriladi. Aholi ro‘yxatida quyidagi masalalar o‘rganiladi:
    - mamlakat hududidagi aholi soni va joylashuvi, shahar va qishloq aholisi, aholi migratsiyasi;
    - aholining milliy tarkibi, ona tili va muloqat tili, fuqaroligi;
    - aholining ma’lumoti, qishloq xo‘jaligi va sanoat yoki xizmat ko‘rsatish tizimlarida bandligi, daromadlari;
    - oilalarning kompleks va ijtimoiy tavsifiga ko‘ra turi va soni;
    - tug‘ilish;
    - aholining yashash sharoitlari va b.q.
  2. Aholi tabiiy harakati hodisalarining joriy hisobi – asosan tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish xodisalarining qayd etilishidir. Aholi tabiiy harakatining joriy hisobi ikki nusxada qay etilib, ulardan biri arxivga, ikkinchisi esa fuqarolik holatlarini umumlashtirish, ma’lumotlar to‘plash va qayta ishlash uchun statistika muassasalariga topshiriladi. Biroq, bu ma’lumotlar jamlangan holda ham demografik jarayonlar intensivligini ifodalamaydi. Demografik xodisalar hajmi aholi soni bilan bog‘liq. Masalan, aholi zich hududlarda ish o‘rinlarining kamligi va ortiqcha ishchi kuchlarining to‘planib qolishi yoki aksincha, aholi siyrak hududlarda ish o‘rinlariing ko‘pligi va mehnat resurslarining yetishmasligi holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.
  3. Aholining joriy kartotekasini turli ma’muriy davlat organlari yuritadi. Bu kartotekalar aniq maqsadlarni amalga oshirish maqsadida tuziladi va odatda aholining barcha qismini qamrab olmaydi, ya’ni ma’lum qismini (mikrorayon aholisi, ba’zi sotsial guruhlarni) hisobga oladi.
  4. Alohida va maxsus kuzatuvlar. Aholining alohida guruhlari haqida ma’lumot olish va uni barcha aholi guruhlari uchun joriy etishda aholi ro‘yxatiga nisbatan kam kuch talab

etadi va ko‘proq muammolarni o‘rganish imkonini beradi.

**Asosiy demografik ko‘rsatkichlar -** Aholiga oid ko‘rsatkichlarni ikkiga ajratish mumkin, ular nisbiy va mutloq ko‘rsatkichlardir.

Mutloq ko‘rsatkichlar ma’lum vaqtdagi demografik xodisalar yig‘indisidir ( bu vaqt oralig‘i ko‘pincha bir yilni tashkil etadi). Masalan, unga ma’lum vaqtdagi aholi, tug‘ilganlar, o‘lganlar sonini kiritish mumkin. Shuningdek, mutloq ko‘rsatkichlar orqali aholi haqida ko‘p ma’lumotga ega bo‘lish qiyin. Ko‘proq ma’lumotga va tahlillarga ega bo‘lish uchun ilgarigi ma’lumotlardan foydalaniladi. Bu, o‘z navbatida, tahliliy ma’lumotlarga erishish va nisbiy ko‘rsatkichlarni hisoblash imkonini beradi.

Qiyosiy tahlillar uchun faqatgina nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Mazkur ko‘rsatkichlarning nisbiy deb atalishining sababi shundaki, ular doimo qaysidir aholi soniga nisbatan taqqoslash natijasida hosil bo‘ladi.

**Aholi soni ko‘rsatkichlari -** Aholi soni - aniq vaqtdagi aholi ko‘rsatkichi bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar orqali aholining mutloq o‘sishi, o‘sish tezligi va aholining o‘rtacha sonini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Aholi soni S, ya’ni ma’lum yildagi aholi sonini aniqlash uchun

$$1) \quad \bar{S} = \frac{S_0 + S_1}{2} - \text{yil boshidagi va oxiridagi aholining mutloq soni ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.}$$

$$2) \quad \bar{S} = \frac{\frac{1}{2} S_0 + S_1 + \dots + S_{n-1} + \frac{1}{2} S_n}{(n-1)} \quad \text{teng oraliq muddatlarda (yil choraklari ko‘rsatkichlari asosida) o‘rtacha xronologik formuladan foydalaniladi.}$$

$$3) \quad \bar{S} = \frac{\sum si \cdot ti}{\sum ti} \quad \text{teng bo‘limgan oraliq muddatlarda qo‘llaniladigan formula.}$$

**Aholining tabiiy harakati -** Aholining tabiiy harakati - tug‘ilish va o‘lim jarayonlari bilan bog‘liq aholi sonining o‘zgarishidir.

$$\text{Tabiiy o‘sish: } \Delta_{tab} = D - O \quad (4)$$

Unda,  $D$  – Tug‘ilganlar (dunyoga kelganlar) soni,  $O$  – o‘lganlar soni.

Aholining tabiiy harakati ba’zan aholining umumiy koeffitsiyenti ham deb atalishining sababi tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari hisoblanganda aholining umumiy soniga mos keladi. Biroq, aholining tabiiy harakati deb atashning ma’qulligi shundaki, tug‘ilish va o‘lim doimo turli tabiiy omillar ta’sirida bo‘ladi va ma’lum qonuniyatlarga muvofiq yuz berdi.

Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti:

$$Udk = \frac{D}{\bar{S}} \times 1000 \quad (5)$$

Bugungi kunda tug‘ilish ko‘rsatkichlari mamlakat kelgusi turmush tarzini

belgilovchi eng muhim omildir. Chunki, kelgusidagi mamlakatning ist’emol ko’rsatkichlari ham aynan shu omil bilan bog’liq.

O’limning umumiy koeffitsiyenti:

$$O'k = \frac{O}{\bar{S}} \times 1000 \quad (6)$$

Tabiiy o’sishning umumiy koeffitsiyenti:

$$Utab = \frac{d - O}{\bar{S}} \times 1000 = Dk - O'k \quad (7)$$

**Mexanik harakat ko’rsatkichi, migratsiya** - Migratsiya – aholining mamlakat hududidagi yoki davlatlararo mexanik harakatidir.

1-jadval

Migratsion oqimlar

	2004			2005		
	Keluvchilar soni	Ketuvchilar soni	Migratsion o’sish (+), kamayish(-)	Keluvchilar soni	Ketuvchilar soni	Migratsion o’sish (+), kamayish(-)
Migratsiya	147398	243490	-96092	144778	246386	-101608
Ichki hududiy	140669	148009	-7340	137599	141395	-3796
Xalqaro migratsiya	6729	95481	-78752	7179	104991	-97812
MDH va Baltika davlatlari ishtirokida	6597	92690	-86093	6989	102990	-96001
MDH va Baltika davlatlaridan tashqari	132	2791	-2659	190	2001	-1811

$$\Delta mx = \Delta kel - \Delta ket \quad (8)$$

$\Delta kel$  – ko’chib keluvchilar,  $\Delta ket$  – ko’chib ketuvchilar.

Aholi sonining umumiy o’sishi:

$$\Delta ym = \Delta tab - \Delta mx \quad (9)$$

Unda  $\Delta tab$  – tabiiy o’sish;  $\Delta mx$  – migratsion (mexanik) o’sish.

Mexanik o’sish koeffitsiyenti:

$$Kmex = \frac{\Delta mx}{\bar{S}} \times 1000 \quad (10)$$

Bunda  $\bar{S}$  - aholi sonining yillik o’rtacha ko’rsatkichi.

Umumiy o'sish koeffitsiyenti:

$$K_{ym} = K_{tab} - K_{mex} \quad (11)$$

Umumiy koeffitsiyentning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Aholi sonidagi farqlarni (noaniqliklarni) bartaraf etadi (u doimo ming kishiga nisbatan hisoblanadi) va hududdagi aholi sonini turli demografik jarayonlar darajasi bilan qiyoslash imkonini beradi.
2. Murakkab demografik xodisa va holatlarni bitta raqam yordamida ifodalaydi va voqelikni umumlashtiruvchi xususiyatga ega.
3. Rasmiy statistik nashrlarda umumiy koeffitsiyentlarni hisoblash uchun ilgarigi ma'lumotlardan ham foydalaniladi.
4. Ommaviy axborot vositalarining foydalanishi va ommanning tushunishi uchun qulay.

**O'zbekiston aholisi tabiiy harakatining umumiy koeffitsiyentlarini hisoblash -** 2003 yil ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisi yil boshida  $S_0=25523,0$  ming kishi va yil oxirida  $S_1=25802,5$  ming kishini, tug'ilganlar soni  $D=546,2$  ming kishi, o'lganlar soni  $O'=139,0$  ming kishini tashkil etgan. Shu ma'lumotlarga ko'ra, avvalo, aholining yillik o'rtacha sonini, so'ngra ba'zi koeffitsiyentlarni hisoblab topamiz:

$$\bar{S} = \frac{25523,0 + 25802,5}{2} = 25662,75 \text{ ming kishi}$$

Tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti:

$$Udk = \frac{D}{\bar{S}} \times 1000 = \frac{546,2}{25662,75} \times 1000 = 21,2\% \quad (12)$$

O'limning umumiy koeffitsiyenti:

$$Uo'k = \frac{O'}{\bar{S}} \times 1000 = \frac{139,0}{25662,75} \times 1000 = 5,4\% \quad (13)$$

Tabiiy o'sishning umumiy koeffitsiyenti:

$$Utab\Delta k = \frac{D - O'}{\bar{S}} \times 1000 = \frac{407,2}{25662,75} \times 1000 = 15,8\% \quad (14)$$

2003 yildagi umumiy o'sish:

$$\Deltaym = S^{t+1} - S^t = 25802,5 - 25523,0 = 279,5 \text{ ming kishini}, \quad (4)$$

Tabiiy o'sish:

$$\Delta tab = D - O' = 546,2 - 139,0 = 407,2 \text{ ming kishini}, \quad (5)$$

Migratsion o'sish:

$$\Delta mex = \Deltaym - \Delta tab = 279,5 - 407,2 = -127,7 \text{ ming kishini} \quad (6)$$

tashkil etgan. Shunga muvofiq ravishda aholining umumiy o'sish va migratsion

o'sish koeffitsiyentlari quyidagicha bo'lgan.

$$\Delta ymk = \frac{279,5}{25662,75} \times 1000 = 10,8\% \quad (7)$$

$$\Delta mexk = \frac{-127,7}{25662,75} \times 1000 = -4,9\% \quad (8)$$

Natija: 2003 yilda O'zbekiston aholisining tabiiy o'sishi 407,2 ming kishini, migratsion (mexanik) o'sishi -127,7 ming kishini, umumiy o'sish 279,5 ming kishini va tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti 21,2 % ni, o'limning umumiy koeffitsiyenti 5,4 % ni, tabiiy o'sishning umumiy koeffitsiyenti 15,8 % ni va shunga muvofiq ravishda umumiy o'sish koeffitsiyenti -10,8 % ni, migratsion (mexanik) o'sish koeffitsiyenti -4,9 % ni tashkil etgan.

**Xususiy demografik ko'rsatkichlar** - Tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti (ayollarning tug'uvchanlik koeffitsiyenti) 15 yoshdan - 50 yoshgacha bo'lgan ayollarning o'rtacha va yillik tug'ilgan bolalar soniga nisbatan aniqlanadi:

$$F = \frac{D}{\bar{A}_{15-49}} \times 1000 \quad (20)$$

Bunda  $F$ -tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti,  $D$ -tirik tug'ilgan bolalar soni,  $\bar{A}_{15-49}$  - 15 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan ayollar soni.

Masalan, tug'ish yoshidagi ayollar soni 2003 yilda 7740 ming kishi bo'lsa va yuqorida qayd etilganidek, 546,2 ming kishini tashkil etsa, unda:

$$F = \frac{D}{\bar{A}_{15-49}} \times 1000 = \frac{546,2}{7740} \times 1000 = 75,5\%$$

Shuningdek, maxsus va umumiy koeffitsiyent o'rtaidagi o'zaro aloqadorlik mavjud bo'lib, u quyidagi formulaga ko'ra aniqlanadi:

$$Dk = F \times A$$

Aholining migratsion harakati bilan bog'liq jarayonlarni iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil etishga dastlab ingliz olimi Ye.Reyvensteyn e'tibor qaratgan. Uning hisoblariga ko'ra, ma'lum hududdagi ko'chib keluvchilar soni ko'chgan va joylashgan hududlar oralig'idagi masofaga teskari proporsional va ko'chib ketgan hududdagi jami aholi soniga to'g'ri proporsional [4].

Shu davrda avstriyalik olim Lill shahar aholisi harakatini kuzatish mobaynida o'zining «Sayohat qonuni»ni yaratishga harakat qilgan. U tadqiqotlarida temir yo'l yo'lovchilari haqidagi statistika natijalariga tayanadi. Shunga ko'ra, u Reyvensteyndan farqli ravishda nafaqat migratsiya muammolarini balki, transport muammolarini ham tadqiq etgan [5].

Mashhur amerikalik olim Sipf ko'chish va joylashish hududlari oralig'idagi migratsiyani natijali baholash maqsadida quyidagi formulani taklif etgan:

$$M_{n,z} = \frac{B_n \cdot B_z}{E_{n,z}}$$

Unda,  $M_{n,z}$  - ko‘chish  $n$  hududdan joylashish  $z$  hududiga migrantsion oqimning intensivligi,

$B_n$  - ko‘chish hududi aholisi soni,

$B_z$  - joylashish hududi aholisi soni,

$E_{n,z}$  -  $n$  va  $z$  hududlar oralig‘idagi masofa.

Mazkur formulaga ko‘ra, migrantsiya oqimi faolligi ko‘chish va joylashish hududlari oralig‘ida ortgan sayin, ular orasidagi masofa qisqarib boradi.

Bu boradagi aniqroq formula quyidagicha bo‘lishi mumkin:

$$M_{n,z} = K \frac{B_n \cdot B_z^a}{E_{n,z}^b}$$

Unda,  $K$  – doimiy birlik. Unga ko‘ra, bir tomondan  $M$ ,  $B_n$ ,  $B_z$  va ikkinchi tomondan  $Y$  birliklari orasida ko‘rsatkichli funksiya shaklidagi aloqa mavjud[6].

Ko‘p korrelyatsiyali yuqori koeffitsiyentlarni aniqlash uchun barcha omillar hisobga olinadi. Migrantsion jarayonlarni imitatsion modellashtirish va migrantsiyaning ekstrapolyatsion modeliga I.S.Matlin o‘zining «Aholi joylashuvini modellashtirish» asarida e’tibor qaratgan[7].

Masalan, 2003 yilda O’zbekistonda aholi soni 25523 ming kishini, Rossiya aholisi 147000 ming kishini va Qozog‘iston aholisi 15400 ming kishini; shunga muvofiq ravishda O’zbekistonning migrantsiya saldosи -4916 kishini, Rossiyaning O’zbekiston bilan migrantsiya saldosи 46653 kishini va Qozog‘istonning O’zbekiston bilan esa 36712 kishini tashkil etgan bo‘lsin.

Unda, 2003 yilda O’zbekistonning migrantsiya darajasi

$$Mo = \frac{-4916}{25523000} \times 1000 = -0,19\% \quad \text{bo‘lsa, Rossiya va Qozog‘istonning}$$

O’zbekiston bilan migrantsiya aloqlari darajasi:

$$Mo = \frac{46653}{147000000} \times 1000 = 0,32\% \quad \text{va}$$

$$Mo = \frac{36712}{15400000} \times 1000 = 2,38\% \text{ bo'lgan.}$$

Migratsiya hajmiga nisbatan uning saldosi aholi migratsion harakatining intensivligini belgilaydi. Bu holatni immigratsiya va emigratsiya koeffitsiyentlarida kuzatamiz.

$$K_{O,R} = \frac{50223}{25523000} \times 1000 = 2,0\%$$

$$K_{O,Q} = \frac{38529}{25523000} \times 1000 = 1,5\%$$

$$K_{R,O} = \frac{3570}{147000000} \times 1000 = 0,02\%$$

$$K_{Q,O} = \frac{1817}{15400000} \times 1000 = 0,12\%$$

**Demografik prognozlash** - Demografik prognoz har qanday ijtimoiy prognozlash va rejalashtirish asosida yotadi. Prognoz qilinayotgan davrdagi demografik jarayonlarning barchasi aholining umumiy soni bilan bog'liq bo'ladi. Prognozlashda aholi sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omilning barqaror yoki beqarorligi muhim o'rinn tutadi. Aholi sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar barqaror bo'lgan sharoitda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$S_t = S_0 \times \sum^{kt} \quad (21)$$

Bunda  $S_t$  - prognoz qilinadigan davr oxiridagi aholining umumiy soni;  $S_0$  - prognoz qilinadigan davr boshidagi aholining umumiy soni;  $k$  - prognoz qilinayotgan davrda aholi o'sishidagi taxmin qilinayotgan koeffitsiyent;  $t$  - prognoz qilinayotgan davr oralig'idagi yillar.

2015 yilda O'zbekiston aholisi soni qancha bo'lishini hisoblab topamiz. 2003 yil boshida aholi soni 25523,0 ming kishini tashkil qildi. Prognoz qilinayotgan davr aholi o'sishidagi taxmin qilinayotgan koeffitsiyent sifatida odatda aholining umumiy koeffitsiyenti olinishi lozim. Biroq, 2003 yildagi migratsiya koeffitsiyenti yuqoriligi va ma'lumki, bu doimiy ko'rsatkich ekanligini e'tiborga olgan holda aholining tabiiy o'sish koeffitsiyentidan foydalanamiz. 2003 yildagi aholining tabiiy o'sish koeffitsiyenti esa 15,8% ga teng bo'ldi. 1998-2003 yillar davomidagi migratsion o'sishning o'rtacha koeffitsiyenti -3,0% ga teng, ya'ni

$k = U_k \Delta t_{ab} - \bar{\Delta}$  mex = 12,8% -deb qabul qilamiz va (22) formuladan foydalanamiz.

$$S_t = \frac{S_0}{1000} \times \sum^{kt} + S_0 \quad (22)$$

Unda, natija quyidagicha bo'ladi:

$$S_{2015} = \frac{25523,0}{1000} \times \Sigma^{12,8 \times 12} + 25523,0 = 29443,3 \text{ ming kishi.}$$

O'tgan asrning 80 yillarida rus olimi D.Veresov 2020 yilda O'zbekiston aholisi 40362 ming kishiga yetishini prognoz qilgan. U davrda aholining yillik o'rtacha o'sishi 23,8% ga teng bo'lган. Biroq, umumiy o'sish koeffitsiyentiga turli omillar (ma'lum davr oralig'ida tug'ilishning kamligi, migratsion o'sish) ta'sir etib turadi. Shu bois, prognoz ko'rsatkichlari nisbiy va ko'p variantli bo'ladi.

## **2-mavzu: "O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlari.**

### **O'zbekistonda aholining demografik rivojlanishi**

Bugungi kunda O'zbekistonda o'ziga xos demografik vaziyat vujudga keldi va u aholi o'sish sur'atining pasayishi, tug'ilishning kamayishi, aholining yosh tarkibida keksa yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog'ining kamayishi, shu bilan bir vaqtida o'rta yoshdagi aholi sonining ko'payishida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov BMT Sammiti Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqida quyidagilarni ta'kidladi: "...qariyb 20 yil mobaynida odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko'rishi esa 75 yoshgacha oshdi"<sup>1</sup>.

2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda aholi soni 28453,7 ming kishini tashkil qilgan. Aholining umumiy soniga ko'ra O'zbekiston jahonning 230 mamlakati orasida 43, Osiyoda esa 18-o'rinda turadi. Markaziy Osiyo respublikalari jami aholisining 45,0 % O'zbekiston hududida istiqomat qiladi.

Mustaqillik yillarida (1991-2010 yillar) O'zbekiston aholisining soni 7,4 mln. kishiga, ya'ni yiliga o'rtacha 389,1 ming kishidan ko'paydi. O'tgan qariyb 20 yil mobaynida respublikada aholi soni – 1,35, shahar aholisi – 1,73, qishloq aholisi esa 1,1 martaga ko'paydi. Shu bilan birga respublika va uning shahar hamda qishloq joylari miqyosida aholi sonining ko'payish sur'ati turlicha bo'ldi (12.1-jadval).

12.1-jadval ma'lumotlarining tahlili 2006-2010 yillar davomida jami aholi sonining 2142,2 ming kishiga yoki 8,1 % ga ko'payganligini ko'rsatadi. Biroq respublikaning shahar va qishloq joylarida aholi sonining o'sish sur'atlarini bir me'yorda kechmagan. Jumladan, 2010 yilda 2006 yilga nisbatan shahar aholisi soni 53,9 % ga ko'paygan bo'lsa, qishloq aholisi esa 17,8 % ga kamaygan. Shu bilan birga, bu davrda jami aholi tarkibida shahar aholisining ulushi 36,0 % dan 51,4 % ga ortgan, qishloq aholisiniki esa 64,0 % dan 48,6 % gacha kamaygan. Ya'ni mamlakatda aholining urbanizatsiya jarayoni kuchaymoqda. Qishloq aholisi sonining kamayganligi esa

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримов БМТ Саммити Мингийиллик ривожланиш мақсадларига бағишиланган ялпи мажлисидаги нутки // Халқ сўзи, 2010 йил 22 сентябрь.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009 yil 13 martdagি 68-sonli qaroriga ko'ra respublikadagi 966 ta qishloq punktiga shaharcha maqomi berilganligi bilan izohlanadi.

### 12.1-jadval


#### O'zbekistonda aholi sonining o'zgarish dinamikasi (ming kishi hisobida)<sup>2</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillar					2010 yilda 2006 yilga nisbatan o'zgarishi	+,-	%
	2006	2007	2008	2009	2010			
Jami aholi soni	26312, 5	27072, 2	27533, 3	28001, 4	28453, 7	2141,2	2141,2	108,1
Shundan:								
Shahar aholisi	9495,1	9584,6	9758,3	14327, 8	14618, 4	5123,3	5123,3	153,9
Qishloq aholisi	16817, 4	17487, 6	17775, 0	13673, 6	13835, 3	- 2982,1	- 2982,1	82,2

Respublikada aholi sonidagi o'zgarishlar uning bevosita yosh tarkibi bilan bog'liq. O'zbekiston aholisining hozirgi yosh tarkibi XX asrning 90-yillarida boshlangan tug'ilish darajasining qisqarishiga qaramay yosh hisoblanadi. Ya'ni, aholi tarkibida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi 62,1% ni, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi – 33,3% ni, 16-29 yoshdagilar ulushi – 28,8% ni tashkil etadi<sup>3</sup>. Shu bilan birga, statistik ma'lumotlar tahlili so'nggi yillarda 0-15 yoshdagi aholi mutlaq sonining kamayayotganligini ko'rsatmoqda (12.3-rasm.)

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари // <http://www.stat.uz>.

<sup>3</sup> Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т.: Ижтимоий фикр, 2009. – С.154-155.



### 12.3-rasm. O’zbekistonda aholi yosh tarkibining o‘zgarishi

2006-2010 yillar davomida respublikada aholi tarkibida mehnatga qobiliyatli yoshgacha bo‘lgan aholi soni 235,4 ming kishiga yoki 2,6 % ga kamaygan. Bunday tendensiyani bu guruhning aholi tarkibidagi ulushida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, 2006 yilda mehnatga qobiliyatli yoshgacha bo‘lgan aholi ulushi 35,0 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2010 yilga kelib bu ko‘rsatkich 31,5 % ga teng bo‘lgan. Mazkur holat mustaqillik yillari respublikada tug‘ilish ko‘rsatkichining kamayganligi bilan izohlanadi. Jumladan, 1991 yili respublikada tug‘ilishning umumiyligi koeffitsiyenti 34,5 % dan<sup>4</sup> 2010 yili 23,2 % gacha<sup>5</sup> kamaygan.

Bozor munosabatlari o‘tish sharoitida yillar davomida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlarda o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y berayotganligi, xalqning munosib turmush sharoitini yaratishga intilish, omma o‘rtasida homiladorlikdan saqlovchi tibbiy vositalarning keng tarqalishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligining ortishi, har bir oila o‘z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda farzandlar tug‘ilishini nazorat etishi kabi omillar tug‘ilish ko‘rsatkichining pasayishiga olib keldi.

2006-2010 yillarda mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi soni – 13,6 % ga, mehnatga qobiliyatli yoshdan yuqori bo‘lgan aholi soni esa 16,0 % ga ortgan. Tahlil natijalarini mehnatga qobiliyatli yoshdan katta bo‘lgan aholi sonining mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi soniga nisbatan yuqori sur’atda o‘sganligini ko‘rsatadi. Bu holat ikkinchi jahon urushidan keyingi “demografik to‘ldirish” davrida tug‘ilgan aholining bugungi kunda keksalar guruhi qatoriga qo‘shilishi bilan izohlanadi.

Aholining keksayishi jarayoni O’zbekiston uchun ham xos bo‘lmoqda. Respublikada kechayotgan demografik jarayonlarning zamonaviy tendensiyalarining tahlili aholining yosh tarkibida bolalar salmog‘ining kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagi va qariyalar salmog‘ining oshib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida istiqbolda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo‘nalishlarida ham

<sup>4</sup> Демографический ежегодник Узбекистана 2003. – Ташкент, 2004, – С.127

<sup>5</sup> Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане 2010. – Ташкент, 2011. – С.46

o‘ziga xos o‘zgarishlarning amalga oshirilishini, aholi keksayishining hududiy va gender jihatlari e’tiborga olingan keksalarni ijtimoiy himoya qilish loyihalari va dasturlarini ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi demografik rivojlanish istiqbolini belgilashga bog‘liq. Shuni hisobga olgan holda O’zbekistonning 2025 yilgacha bo‘lgan davrdagi uzoq muddatli demografik prognozi “yoshni siljитish” usulidan foydalanib, amalga oshirildi.

Istiqbolda demografik jarayonlar va bu jarayonlarning borishi bilan bog‘liq yuzaga keladigan tendensiyalar, bиринчи navbatda, reproduktiv yoshdagи ayollar sonining istiqbol ko‘rsatkichlariga bog‘liq (12.2-jadval).

## 12.2-jadval

### O’zbekistonda reproduktiv yoshdagи ayollar sonining istiqbol ko‘rsatkichlari (ming kishi hisobida)

Yillar	Reproduktiv yoshdagи ayollarning yosh guruhlari bo‘yicha soni								
	15-19	20-24	25-29	30-34	35-39	40-44	45-49	15-49	
2011	157,3	156,0	137,2	110,9	98,0	86,2	82,8	828,4	
2012	153,4	157,6	143,5	114,6	99,6	88,8	82,6	840,1	
2013	148,5	158,3	148,7	119,1	101,4	91,0	82,7	849,7	
2014	143,3	158,7	151,9	123,9	104,2	93,2	82,9	858,1	
2015	137,6	158,7	153,6	129,7	107,2	95,3	83,4	865,5	
2016	131,5	156,8	155,3	136,4	110,1	97,1	85,2	872,4	
2017	127,0	153,0	156,9	142,6	113,8	98,7	87,7	879,7	
2018	124,3	148,1	157,6	147,8	118,2	100,5	90,0	886,5	
2019	123,1	142,9	158,0	151,0	123,0	103,3	92,1	893,4	
2020	129,2	137,2	158,0	152,7	128,8	106,3	94,2	906,4	
2021	137,0	131,1	156,1	154,4	135,4	109,1	96,0	919,1	
2022	145,6	126,7	152,3	156,1	141,6	112,8	97,6	932,7	
2023	154,8	123,9	147,4	156,7	146,8	117,2	99,3	946,1	
2024	164,3	122,8	142,3	157,0	150,0	121,9	102,1	960,4	
2025	167,6	128,8	136,6	157,1	151,6	127,7	105,1	974,5	
2025 yilda 2011 yilga nisbatan, %	106,5	82,5	99,5	141,6	154,7	148,1	126,9	117,6	

12.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2011 yildan boshlab respublikada 15-19 yosh guruhidagi ayollarning soni keskin kamaya boshlaydi. So‘ngra bu tendensiya 2016 yildan aholining 20-24 yosh guruhiga, 2021 yildan esa 25-29 yosh guruhiga o‘tadi. Bu tendensiya respublikada 1996 yildan boshlangan tug‘ilish darajasi keskin kamaygan davrda tug‘ilgan aholining 15-19 yosh guruhiga kirishi bilan izohlanadi. Tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan 1980-1995 yillarda tug‘ilgan aholi kogortasining 30-34, 35-39, 40-44, 45-49 yosh guruhlariga o‘tishi hisobiga bu yosh guruhlaridagi ayollarning soni muntazam ortib boradi. Xususan, 2025 yilda 2011 yilga nisbatan 30-34 yosh guruhidagi ayollar sonining 41,6 %ga, 35-39 yoshdagilarning – 54,7, 40-44 yoshdagilarning – 48,1, 45-49 yoshdagilarning esa 26,7 %ga o‘sishi kutiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, 1987-1991 yillarda tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davrda tug'ilgan aholining 2002 yilda 15-19 yosh guruhiga o'tishi natijasida respublikada tug'ilish darajasining birmuncha ortganligi hisobiga shu yillarda tug'ilgan aholining 2020 yilda 15-19 yosh guruhiga, 2025 yilda esa 20-24 yosh guruhiga o'tishi bu yosh guruhidagi ayollar sonining ortishiga olib keladi.

Aholining keksayishi tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari dinamikasida ro'y beradigan takrorlanmas o'zgarishlar oqibatidir (12.3-jadval).

### 12.3-jadval

#### O'zbekistonda tug'ilish va o'lim koeffitsiyentlarining istiqbol ko'rsatkichlari (% hisobida)

Yillar	Demografik ko'rsatkichlar (1000 kishi hisobida)					
	Jami aholi		Shahar aholisi		Qishloq aholisi	
	tug'ilish	o'lim	tug'ilish	o'lim	tug'ilish	o'lim
2011	21,0	5,5	17,6	6,7	23,2	4,8
2015	21,9	5,7	18,8	7,0	24,8	4,9
2020	20,5	6,4	17,9	7,4	23,2	5,2
2025	19,2	7,2	17,3	8,5	21,9	6,0
2025 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)	-1,8	1,7	-0,3	1,8	-1,3	1,2

Prognoz qilinayotgan davrda jami aholida, shu jumladan shahar va qishloq aholisida ham tug'ilishning umumiyo koeffitsiyentining 2011-2025 yillar davomida nisbatan kamayishi va bu tendensiya barqaror bo'lmasligi kutiladi. Xususan, 2011-2015 yillar davomida jami aholida tug'ilishning umumiyo koeffitsiyenti 0,9 punktga ko'payishi va 2015-2025 yillarda 2,7 punktga kamayishi kutiladi. Respublika va uning hududlarida 2015 yilgacha bo'lgan davrda tug'ilish ko'rsatkichining ortishi tug'ish yoshidagi ayollar mutlaq sonining nisbatan barqaror o'sishi hamda uzoq davr mobaynida tug'ilish ko'rsatkichining nisbatan yuqori bo'lganligi hisobiga ta'minlanadi. 2015 yildan keyingi davrda tug'ilish koeffitsiyentining birmuncha kamayishi esa 1991-2000 yillardagi tug'ilishning past davrida tug'ilgan aholining asosiy reproduktiv yoshga (20-24, 25-29 yosh) kirishi bilan bog'liqdir.

Hisob-kitoblarga qaraganda, prognoz qilinayotgan davr oxirigacha O'zbekistonda o'limning umumiyo koeffitsiyentining muntazam ortib borishi kutiladi. Agar 2011-2025 yillarda respublikada o'limning umumiyo koeffitsiyenti 1,7 punktga ko'paysa, shahar aholisida bu ko'rsatkich – 1,8, qishloq aholisida esa 1,2 punktga ortadi. Bunday holat mamlakat aholisi yosh tarkibida nisbatning keksa yosh guruhiga tomon siljishi bilan izohlanadi. Ma'lumki, qariyalarda o'lim ko'rsatkichi yuqori va bu o'z navbatida aholi o'rtaida o'lim ko'rsatkichining ko'payishiga olib keladi.

Asosiy demografik jarayonlarga xos bo'lgan yuqorida ko'rilmagan tendensiylar aholi yosh tarkibiga ta'sir etadi. Shularni hisobga olgan holda respublika aholisi yosh tarkibining 2025 yilgacha bo'lgan istiqboli aniqlandi (12.4-jadval).

### 12.4-jadval

## O'zbekistonda aholi yosh tarkibining istiqbol ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Birlik	Yillar			2025 yilda 2015 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2015	2020	2025	+,-	%
Jami aholi soni	ming kishi	30189,6	32346,5	34390,7	401,1	113,9
	foiz	100,0	100,0	100,0	-	-
Mehnatga qobiliyatli yoshgacha bo'lgan aholi soni (0-15 yosh)	ming kishi	9841,8	9995,0	9835,7	-6,1	99,9
	foiz	32,6	30,9	28,6	-4,0	-
Mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi soni (16-54 yoshdagi ayollar, 16-59 yoshdagi erkaklar)	ming kishi	17842,0	19440,2	21012,7	3170,7	117,7
	foiz	59,1	60,1	61,1	2,0	-
Mehnatga qobiliyatli yoshdan yuqori bo'lgan aholi soni (55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar)	ming kishi	2505,8	2911,3	3542,3	1036,5	141,3
	foiz	8,3	9,0	10,3	2,0	-

Prognoz qilinayotgan davrda respublikada jami aholi soni 13,9 foizga ko'payadi va 2025 yilga borib 34390,7 ming kishini tashkil qilishi kutiladi. Bu davr mobaynida aholi tarkibida mehnatga qobiliyatli yoshgacha bo'lgan aholi sonining 0,1 foizga kamayishi, aksincha mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi sonining 17,7, mehnatga qobiliyatli yoshdan kaata bo'lgan aholi sonining 41,3 foizga ko'payishi kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar tahlili asosida shunday xulosa qilish mumkin, bolalar soni muntazam kamayib, aksincha mehnatga layoqatli yoshdagi va undan katta bo'lgan aholi soni ortib boradi. Bu o'z navbatida respublikaning barcha hududlarida aholining "quyidan" qarish jarayonining rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1991-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining qarish indeksi 6,1 punktga ko'paygan. Albatta, ko'rilib yotgan davrning turli oraliqlarida hududlar miqyosida aholining qarish indeksining ko'payish sur'ati turlicha bo'lgan. Jumladan, 1991-1995 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida aholining qarish indeksi – 0,8, Toshkentda – 0,1, Navoiy va Xorazm viloyatlarida – 0,6, Toshkent shahrida – 2,2 punktga o'sgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Andijonda – 0,3, Samarqandda – 0,8, Jizzax, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida – 0,2 punktga kamaygan. Demak, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Toshkent, Navoiy, Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrida aholining keksayish jarayoni 1991 yildan boshlangan va bu bu tendensiya 2000-2010 yillarda respublikaning barcha

hududlariga ular aholisining yosh tarkibida bolalar mutlaq sonining qisqarishi hisobiga qarish indeksi ko‘rsatkichi ortishi bilan yoyildi.

Hisoblab chiqilgan aholining qarish indeksiga asoslangan holda hududlar aholisining keksayish darajasini jahonda qabul qilingan demografik mezonga ko‘ra uch guruhga ajratildi:

- birinchi guruhga – aholisi nisbatan sust keksayayotgan hududlar (20,0 % dan kam): Qashqadaryo, Samarcand, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari;
- ikkinchi guruhga – aholisi o‘rtacha darajada keksayayotgan viloyatlar (20,0-30,0%): Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari;
- uchinchi guruhga – aholisining keksayishi yuqori darajada bo‘lgan hududlar (30,0 % dan baland): Toshkent shahri va Toshkent viloyati kiritildi.

Yuqorida qilingan tahlillarga asoslangan holda shuni aytish kerakki, aholisi nisbatan sust keksayayotgan viloyatlarda ham aholining qarish indeksi ko‘tarilib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida yaqin kelajakda respublikamizning barcha hududlarida ham aholining keksayish darjasini rivojlanishini ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, aholining keksayishi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi hamda bu jarayon quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi.

Birinchidan, keksalar ulushining ortishi aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi. Odamning yoshi qancha katta bo‘lsa, mahsuldarligi shunchalik past bo‘ladi.

Ikkinchidan, aholining keksayishi iqtisodiyotda yoshlar ulushi kamayishini anglatadi. Bu esa ish bilan band aholini kasb-malaka va tarmoq tarkibining o‘zgarishi jarayoni va binobarin iqtisodiyotning samaradorligi oshishini sekinlashtiradi.

Uchinchidan, pensiya jamg‘armasi zimmasiga pensiyalar to‘lash xarajatlarining benihoya og‘ir yuki tushadi. Zero, pensionerlar ulushining ko‘payishi bilan bir yo‘la pensiya jamg‘armalariga mablag‘ to‘lab boradigan mehnatga qobiliyatli aholi salmog‘i qisqaradi.

To‘rtinchidan, keksalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun qo‘srimcha mablag‘ sarflash, gerontologik muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va butun sog‘liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi.

Beshinchidan, hali ishslashni istaydigan “yosh qariyalar”ni ish bilan ta’minalash lozim. Bu oson vazifa emas, chunki pensiya yoshiga yetmaganlarga ham ish o‘rinlari yetishmaydi.

Oltinchidan, aholining keksayishi moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining tarkibiga ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni aholi bu guruhining talab-ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovar va xizmatlar assortimentini o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi. Ba’zi texnologik operatsiyalarni ham o‘zgartirish, mashina va uskunalarni xodimlarning yosh xususiyatlariga moslashtirish kerak. Transport vositalari ham keksalarning talablariga monand bo‘lishi lozim.

Aholining keksayishi sharoitida qariyalarning turmush farovonligini oshirish uchun quyidagi choralarini amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- pensiya jamg‘armasining moliyaviy holatini yaxshilash;

- nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan qariyalarni manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasini yanada kuchaytirish;
- Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida geriatrik markaz va respublikaning barcha tuman va shaharlarida shu markazning bo'limlarini ochish hamda ular tomonidan aholining shu kategoriyasiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat turlarini ko'paytirish;
- bakalavriat va magistratura yo'naliishlari klassifikatoriga "Gerontologiya", "Geriatriya" ixtisosliklari, tibbiyot kollejlariga "Patronaj hamshirasi", "Ijtimoiy xodim" ixtisosliklarini kiritish bo'yicha davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritish va shu ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish;
- barcha mahallalarda qariyalar uchun mo'ljallangan kunduzgi muloqotda bo'lish va hordiq chiqarish jamoatchilik markazlarini ko'paytirish;
- yolg'iz keksalarga o'z uyida ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish.

**3-mavzu: Ish o'rinalarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish omillari. (2 soat)**

**1. Reja:**

1. ish o'rinalarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish va barqaror rivojlanish
2. Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish.
3. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.

**1.Aholi ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.**

**Aholini ish bilan bandligi** inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u mehnat masalalari bilan bog'liq muammolarni hamda mehnatga bo'lgan talab va takliflarni qondirish yo'llarini oolib beradi.

**Ish bilan bandlar** – a)pul bilan to'lanadigan yoki natural xolidagi haq evaziga yollanib, shuningdek, o'z faoliyati evaziga qancha muddat haq yoki daromad olishidan qat'iy nazar, foyda yoki oilaviy daromad olish uchun yollanmasdan haftasiga kamida 2 soat mobaynida ish bajargan; b)kasalligi yoki jarohatlanganligi tufayli, bemorlarga qarab turish uchun; yillik mehnat ta'tili yoki dam olish kunlarida; o'z ish joyidan tashqarida ta'lim olganligi uchun; ma'muriyat tashabbusi bilan ta'minoti saqlab qolningan yoki saqlab qolinmagan holda mehnat ta'tilda bo'lgan va boshqa shunga o'hshash sabablar bilan vaqtincha ishda bo'lмаган; v)oilaviy korxonada haq olmasdan ish bajargan shaxslar hisoblanadi.

**2.Ish bilan bandlikning turlari.**

Ijtimoiy mehnatda qatnashish usuli bo‘yicha aholining ish bilan bandligi ish bilan yollanish bo‘yicha bandlik va o‘z-o‘zini yollash tufayli mustaqil ravishda ish bilan band etish bilan xarakterlanadi. Ish bilan yollanish bo‘yicha bandlik ishlab chiqarish vositalari egalari bilan ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘lman va bo‘lg‘usi mehnatini (o‘z ishchi kuchini) ish haqi shaklidagi muayyan qiymatga almashinish tarzida sotadigan xodimlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlardir.

Yollanib ishlaydiganlar – ish bilan bandlarning eng ko‘p sonli guruhi bo‘lib, mulkchilikning har qanday shaklidagi korxona rahbari yoki alohida shaxs bilan pul yoki natura holida haq oladigan mehnat faoliyati shartlari haqida yozma mehnat shartnomasi, kontrakt yoki og‘zaki bitim tuzgan shaxslarni o‘z ichiga oladi.

O‘z-o‘zini yollash tufayli mustaqil ish bilan bandlik (self-employment) aholining ish bilan bandligini ta‘minlashda nisbatan yangi shakldir. Bu shunday ijtimoiy, huquqiy munosabatlarki, ularga kishilar ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish tufayli kirishadilar.

Iqtisodiyot va insonning ehtiyojlariga to‘g‘ri kelishi darajasiga qarab ish bilan bandlik **oqilona, samarali mahsuldor va eng maqbul** ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Ish bilan oqilona bandlik agregatsiyalangan ijtimoiy-iqtisodiy tushunchadir.

Ish bilan samarali bandlik ijtimoiy boshqaruvning jamiyat rivojining mazkur bosqichida turmush tarzining mezonlari taqozo etadigan xodimlarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tiklab borishga qodirligini nazarda tutadi.

Ish bilan mahsuldor bandlik shunday ish bilan bandlikki, u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish, mehnat unumdarligini oshirish maqsadlariga javob beradi.

Ish bilan eng maqbul bandlik insonning doimiy ish bilan bandlik bo‘lishga davlat tomonidan kafolat bo‘lman taqdirda jamiyatda muayyan mavqe egallashini ta‘minlaydigan shaxsiy tarkibda haq to‘lash shart-sharoitlari asosida moddiy va ma’naviy ne‘matlar yaratish maqsadida mehnat jarayonida qatnashishidir.

### **3.Aholining ish bilan bandligini tartibga solish.**

Davlatning to‘lov talabini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan xilma-xil usullar vositasida iqtisodiyotga aralashuvi orqali iqtisodiy faoliyikni rag‘batlantirish va buning natijasida ish bilan bandlikni kengaytirishga erishish mumkin.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim mezoni ish bilan bandlikka bo‘lgan munosabatdir. Ish bilan bandlik kompleks ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi deb qaraladi. Ish bilan bandlik muammolarining ijtimoiyligi uning avval, boshdan inson, uning manfaatlari va mehnat sohasidagi ehtiyojlariga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Aholini ish bilan ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatish usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bevosita (ma’muriy) usullar: qonun yo‘li bilan tartibga solish; mehnat qonunchiligi, jamoa shartnomalari.
- bilvosita (iqtisodiy) usullar: moliyaviy, monetar, fiskal (xazina) siyosati.

### **4.O‘zbekiston Respublikasida aholini ish bilan bandlik siyosati.**

O‘zbekistonda aholini ish bilan ta‘minlash sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mehnat qilish va ishni erkin tanlash huquqini amalga oshirishda barcha fuqarolarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, mansab mavqeい, dinga munosabati, e'tiqodi va jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik jihatlari hamda ular mehnatining natijalariga bog'liq bo'limgan boshqa holatlardan katiy nazar teng imkoniyatlarni ta'minlash;
- kishilarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularda mehnat qilish va hayot kechirishda munosib sharoitlarni ta'minlaydigan unumli va ijodiy mehnat qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;
- mehnat qilishning ixtiyoriyligi;
- sh bilan ta'minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta'minlash;
- ijtimoiy himoyaga o'ta muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolar uchun mavjud ish joylarini saqlab qolayottan va yangi ish joylarini yaratayottan ish beruvchilarni rag'batlantirish;
- ish bilan ta'minlash sohasidagi tadbirlarni ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning boshqa yo'naliishlari bilan muvofiqlashtirish;
- aholini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishda davlat organlari, kasaba uyushmlari, xodimlarning vakillik organlari va ish beruvchilarning o'zaro hamkorligi;
- aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda davlatlararo hamkorlik<sup>6</sup>.

## **5. Aholini ish bilan bandligini oshirish yo'naliishlari.**

Ish bilan bandlik siyosati umum davlat (makrodaraja), mintaqaviy va mahalliy darajalarga ega. Ish bilan bandlik siyosatining barcha darajalari yagona ish bilan bandlik konsepsiysi bilan birlashgan, bu konsepsiya iqtisodiy rivojlanishning qabul qilingan tipini aks ettiradi.

Makrodarajadagi ish bilan bandlik siyosati ijtimoiy bozor iqtisodiyotidagi ish bilan bandlikning asosiy xususiyatlarini shakllantirish: fuqarolarning mehnat qilish huquqini amalga oshirish va yuqori turmush darajasiga erishishning zarur sharti bo'lган ish bilan to'liq bandlikni ta'minlashga qaratilgan. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti boshqaruв usullarida iqtisodiyot samaradorligini oshirish, xo'jalik yuritish sohasi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'limgan ish o'rinalarini siqib chiqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining iste'mol talabini qondirish uchun ishchi kuchini qayta guruhlarga bo'lishga qaratilgan. Bunday sharoitda ish bilan to'liq bandlikka ko'maklashish strategik maqsad bo'lib qoladi.

Eng yaqin taktik maqsad ish o'rinalariga bo'lган talab va taklifning balanslanishidir. Bunga faqat ishchi kuchiga bo'lган talab va taklif balansli bo'lishiga erishish shartlariga kompleks yondashuv bilan erishish mumkin. Bu muammoni hal qilishda, ko'pincha ommaviy ishsizlikning oldini olishning zarur sharti bo'lган ish o'rinalari tizimini rivojlantirishga e'tibor beriladi.

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Ахолини иш билан таъминлаш тўғрисида"ти Қонуни 5-моддаси, Тошкент, 2002.

Aholining qayta barpo bo‘lishida o‘g‘il bolalarning ko‘proq tug‘ilishi muhim o‘rin tutadi. Chunki ayollarga nisbatan erkaklar o‘limi deyarli dunyoning barcha mintaqalarida saqlanib kelmoqda. Aholi qayta barpo bo‘lishining barqarorlashuvi muntazam yangicha ko‘rinish kasb etuvchi ishlab chiqarishni, ilm-fanni yetarli darajada kadrlar bilan yechish uchun xizmat qiladi. Shu o‘rinda turmush quruvchilarning yoshi ham muhim o‘rin tutadi. Juftliklarning muvofiqligini nemis olimi Zelgeym quyidagi nisbatda belgilaydi:

Agar ayol yoshi	bo‘lganda erkak yoshi
21 yosh	27 yosh
25 yosh	32 yosh
28 yosh	35 yosh
31 yosh	39 yosh
35 yosh	45 yosh
38 yosh	50 yosh

1979 yilda demograf olim A.G.Vishnevskiy shunday degan: «Aholining qayta barpo bo‘lishi – go‘yo o‘zgarmas doimiy jarayon sifatida ilm-fan diqqatini uzoq vaqt o‘ziga tortmadi. Vaqt o‘tib, unda shunday o‘zgarishlar sodir bo‘ldiki, natijada katta hajmdagi muammolar paydo bo‘la boshladi va bu muammolarning yechimini topishga butun dunyo fani tayyor emasligi ma’lum bo‘lib qoldi». 1974 yilga kelib yirik demograf olim B.S.Urlanis «Problemy dinamiki naseleniya SSSR» nomli asarida aholining kelgusidagi o‘sish tempi variantlarini keltirish barobarida ishlab chiqarish va iste’mol masshtabini belgilash bevosita aholisining kelgusida qancha bo‘lishi bilan bog‘liq ekanligini asoslashga harakat qildi.

Professor B.S.Urlanis - rejallashtirilgan iqtisodiyotda aholi sonining o‘sishini prognozlash o‘ziga xos rol o‘ynaganini e’tirof etgani holda demografik jarayonlarning harakatini kuzatish asnosida kelgusida ishlab chiqarishdagi qilinishi lozim bo‘lgan birinchi darajadagi ishlarni belgilab berishini ta’kidlaydi.

Aholining qayta barpo bo‘lishi to‘g‘risida gap ketganda, professor B.S.Urlanis hisobi bo‘yicha ko‘payish samarali natijalarni beradi. Unga ko‘ra, 200 ota-onada uchun bolalar soni 265 ta bo‘lishi aholining qayta barpo bo‘lishining samarali kechishini ta’minlaydi. Shundagina balag‘ot yoshidagi erkak va ayollar o‘rtasidagi mutonosiblikni ta’minlaydi, ya’ni 1,00. birlikni hosil qiladi. Aholining qayta barpo bo‘lishi turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Masalan, 1926-1927 yillarda 1,68; 1958-1959 yillarda 1,26; 1968-1969 yillarda 1,11. Agar, u 1,00 birlikdan yuqori bo‘lsa, aholining qayta barpo bo‘lishida musbat o‘zgarish yuzaga keladi. Bu o‘z o‘rnida, aholining yashash shart-sharoiti (shahar, qishloq) bilan ham bog‘liq. Keyingi 30 yil davomida, hozirgi Markaziy Osiyoda aholining qayta barpo bo‘lishi o‘rtacha 2,5 koeffitsienti tashkil etdi.

1,00 - depopulyatsiyaning boshlanish darajasi bo‘lib, ikkinchi jahon urushiga qadar dastlab Fransiyada kuzatildi. 1930 yillarda tug‘ilish ko‘rsatkichlari o‘lim ko‘rsatkichlaridan pasayib ketdi. Aholining qayta barpo bo‘lishi 0,87 ga tushib qoldi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda tug‘ilishning rag‘batlantirilishi aholining takror barpo bo‘lishi koeffitsiyentida 1,31, ya’ni 1,5 marta o‘sishiga olib keldi. Fransiya aholisi 1945 yilda 40 mln. bo‘lgan bo‘lsa 1965 yilga kelib (20 yilda), 50 mln. kishiga yetdi.

## **2 §. Aholining tabiiy xarakatining umumiyligi, tarixiy va regional jihatlari**

1960 yillarda mehnat resurslarining xalqaro aralashuvi ishlab chiqarishni yuksaltirishdagi omillardan biri sifatida maydonga chiqdi va u iqtisodiy o'sish ko'rsatikchlariga ta'sir etishi hamda uning sababi sifatida davlatlarning mehnatga haq to'lash darajasidagi tafovutlar ekanligi ilmiy asoslandi.

Neoklassik yondoshuv tarafдорлари fikriga ko'ra, «har bir kishi o'z mehnati orqali yaratgan mahsulotni oladi va iste'mol qiladi», ular fikricha, emigratsiya qabul qiluvchi davlatlarning iqtisodiy rivojlanishida ijobiy o'zgarishlarni sodir etadi. Emigratsiya qilinadigan davlat esa o'z holicha qoladi yoki har qanday holatda uning iqtisodiyotida salbiy o'zgarish bo'lmaydi. Biroq, neokeynschilar mehnat resurslari, ayniqsa, yuqori ixtisoslashgan, ya'ni sifatli ishchi yoki xizmatchilar emigratsiyasi yuz bergan davlatlar iqtisodiyotida salbiy o'zgarishlar bo'lishni tan oldilar.

Eramizning boshlaridan dunyo aholisi XIX asrga qadar 710 mln. kishiga, XX asrga qadar 4590 mln. kishiga va 1990 yillarga qadar 23 martaga oshgan. XX asr boshlariga qadar bolalar o'limi yuqori edi. U davrda yaxshi ta'minlangan va madaniyatli oilalarda ham bolalarning yashab ketishiga kafolat yo'q edi. Oqibati o'lim bilan tugaydigan bolalar kasalliklarini davolash yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi sababli shunday holat yuzaga kelgan. 1950-1990 yillar davomida dunyo aholisi 2,1 martaga, jumladan, Xorijiy Yevropada 1,3, Shimoliy Amerikada-1,6, Avstraliya va Okeaniyada 2,0, Xorijiy Osiyoda 2,2, Lotin Amerikasida 2,7, Afrikada 2,9 martaga oshdi.

XX asr boshidan II jahon urushiga qadar hozirgi hamdo'stlik davlatlaridagi demografik jarayonlar tahlilining diqqat markazida avvalombor Rossiya, keyin Sobiq ittifoqning Yevropa qismi turardi. Bu davr migratsiyasi ham yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'ldi. 1926 yildan 1939 yilga qadar Rossiya aholisi yiliga 1318,3 ming kishiga, Ozarbayjon aholisi 895,9 ming kishiga, Ukraina 159,7, O'zbekiston aholisi 143,0 ming kishiga o'sib bordi. 1959 yilda Qozog'istonda jami aholining 42,7%i, Qirg'izistonda 30,2%i, Ukrainada 16,9%i, O'zbekistonda 13,5%i yoki sobiq Ittifoqdagi barcha ruslarning shunga muvofiq ravishda 3,5; 0,5; 6,2; 1,0 foizi yashagan.

Xalq xo'jaligini rivojlantirishga asoslangan avvalgi tizimda mehnat resurslarining ichki migratsiyasiga ham rejalashtirilgan iqtisodiyotning ta'siri yuqori bo'ldi. Ayniqsa, 70-yillarda qishloqlarni shaharlarga tenglashtirishga qaratilgan siyosat oqibatida migratsiyadagi erkin harakat izdan chiqdi. Aslida shahar va qishloqlar o'rta sidagi tavofut doimo mavjud bo'lgan va bundan keyin ham shundayligicha qoladi. Masalan, o'sha davrda tashkil qilingan shahar tipidagi aholi punktlari (soxta shaharlar) bugungacha shaharga aylanib ulgurmadi. Chunki shaharlardagi sanoat ishlab chiqarishning rivojlanib borishi uchun malakali va sifatli mehnat resurslariga ehtiyoj saqlanib qoladi. Bu to'g'risida 70-yillarda V.I.Perevendensev, J.A.Zayonchkovskaya, T.I.Zaslavskayalar o'z tadqiqotlarida izoh berib o'tishgan. V.I.Perevendensev: «Qishloq aholisi – shahar yoshlariga nisbatan taqqoslanganda, shahar ishchilarining o'rmini to'ldirish uchun biroz bilimsizroq, ammo hozirda ishlayotgan ishchilarga nisbatan ancha uquvli» - ekanligini ta'kidlagan. 90-yillardan boshlab Dunyo mamlakatlarida aholining ham ichki, ham tashqi migratsiyasining faollashuvi Yevropa, sobiq Ittifoq va boshqa mintaqalarda aholining hududiy taqsimlanishiga sabab bo'ldi. Masalan, Yugoslaviyaning besh davlatga

parchalanib ketishi va harbiy urushlar oqibatida 2,5 mln.dan ortiq kishining qochoqlar qatoriga qo'shilishiga sabab bo'ldi. Shu yillar davomida 125 mln. dan ortiq kishi o'z yurtidan tashqarida yashaganligi qayd etilgan. Yevropada sanoatning eng og'ir tarmoqlarida immigrantlar ishlashadi. Masalan, Fransiyada qurilishida band bo'lgnarning 1/4 qismi va avtomobilsozlikda band bo'lgnarning 1/3 qismi, Shveysariyada qurilishda band bo'lgnarning 2/5 qismini immigrantlar tashkil etadi.

Albatta, butun sanoat yoki iqtisodiyotni tashqaridan ishchi kuchi yollash orqali sifatli mehnat resurslari bilan ta'minlash yoki iqtisodiyotni barqarorlashtirish mumkin emas. Bunda asosiy e'tibor mamlakatning ichidagi malakali mutaxassislardan samarali foydalanishga qaratiladi. Ikkinci jahon urushidan keyingi davrdagi demografik jarayonlar bevosita yangi yerlarning o'zlashtirilishi va mehnat resurslarining joylashuvi bilan bog'liq bo'ldi.

XX asrning ikkinchi yarmida bir necha yuz minglab ziyolilarning xalqaro mehnat migratsiyasiga kelib qo'shilishi «aqlli idrokli odamlar» («Utechka mozgov» yoki «Brain drain») ning boshqa yurtlarga o'tib ketishi odatiy hol bo'lib qoldi. Masalan, 80-yillarning boshida Buyuk Britaniya Arab mamlakatlarining 600 ta olimi, 45 mingdan ortiq universitet ma'lumotiga ega bo'lgan kishi ishlagan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bu davorda AQShdagagi milliy akademiya a'zolarining 1/4 qismi, Nobel mukofoti sovrindorlarining 1/3 qismini xorijiy mutaxassislar tashkil etgan.

Bugungi kunga kelib, reemigratsiya masalasida ko'pgina G'arb mamlakatlari faol tadbirdarni ishlab chiqmoqda. Masalan, Fransiya, Niderlandiya kabi davlatlar reemigratsiyaga yo'naltiruvchi dasturlarni ishlab chiqqan. Biroq, rivojlanayotgan davlatlarning ko'pchiligidagi mehnat resurslarini eksport yoki import qilishga ehtiyoj mavjud. Masalan, ilmiy bashoratlarga ko'ra, 2025 yilga borib, Rossiya aholisi 147 mln. dan 134 mln. kishiga kamayishi oqibatida Rossiyada 11 mln., Qozog'istonda mln. kishi (mehnat resurslari) ga ehtiyoj ortadi. Mehnat resurslari eksporti va importidan samarali foydalanish va uning sifatiga e'tibor qaratish chet el valyutasi yoki tajribasi kirib kelishining asosiy manbalaridan biridir.

Bu davorda barcha migratsiyalarning 85%dan ortig'rog'i Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelgan. Ko'chib kelganlar hissasi Qirg'iziston, Armaniston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston respublikalarida yuqori bo'lgan. Shuningdek, ko'chib ketuvchilar hissasi yuqori bo'lgan respublikalarga Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston kiritish mumkin. Bu mamlakatlarga barcha ko'chib ketuvchilarning 50% dan ortig'ini tashkil etadi. Demak, bu davr Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'izistonda aholi harakati tarixida migratsion faoliyat eng yuqoriligi bilan iz goldirgan.

Migratsiya saldosi eng yuqori musbat ko'rsatkichga ega bo'lgan respublikalarga Rossiya, Ukrainani kiritish mumkin. Manfiy migratsiya saldosi yuqoriligiga ko'ra, O'zbekiston (-1540), Gruziya (-1036), Ozarbayjon (-875) respublikalari ajralib turadi. Yana shuni ta'kidlash joizki, o'sha yillardagi Gruziya aholisining 22,1%i, Ozarbayjon aholisining 17,0%i boshqa respublikalarga ko'chib ketishgan.

Yer sharida so'nggi vaqtida yiliga 135-137 mln bola tug'ilib, 53-55 mln kishi o'lmoqda. Tabiiy o'sishning miqdori 82-84 mln. kishini tashkil qiladi. Dunyoda tug'ilishning juda ko'p koeffitsiyentlari Afrikaga regionlar ichida Afrikaning barcha

regionlari hamda Markaziy Amerika va G'arbiy Osiyoga juda past koeffitsiyentlari Shimoliy Amerikaga, Yevropa, Rossiya hissasiga to‘g‘ri keladi.

Aholi soni va uning tarkibiga go‘daklar o‘limi ham juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Yer sharida 1999 yilda jami 7,8 mln bola bir yoshga yetmasdan o‘lganligi qayd etildi. Shundan sal kam 2 millioni Hindistonga, 631 mingtasi Xitoyga to‘g‘ri keladi. Pokiston, Bangladesh, Indoneziya, XXDR, Braziliya, Nigeriya, Efiopiya, mamlakatlarda hozirgi vaqtda yiliga 200-500 ming bola bir yoshga yetmasdan o‘lmoqda. Afg‘oniston, Butan, Gvineya, Liberiya, Mozambik, Chad va boshqa jami 26 mamlakatda 100 yuqori, 42 mamlakatda 50 dan 100 promillegacha bo‘lgan ko‘rsatkich bilan aniqlanmoqda. Bolalar o‘limi mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti darajasi bilan teskari aloqaga ega. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bolalar o‘limi koeffitsiyenti 4-8 promillega o‘zgaradi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyati beqaror, iqtisodiy qoloq bo‘lgan mamlakatlarda mazkur ko‘rsatkich odatda 100 dan ortiq, ayrim hollarda 50 dan ham yuqori darajaga egaligi bilan ajralib turadi.

Aholining turmush darajasi va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tabiiy harakati jarayonlari hamda shakllangan yosh tarkibi orqali uning o‘rtacha umr davri aniqlanadi. Aholining o‘rtacha umr davri 1999 yil 66 yoshga teng bo‘ldi.

Bu ko‘rsatkich iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda (Yaponiya, Shvetsiya, Shveysariya jami 57 davlat) 77-81 yoshni, qoloq mamlakatlarda 42-60 yoshni tashkil etadi. O‘rtacha umr davrini eng yuqori ko‘rsatkichlari Yaponiyaga (81 yosh), Fransiyaga va yana 17 mamlakatga 78-79 yosh eng past ko‘rsatkichlari Markaziy Afrika Respublikasi (41 yosh), Afg‘oniston (43 yosh) va Gviniya (44 yosh) mamlakatlariga xosdir. O‘zbekistonda o‘rtacha umr davri erkaklarda 66 yoshga ayollarda 72 yoshga, o‘rtacha 69 yoshga teng. So‘nggi ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston dunyo mamlakatlari ichida 101-107 o‘rinlarda joylashgan. Tarixiy umr davri atigi 25 yoshga teng bo‘lganligini asoslaydi. O‘rtacha umr davri bu ko‘rsatkich taxminan 30 yoshgacha ko‘tarildi. Mana shu o‘rtacha ko‘rsatkichlar umr davri yuqori bo‘lgan insonlar mavjudligini inkor qilmaydi.

### **3 §. Demografik jarayonlar va mehnat resurslarining shakllanishi**

Mehnat resurslari soni va sifati mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. 2004 yilda O‘zbekistonda mehnat resurslari jami aholining 54,3 foizini tashkil etdi. 2000 yildan keyingi davrda mehnat resurslari soni yiliga o‘rtacha 400 ming kishiga ortib bormoqda. Mamlakat aholisining o‘rtacha yoshi 25 yoshni tashkil etib, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanuvchi mazkur omil, o‘z nFavbatida, uni rivojlantirish va taraqqiy ettirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Respublika aholisining soni 2005 yilda 26,3 mln. kishini tashkil etdi. O‘zbekiston aholisi yiliga salkam 300 ming kishiga ko‘paymoqda. Hozirgi kunda mamlakat aholisining o‘sishi – yiliga o‘rtacha 1,2% ga teng. Aholining tabiiy o‘sishi koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan viloyatlarga Surxondaryo (19,2%), Qashqadaryo (19,4%), Jizzax (17,6%) viloyatlari kiradi.

O‘zbekistonda aholining 36,7 foizini 14 yoshgacha bo‘lganlar tashkil qiladi. 2004 yilda aholining tabiiy o‘sishi har 1000 kishiga 15 kishini tashkil qildi. 2005 yilning

boshida qishloq joylarda 16,6 mln. kishi yoki mamlakat aholisining 63,6 foizi yashadi. Qishloq aholisining umumiyligi tarkibida 8,8 mln. kishi yoki 54,08 foiz aholi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshda. Shundan 5,5 million kishi (70,5 foizi) ish bilan band. Statistik ma’lumotlarda qayd etilishicha, band aholining 30,9 foizi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. Aholi to‘g‘risidagi bu ma’lumotlar uning respublika qishloq xo‘jaligi uchun naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

Shuningdek, mehnat resurslari bandligi borasida ayrim hududiy nomutonosibliklar ham mavjud. Bu nomutonosibliklar qishloq xo‘jaligida yangi xo‘jalik yuritish shakllarining rivojlanishi bilan o‘z yechimini topadi. Qishloq joylarda mehnat bazalarining asosiy muammosi – ish o‘rinlarining talab darajasidan pastligidir. Bu uzoq davrlar davomida qishloq xo‘jaligining barcha sohalari yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli paydo bo‘lgan.

Bunday nomofiqqliklar ishsizlik, ishslashni xohlaydigan, lekin turli sabablarga ko‘ra bandlik xizmatlarida ro‘yxatga olinmagan mehnatga layoqatli yoshdagagi aholi to‘planganligi bilan bog‘langan. Qishloq joylarda mehnatni qo‘llash sohalarining kamligi tufayli ish kuchiga bo‘lgan talabning pastligi amalda respublikaning barcha mintaqalariga xos xususiyat bo‘lib, ishchi kuchlarining qo‘shni davlat Qozog‘iston va Rossiyaga yashirin migratsiyasi ham shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘lmoqda.

Ma’lumki, sobiq Ittifoq parchalanib, uning o‘rnida paydo bo‘lgan mustaqil suveren davlatlarda 25 million rus millatiga mansub aholi bor edi, hozirgacha ularning ko‘pchiligi Rossiyaga ko‘chib o‘tdi. Rossiya hozirgi kunda MDH davlatlari orasida ishchi migrantlari oqimi qaratilgan davlat bo‘lib qolmoqda va kelajakda ham shunday bo‘ladi. Mualliflarning fikricha, bunga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

birinchidan, Rossiyadagi demografik vaziyat, masalan, 2003 yil Rossiyada tug‘ilish koeffitsiyenti har ming kishiga 9,0‰, o‘lim esa 15,0‰ ni, tabiiy ko‘payish manfiy 6,0‰ ni tashkil etgan;

ikkinchidan, Rossiyaning bepoyon hududidagi tabiiy resurslarning o‘zlashtirilishi; uchinchidan, MDH davlatlaridagi aholining ko‘pchiligi rus tilida gaplasha bilishidir.

Rossiya uchun hozir ham, kelajakda ham Markaziy Osiyo respublikalari assosiy ishchi kuchi bilan ta’minlaydigan mamlakatlar bo‘lib qoladi, chunki ushbu respublikalarda hali ham tug‘ilish darajasi ancha yuqori [1]. O‘zbekiston Markaziy Osipyoda tabiiy o‘sishning yuqoriligiga ko‘ra, boshqa mamlakatlardan farq qiladi. 2000 yilda noqonuniy migrantlar soni Rossiyada – 1,3-1,5 mln. kishini, Qozog‘istonda 200 ming kishini, O‘zbekistonda 30 ming kishini tashkil etgan. Shu o‘rinda, O‘zbekistondan Rossiyaga borib ishlab yashirin migratsiyani hosil qilayotganlar soni 231 ming kishini tashkil etadi. MDH davlatlari o‘rtasida sodir bo‘layotgan migratsiya tebranma (mayatniksimon migratsiya) xususiyatiga ega.

Markaziy Osiyo davlatlaridan MDHning boshqa hududlari jumladan, Rossiya, Ukrainaga ishslash uchun ketayotganlar orasida vrachlar va boshqa yuqori ixtisoslashgan mehnat resurslarining ketishi o‘z mustaqilligi uchun kurashayotgan va ayni paytda shu kabi mutaxassislarini tayyorlashda katta mehnat sarflayotgan bu davlatlar uchun salbiy yo‘qotish hisoblanadi. Ayrim statistik prognozlarga ko‘ra, 2020 yilga borib, Rossiyada 11 mln., Qozog‘istonda 6 mln. mehnat resursiga ehtiyoj ortadi. Shu bois, MDH mamlakatlari migratsiya xizmatlarini amalga oshiruvchi muassasalari sodir bo‘layotgan

noqonuniy migratsiyaga chek qo'yishlari uchun hamkorlik doirasini kengaytirishlari lozim bo'ladi.

Bizga ma'lumki, 200 ota-onaga 265 tug'ilish aholining qayta barpo bo'lishini 100% ta'minlaydi. Biroq, ko'payishiga olib kelmaydi. Bugungi kunda aholisi o'sishdan kamayishga o'zgarayotgan Rossiya uchun 1,20 koeffitsiyenti lozim bo'ladi. Bu har 100 samarali oila uchun 320 tug'ilishning ta'minlanishi demakdir.

Ko'p sonli egizaklarning tug'ilishi dunyo miqyosida ko'p qayd etilgan. Ko'pgina holatda bunday egizaklar yashab ketishi qiyin bo'lgan va o'lim bilan yakun topgan. Beshtadan egizaklarning tug'ilishi bir necha 10 marta yuz bergan. Shundan 15 holatda ular yashab ketishgan. Masalan, 1934 yilda Kanadada, 1943 yilda Argentinada, 1971 yilda Polshada bu kabi bolalar tug'ilishi ijobjiy yakun topgan.

X.Zayonchkovskayaning fikriga ko'ra, Rossiya tabiiy o'sishdagi tendensiyaga ko'ra, immigrantlarga doimo ehtiyojda bo'ladi. Uning fikriga ko'ra, faqatgina mamlakat iqtisodiyoti krizisdan chiqmagandagina immigrantlarga ehtiyoj sezilmaydi. Rossiya iqtisodiyotining rivojlanishi barqarorlashgan sayin immigrantlarga ehtiyoji ortib boradi. XIX-XX asrda AQSh immigratsiya davlati bo'lganligi singari XXI asrda Rossiya dunyoda immigratsiya mamlakatiga aylanadi. 2000 yilda Rossiya aholisining barqaror o'sishi va immigratsiya oqimining yuqori bo'lishiga qaramay ishsizlik yoki ishga joylashishda muammolar yuz berdi. Bu mehnat yoshidagi aholining kasb egallash salohiyati bilan bog'liq bo'ldi. Ishlab chiqarish quvvati 1990 yillar darajasiga yetmasada, hozirda mehnat resurslarining yetishmasligi mamlakat iqtisodiyotini turg'unlashtirmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2002 yilda sanoatda mehnat resurslarining 1/4 qismi to'lmay qoldi [3].

Rossiya XXI asr o'rtalariga qadar hozirgi aholi ko'rsatkichlarini saqlab qolish uchun, u 50 yil davomida 35-70 mln. immigrant qabul qilishi lozim. Shundagina aholining qayta barpo bo'lishi 700 ming kishiga o'sadi. Joriy 5 yillikdan 2025 yilga qadar 1200 kishiga ortadi [4]. 1990 yillarda Rossiya ko'chib keluvchilar oqimi yuqori bo'lgan davrda ham aholi ko'rsatkichlaridagi tabiiy yo'qotishni qoplay olmadi.

1989 yillarga nisbatan aholining qayta barpo bo'lishini taqqoslaganda, agar immigratsiya oqimi yuqori bo'limganda edi, hozirda Rossiya aholisi 7,4 mln. kishiga yoki 5 foizga qisqarishi mumkin edi. Aholining qayta barpo bo'lishi immigratsiya hisobiga 1/4 tabiiy yo'qotishni qopladi. Shu bois, Rossiya aholisi atigi 18 mln. kishiga yoki 1,25% ga qisqardi. 1991-2001 yillar davomida dunyo miqyosida immigratsiya intensivligi yuqori bo'ldi. Bu davr davomida AQSh 924 ming, Germaniya 865 ming, Rossiya 781 ming immigrant qabul qildi. 1989-2002 yillardagi statistik tahlillarga ko'ra, Rossiya aholisi immigratsiya hisobiga 5560 ming kishiga o'sdi va aholining immigratsiya hisobiga o'sishi esa, yiliqa 400 ming kishini tashkil etadi, bu 1980 yillarga nisbatan ikki hissa yuqoridir.

1990 yillarda Rossiya aholisining migrations o'sishi asosan Qozog'iston bilan bog'liq bo'ldi. Keyingi o'rinni O'rta Osiyo mamlakatlari egallagani holda, ularning ulushi 1/3 qismini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda Kavkaz orti mamlakatlari (20 foiz atrofida), Boltiq bo'yi davlatlari (5 foiz) hamda Ukraina, Moldaviya (9 foiz). Sobiq Ittifoq mamlakatlaridan ko'chib kelgan migrantlarning aksariyat qismini ruslar tashkil etgani holda ularning ulushi 1992 yillarga qadar 60 foizdan kam bo'lмаган. Migrantlarning 10 foizdan yuqorisi boshqa etnik guruqlar hisobiga to'g'ri keldi.

Hozirgi davrda sobiq Ittifoq respublikalaridagi 1989 yilga qadar yashagan 25,3 mln. etnik ruslardan 3,3 mln. kishi Rossiyaga ko‘chib o‘tgani. Qирғизистон, Туркманистон, О‘збекистондан kelgan migrantlarning umumiy soni 1,5 mln. kishini tashkil etgani holda, bu shu mamlakatlarda yashayotgan 2 mln. ruslarni qisman o‘rnini bosadi.

Immigrantlar sonini har ming kishiga hisoblaganda Rossiya hisobiga 5,4 kishi tashkil etgan holda, Germaniya (10,6)dan keyingi o‘rinda va faqat AQSh (3,5) Rossiyadan keyingi o‘rinda turadi. Shu yillar davomida Qozog‘iston hududidagi 20 foiz ruslar ko‘chib ketishgan. Bu davrdagi Qozog‘istondan Rossiyaga ko‘chib ketuvchilar soni Qozog‘istondagi iqtisodiy ahvol bilan bog‘liq bo‘ldi. 1994 yil Qozog‘istondan ruslarning 20 foizi ko‘chib ketishga tayyor edi. 1997 yil 1/3 qism ruslar ko‘chib ketishni xohlashgan, keyinchalik ko‘chib ketuvchilar soni qisqara borgan.

1994-2001 yillar davomida Rossiyadagi migratsiya saldosи 810 ming kishini tashkil etgani holda, bu ko‘chib keluvchilarining 1/4 qismini tashkil etadi va shundan 39 foizi ukrainlar, 45 foizi kavkazliklar va Markaziy Osiyo etnik guruhlaridan kelishgan. 1994 yilda Rossiya aholisining migratsion o‘sisi 810 ming kishiga yetdi. Keyinchalik 2001 yilga kelib, 72 ming kishigacha pasaydi.

Hozirda malakali ishchilar uchun ish o‘rinlari va to‘lovlarining pasayishi o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Dunyo bo‘yicha davom etayotgan tendensiyaga ko‘ra, yuqori to‘lovli ish o‘rinlarining qisqarishi kuzatilmoqda. Bu davrda malakali ishchilar bir vaqtning o‘rnida o‘zi va oilasini ta’minalash uchun bir necha o‘rta va kam to‘lovli ishlarda ishlashiga to‘g‘ri keladi.

Bu qatlamga kiruvchi intilegentlar va xizmatchilar yanada murakkab vaziyatlarda qolishadi. Asosan ta’lim sektorida xizmat qiluvchilar, o‘qish yoshidagi aholi qatlamining kamayishi hisobiga 10 minglab tarbiyachi o‘qituvchilar ish o‘rinlarini yo‘qotadi.

Demografik jarayonlar ham tabiat qonunlari singari murakkab tuzilishga ega. Demografik siyosat qanday bo‘lishiga qaramay, u doimo o‘zining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilib turadi. G’arbiy Yevropadagi singari Rossiya aholisida ham 65 yoshdan oshganlar yaqin kelajakda jami aholining 1/5 qismini tashkil etadi.

XX asr boshlarida 20 yillardan boshlab, Qozog‘istonning asosan shimoliy qismida quloq qilinganlar, keyinchalik koreyslar, polyaklar, nemislар o‘rnasha boshlashdi. 50-yillarga kelib esa bir necha yuz minglab, aslida qishloq xo‘jaligi hashari uchun kelib, keyinchalik o‘rnashib qolganlar hisobiga aholi soni orta bordi. Natijada 1926 va 1939 yillar davomida chetdan kelgan aholi 2,8 mln.dan 3,8 mln. kishigacha o‘sdi. Shu davrda tub qozoqlar soni 3,7 mln. dan 2,3 mln. gacha yoki 38% ga qisqardi. Bu natijaga Sovet hukumati sun’iy ocharchilikni tashkil etish hisobiga erishdi [5]. 1927-1938 va 1939-1958 yillardagi aholi ro‘yxatida Qирғизистонда yashovchi o‘zbeklar ulushi 20% dan yuqori bo‘lgan. Ayniqsa, Farg‘она vodiysi chegarasidagi O‘sh viloyatida asosan o‘zbeklar ulushi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu davrda Qozog‘iston va O‘zbekiston respublikalari poytaxtlarida tub aholi shunga muvofiq ravishda 40,3% va 16,3% rus millatiga mansub aholi 33,8% va 65,3%ni tashkil etgan.

1959 yildagi o‘tkazilgan aholi ro‘yxatiga ko‘ra, Qozog‘iston mintaqasidagi eng ko‘p millatli respublikaga aylandi. Bu davrda tub aholi, ya’ni qozoqlar respublika aholisining 30%ini tashkil etdi. Bu davrda respublikada ruslarning ulushi biroz kamaydi va jami aholining 42,7%ini tashkil qildi va boshqa millat vakillari ulushi 27,3% ni tashkil etdi.

1970-1979 yillardagi davr oralig‘ida ham shu holat deyarli saqlanib qolgan. Bu davrda ruslarning respublikadagi ulushi 40,8% ga tushgan. Boshqa omillar ta’sirida qolgan millatlar ulushi ham 23,2% ga qisqargan. Bu davrlar mobaynida Qirg‘izistonidagi aholining etnik tarkibi dinamikasini baholaganda ham shunday holat kuzatiladi. Bu respublikaga albatta qulq qilinganlar jo‘natilmagan bo‘lsada, O’rta Osiyo xalqlari (o‘zbeklar, qozoqlar, tojiklar, uyg‘urlar, dunganlar)ning ulushi yuqori bo‘ldi. Bu davrda ruslarning ulushida ham birmuncha o‘sish yuz berdi. Rus millatiga mansub mehnat resurslari rejalashtirilgan iqtisodiy davrdagi ko‘chirilishi oqibatida respublikaning tub aholisini milliy ozchilik darajasiga tushirib qo‘ydi.

#### **4 §. Aholining yosh-jins tarkibi va mehnat resurslarining shakllanishi**

Aholining yosh jins tarkibi unga xos belgilar ichida eng muhimi hisoblanadi. Chunki ishga qarab aholining jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati baholanadi. Butun dunyoda erkaklarning soni ayollarnikiga nisbatan qariyb 30 mln.ga ko‘proqdir. Lekin ayrim materiklar, regionlar va erkaklar bilan ayollar soni o‘rtasidagi farq sezilarli tusga ega. Bolalar yoshlarida barcha materiklar va regionlarda o‘g‘il bolalarning ustunligi ko‘zga tashlanadi. Dunyoda 9-14 yoshda har ming qizga 1040 o‘g‘il bola to‘g‘ri keladi. Ushbu ko‘rsatkich Yevropada (1060) Osiyoda (1050) hamda Avstraliya va Okeaniyada (1059) undan ham yuqori. Faqat Afrika (1008) va Amerika (1029) da nisbatan past daraja bilan ifodalanadi. Bolalar sonidagi farqning kelib chiqishida tug‘ilgan har ming go‘dakning 520 tasi o‘g‘il bolalardan iborat bo‘lishligi omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aholining asosan mehnatga layoqatli yoshdagagi qismidan tashkil topgan 15-65 yoshida dunyo bo‘yicha har 1000 ayolga 1020 ta erkak to‘g‘ri keladi. Yevropada erkaklar soni ayollar soniga teng. Osiyoda xar 1000 ayolga 1049 ta erkak Avstraliya va Okeaniyada esa 1039 erkak to‘g‘ri keladi. Mazkur ko‘rsatkich Afrika (979 erkak) va Amerika (990 erkak) da aksincha ayollar ustunligi bilan ifodalanadi. Yuqoridai yosh guruuhlarida erkaklar bilan ayollar o‘rtasida mavjud bo‘lgan farqlar juda ko‘p omillar ta’sirida shakllangan. Bunda dunyo va region hamda mamlakat doirasidagi urushlar erkaklar bilan ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning o‘rtacha umr davridagi farqlar va boshqa omillarning roli juda kattadir.

Dunyo aholisining tarkibida bolalar ulushi kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagagi va aholi salmog‘i ko‘paymoqda. Binobarin, 1970-1999 yillarida 0-14 yoshdagagi bolalar ulushi 36,6 da 31 foizgacha kamaydi. Mehnatga layoqatli yoshlarda aholi salmog‘i 57,7 dan 62,0 foizga yetdi.

Keksa aholining ham salmog‘i 7,0 foizni tashkil etdi. Xitoy, Hindiston va boshqa qator mamlakatlarda erkaklar soning ustunligi ayollarning jamiyatda tutgan murakkab, ba’zi xollarda ayanchli o‘rni hamda mazkur mamlakatlarda oila o‘g‘il bolani ko‘rishga bo‘lgan juda katta intilish va ana shu maqsadga erishishda xar qanday choraga hatto endi tug‘ilgan qizni o‘ldirishgacha borishga tayyorligi bilan bog‘langan.

Aholi jinsiy tarkibining shakllanishida dunyo ayrim region va mamlakatlar miqyosida bo‘lib turuvchi migrantsion aloqalarning roli ham kattadir. Yevropa va Shimoliy Amerika emigrantlarni qabul qiluvchi Osiyo va Afrika emigrantlarni yetkazib

beruvchi hisoblanadilar. Dunyo aholisining yosh tarkibi ham katta hududiy farqlarga ega. Bunda tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari dinamikasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Quyidagi jadval ma’lumotlaridan dunyo aholisining yosh tarkibiga xos xususiyatlar va nisbatlarni ko‘rish mumkin.

#### **4-mavzu: Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida. (2 soat)**

##### **Reja:**

1. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarining omillari
2. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanishning ilmiy uslublari hamda yo‘llari.

Har bir mamlakatdagi demografik vaziyat iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tug‘ilish darajasining o‘sishi muayyan vaqtdan so‘ng mehnat bozorida ish bilan bandlik tegishli ravishda o‘zgarishiga hamda davlat budgetining ijtimoiy ehtiyojlarga xarajatlari darajasiga, shuningdek ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi amal etishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Demografik tendensiyalarining o‘zgarishi va insonni rivojlanadirish – o‘zaro bog‘liq jarayondir.

*Demografiya* (ko‘hna yunoncha “δῆμος” — “xalq” va “γράφω” — “yozaman” so‘zlaridan) — — aholi takror hosil qilinishi qonuniyatları, uning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy sharoitlar, migratsiyaga bog‘liqligi, aholining soni, ularning hududlarda joylashishi, tarkibi, o‘zgarishi, sabablari va mazkur o‘zgarishlar oqibatlari to‘g‘risidagi fandir.

Demografik vaziyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. U aholining tabiiy o‘sishi, milliy va ijtimoiy tarkibi, migratsiyasi, mehnat resurslari va ularning ish bilan bandligi kabi kategoriyalarni mujassamlashtiradi.

Demografiyaning predmeti aholini tabiiy takror hosil qilish qonunidir. Umuman olganda, demografiyaning fan sifatida uchta muhim vazifasi ajratib ko‘rsatiladi:

- demografik jarayonlar tendensiyalari va omillarini o‘rganish;
- demografik prognozlarni ishlab chiqarish;
- demografiya sohasidagi siyosatni ishlab chiqish.

Demografi fani uzoq vaqt davomida amaliy ehtiyojlarga muvofiq aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, ularni qayta ishslash va talqin etish bilan shug‘ullanib kelgan. Demografiyaning ushbu funksiyalarini bajarishi jarayonida uning tadqiqot usullari muttasil takommilashib bordi.

“Demografiya” atamasi birinchi bor fransuz olimi A. Giyyarning “Inson statistikasi unsurlari yoki taqqoslama demografiya” (A. Guillard, “Eléments de statistique humaine ou Démographie comparée”, 1855) kitobi nomida paydo bo‘ldi. Muallif demografiyaga *keng ma’noda* – “*inson zotining tabiiy va ijtimoiy tarixi*” yoki *torroq ma’noda* – “*aholi, uning umumiylar harakati, jismoniy, fuqarolik, intellektual va ahloq xolatini matematik anglash*” sifatida qaragan.

“Demografiya” atamasi 1882 yilda Jenevada bo‘lib o‘tgan Gigiyena va demografiya bo‘yicha xalqaro kongress nomlanishida rasmiy e’tirof etildi.

Qadimiy davrlardayoq aholini ro‘yxatga olish zarurati tug‘ilgan. Ko‘hna Gretsiya, Rim, Xitoyda, keyinchalik O‘rta asrlarda aholishunoslik to‘g‘risidagi bilimlar va

tassavurlar mavhum, tizimsiz bo‘lganligi tushunarlidir. Ayrim mamlakatlarda oilalar, tug‘ilishni tartibga solishga harakat qilib ko‘rilgan. O’sha davrlardayoq mutafakkirlar aholi soni bilan inson rivojlanishi o‘rtasidagi aloqadorlikka e’tibor qaratganlar.

Konfutsiy (miloddan ilgari taxminan 551-479 yillar) ishlov beriladigan ekin maydonlari bilan aholi soni o‘rtasidagi eng maqbul nisbatni aniqlashga harakat qilib ko‘rgan. Uning fikricha, bu nisbatning buzilishi quyidagi sabablarga olib kelishi mumkin bo‘lgan:

- aholi soni kam bo‘lsa, ekinzorlarga ishlov berish yomonlashadi va dexqonlar soliq to‘lashdan bosh tortadi;
- aholi nihoyatda zich bo‘lsa, odamlarning qashshoqlashishi, bekorchilarning ko‘payishi sababli ijtimoiy muammolar kuchayadi.

Bundan aholi soni davlat tomonidan tartibga solinishi kerakligi hamda odamlarni aholi zich mintaqalardan aholi kam bo‘lgan hududlarga ko‘chirish masalasini hal qilish talab etilishi kabi xulosalar chiqarilgan.

Platon (miloddan avvalgi 428-347 yillar) ideal davlat to‘g‘risidagi ta’limotida erkin fuqarosi 5040 nafar bo‘lgan davlat ana shunday modelga javob berishini ko‘rsatgan. U nikoh munosabatlarida ham muayyan tartib o‘rnatishni taklif etgan, jumladan erkaklar faqat 30 yoshdan 55 yoshgacha farzand ko‘rishi maqsadga muvofiqligini asoslagan. Platon shunday yozadi: “nikoxlar sonini belgilashni hamda urush, kasallanish va hokazolarni hisobga olgan holda erkaklar soni imkoniyat darajasida muqim bo‘lishi, davlat imkoniyati boricha kattalashmasligi ham, kichiklashmasligi ham choralarini ko‘rishni hukmdorlardan so‘raymiz”.

Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 yillar) ham erkin fuqarolari kamsonli bo‘lgan davlatni ideal deb hisoblagan. Uning fikricha, fuqarolar sonining kam bo‘lishi ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlaydi, aholi haddan tashqari ko‘p bo‘lganda esa bunga erishish mumkin emas. Aholining ortiqchaligi ular tomonidan e’tirozlar bildirilishi hamda jinoyatlar soni ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Shu bmlaye birga oholi ko‘paysa, fuqarolarning bir qismi yerga ega bo‘lmasdan qashshoqlashadi.

Demografiyaning fan sifatda chinakam shakllanishi XVII asr ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Ana shu vaqtida kapitalizmning rivojlanishi aholishunoslikni o‘rganishga doimiy ehtiyoj tug‘dirdi.

Tarixan olib qaralganda demografiyada ilmiy o‘rganishning birinchi ob’ekti odamlar o‘rtasidagi o‘lim bo‘ldi. Avlodlar o‘limi xaqidagi bilimlar umr ko‘rish davomiyligini (tug‘ilish darajasi muqim bo‘lsa, aholi soni ham barqaror bo‘ladi) aniqlash hamda hayotni sug‘urtlashda umr ko‘rish davomiyligiga bog‘liq ravishda sug‘urta to‘lovleri miqdorini xisoblabilishi imkonini berardi.

XVIII asrda ayrim mamlakatlarda vafot etganlar va tug‘ilganlar hamda aholi sonini aniqlashga dastlabki urinishlar kuzatildi.

XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshida AQShda aholini ro‘yxatga olishning zamonaviy usuliga asos solindi, 1790 yilda aholini joriy hisobga olish yo‘lga qo‘yildi. Demografiyada aholini takror xosil qilish tadqiqotlarning markaziy ob’ektiga aylandi.

*Aholini takror hosil qilish* – aholining tabiiy harakati natijasida avlodlarning armashinishidir. Aholini takror xosil qilish tug‘ilish va o‘limlar soniga qarab aniqlanadi.

Demografik jamlanma ko'rsatkichlar o'zgarishiga muvofiq, aholi takror hosil qilinishining uch asosiy tarixiy turini ajratib ko'rsatish mumkin.

Ulardan birinchisi – *aholini takror hosil qilishning qadimiy turidir*. U ibtidoiy jamiyat uchun xos bo'lgan va hozirgi paytda uchramaydi.

Aholi takror hosil qilinishining ikkinchi turi – “*an'anaviy*” yoki “*patriarxal*” *takror hosil qilish turidir*. U agrar jamiyatda hamda industrial jamiyatning ilk boqichlarida ustunlik qilgan. Tug'ilish va o'lim darajasi yuqoriligi, o'rtacha umr ko'rish davomiyligining pastligi bu turning asosiy belgilaridir.

Ko'pbolalik an'anaviy odad bo'lib, u agrar jamiyatda oila yaxshi amal etishiga ko'maklashadi. O'lim darajasining yuqoriligi esa odamlar turmush darajasi pastligi, mehnatning og'irligi, to'yib ovqatlanmaslik, tibbiyotning zarur darajada rivojlanmaganligi oqibatidir. Takror xosil qilishning bunday turi rivojlanish darajasi past bo'lgan Nigeriya, Bangladesh va ayniqsa Efiopiya uchun xosdir. Efiopiyada tug'ilish darajasi - 45,0%, o'lim esa – 20,0 % ni, umr ko'rishning o'rtacha davomiyligi atigi 43 yilni tashkil etadi.

Rivojlanayotgan davlatlarning ko'pchiligidagi (Meksika, Braziliya, Filippin va boshqalar) keyingi 10 yillikda takror hosil qilishning “an'anaviy” turi jiddiy ravishda o'zgardi. Ushbu mamlakatlarda tibbiyotdagagi muvaffaqiyatlar tufayli o'lim darajasi 6,0 % – 10,0 % gacha pasaydi, lekin tug'ilishning an'anaviy hisoblangan yuqori darajasi asosan saqlanib turibdi. Natijada ushbu davatlarda aholining tabiiy o'sishi yuqori – yiliga 2,5 – 3,0 % ni tashkil etadi. Aholini takror hosil qilishning bevosita ana shu - “o'tish” turi XX asr oxirida jahonda aholi soni o'sishi sur'atlari yuqori bo'lishini ta'minladi.

*Aholini takror hosil qilishining “zamonaviy” yoki “oqilona” turi* tug'ilish darajasi pastligi, o'lim darajasining o'rtachaligi, aholining tabiiy o'sishi nisbatan kamligi va umr ko'rish o'rtacha davomiyligining yuqoriligi xususiyatlariga egadir. Mazkur tur aholining turmush darajasi va madaniyati yuqoriroq bo'lgan, iqtisodiy jixatdan rivojlangan davlatlar uchun xosdir. Ushbu mamlakatlardagi tug'ilish darajasining pastligi oilani ongli tartibga solish bilan uzviy bog'liqdir. O'lim darajasiga esa aholi tarkibida katta yoshdagilar salmog'ining yuqoriligi ta'sir ko'rsatadi.

Keyingi yarim asr mobaynida demografiyani umumiy rivojlanishning iqtisodiy va ijtimoiy omillari nuqtai nazaridan o'rganishga e'tibor ortmoqda.

Demografiyada *jamlanma birlik* – *insondir*. Bu birlikning belgilari ko'p – jins, yosh, oilaviy ahvol, ta'lim darajasi, mashg'ulot turi, millat va hokazolar. Ushbu belgilari inson umri davomida o'zgarib boradi. Shuning uchun aholi miqdorida odamlarning yosh, jins tarkibi, oilaviy ahvol kabi xususiyatlar mujassamlashgan. Har bir odam hayotidagi o'zgarishlar aholi tarkibidagi o'zgarishlarga ham olib keladi. Ushbu o'zgarishlar jamlanma holida aholining harakatini tashkil etadi.

Aholi soni o'sishining umumiy xususiyatini tabiiy o'sish belgilaydi. Mazkur ko'rsatkich tug'ilganlar bilan o'lganlar soni o'rtasidagi farqning mutlaq mikdori sifatida ifodalananadi. Aholi tabiiy o'sishining yuqori sur'atlari, agar bu jarayon o'lim darajasi past sharoitlarda kechayotgan bo'lsa, qulay demografik vaziyat sifatida baholanadi. Biroq qator mamlakatlarda tug'ilish tartibga solinmasligi oqibatida demografik vaziyat keskinlashadi. Bunda demografik inqirozning turli belgilari – bolalar va onalar o'limi

darajasining yuqoriligi, aholi salomatligi ko'rsatkichlarining pastligi, umr ko'rish o'rtacha davomiyligining kamayishi va hokazolar paydo bo'ladi.

Odatda aholi harakati uch guruhga tasdiqlanadi:

● *tabiiy harakat* – bu tug'ilish, o'lim sonini qamrab olib, mazkur vaziyatlarni o'rganish bevosita demografiya vakolatidadir;

● *mexanik harakat (migratsiya)* – bu aholining hududlar bo'yicha harakatlanishlarining barcha turlari jamlanmasidir. Mazkur jarayon pirovard natijada aholining joylashishi, zichligi, mavsumiy va tebranuvchan harakatchanligi xususiyatlarini belgilaydi;

● *ijtimoiy harakat* – bu odamlarning bir ijtimoiy guruhdan ikkinchisiga ko'chib o'tishidir. Ushbu harakat turi aholi ijtimoiy tarkibi takror hosil qilinishini belgilaydi.

Migratsiya va takror hosil qilish jarayonlari o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjuddir. Migratsiya ko'chib yurgan odamlar ommasining tug'ilishi, nikohda bo'lishi, salomatligi va o'limiga ta'sir ko'rsatadi. Ana shu sifatda u aholini takror hosil qilishining omillaridan biriga aylanadi. Biroq migratsiya jarayonlarida jo'g'rofiy va iqtisodiy omillarning (tabiiy sharoitlar, iqlim, iqtisodiy rivojlanish darjasи, ijtimoiy infratuzilma va hokazolar) roli takror hosil qilishnikiga qaraganda ancha sezilarlidir. Aholining migratsiyasi – bu, eng avvalo ish kuchining migratsiyasidir.


Xalqaro Mehnat Tashkiloti hamda Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot mehnat migrantlariga aholining o'zi istiqomat qiladigan mamlakat bir hududidan ikkinchisiga yoki boshqa mamlakatga ko'chib borib, mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lish ta'rifini beradi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1949 yil 1 iyuldagи "Ko'chmanchi mehnatkashlar to'g'risida"gi 97-Konvensiyasiga muvofiq: "ko'chmanchi mehnatkash ishslash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chuvchi shaxsni anglatadi"<sup>7</sup>.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti mehnat migratsiyasining quyidagi asosiy turlarini ajratib ko'rsatadi:

● *shartnoma asosida ishlovchilar*. Bu holda migrantlarni qabul qiluvchi davlat tomonidan ularning mazkur mamlakatda bo'lish muddatlari aniq belgilab qo'yiladi. Migratsiyaning bu turi asosan ish kuchini mavsumiy (masalan, qishloq xo'jaligi, qurilish) ishlarga jalb qilish bilan bog'liqdир;

● *malakali kadrlar migratsiyasi*. Bunga yuqori malakali mutaxassislar yoki ishchilarni imtiyozli tartibda (yuqori ish haqi, boshqa imtiyozlar hisobiga) ishga taklif qilinishi misol bo'la oladi;

<sup>7</sup> Инсон хуқуклари бўйича халқаро шартномалар. –Т. Адолат. 2004. -149 б.



### 12.1-rasm. Mehnat migratsiyasi tasnifi<sup>8</sup>

- *noqonuniy migratsiya*. Bu noqonuniy ravishda boshqa mamlakatlarda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishdir;

- *qochoqlar*. Bular toifasiga hayoti xavf ostida qolishi oqibatida boshqa joylarga ko‘chishga majbur bo‘lganlar kiradi;

- *ko‘chmanchilar*. Ular doimiy yashash uchun boshqa joyga ko‘chib borganlardir.

*Hudud bo‘yicha* ichki va tashqi migratsiya farqlanadi. *Ichki mehnat migratsiyasi* bir mamlakat miqyosida, mintaqalar, tuman va shaharlar o‘rtasida bo‘ladi. *Tashqi mehnat migratsiyasi* deyilganda ish kuchining bir davlatdan boshqa davlatga ko‘chib o‘tishi tushuniladi. U quyidagi xususiyatlarga egadir:

- rivojlanayotgan davatlardan rivojlangan davlatlarga mehnat migratsiyasi;
- rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida mehnat migratsiyasi;
- rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida mehnat migratsiyasi.

*Malaka bo‘yicha* yuqori malakali hamda past malakali ish kuchi migratsiyasi farqlanadi.

Mehnat migratsiyasi *davomiyligiga* qarab:

- *doimiy yoki uzoq muddatga* mo‘ljallangan (boshqa mamlakatga doimiy ko‘chib ketish yoki qishloq joylaridan shaharga doimiy yashashga ko‘chib ketish);

- *vaqtinchalik* (masalan, shartnomalar asosida boshqa mamlakatga muayayn davrga ishslash uchun borish);

<sup>8</sup> Абдурахмонов К.Х. Мехнат иқтисодиёти. –Т.: Мехнат. 2009. -254-255 б.

- *mavsumiy* (masalan, qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb etish);
- *tebranuvchan* (ish kuchining bir hududdan ikkinchisiga, masalan qishloq joylaridan shaharlarga muntazam qatnab ishlashi).

Mehnat migratsiyasi, shuningdek, *qonun jihatidan qonuniy*, ya’ni mamlakatda amal qilayotgan qonunchilik, xalqaro huquq normalari, davlatlararo huquqiy bitimlar asosida hamda *noqonuniy* bo‘lishi mumkin.

Mehnat migratsiyasida ish kuchi harakatchanligi mezoni ham hisobga olinadi. *Ish kuchi harakatchanligi* mehnatga layoqatli aholining muayyan turdag'i mehnat faoliyatini muayyan joyda bajarishga qodirligi va tayyorligi bilan belgilanadi. Uning ijtimoiy-kasbiy va hududiy xususiyatlari mavjuddir. Mazkur jihatlarni quyidagicha guruhash mumkin:

1. Ish kuchi ko‘chishining zarurati omillari. Ularga ijtimoiy-kasbiy harakatchanlikda ish haqi, mehnat shart-sharoiti va mazmuni, ish vaqt, xizmat sohasida ko‘tarilish ehtimoli bilan belgilansa, hududiy harakatchanlik turmush darajasi, ijtimoiy infratuzilma, turar joy sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

2. Yangi ish joyining maqbulligi omillari yuqorida qayd etilganlar qatori qilingan sarflardan yangi ish joyida foydalanish hamda turar joyni almashtirish imkoniyatlarini ham qamrab oladi.

3. Bu guruh omillari imkoniyati harakatchanlikning osonligi bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy-kasbiy harakatchanlikda xodim malakasi, tajribasi, yoshi va boshqa xususiyatlari hamda yangi ish joyiga joylashishning osonligi asosiy rol o‘ynasa, hududiy harakatchanlikda ular qatori ko‘chib o‘tish harajatlari ham ahamiyatga egadir.

4. Mazkur guruh omillari ijtimoiy-kasbiy harakatchanlikda bo‘sh ish o‘rnlari to‘g‘risidagi axborotlar mavjudligi, ularning ishonchliligi, axborot olish qiymati bilan belgilansa, hududiy harakatchanlikka ko‘chib boriladigan joylar to‘g‘risidagi axborotlar hamda ularning qiymati muhim hisoblanadi.

Mehnat migratsiyasida *donor mamlakatlar* (ish kuchini eksport qiluvchilar) hamda *retsepiyent mamlakatlar* (ish kuchini import qiluvchilar) farqlanadi. Umuman olganda mehnat migratsiyasi retsepiyent mamlakatning ish kuchiga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlaydi, donor mamlakatlarda esa iqtisodiy faol aholini esa ish bilan bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Mehnat migratsiyasi donor mamlakatlar iqtisodiga quyidagicha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- ish kuchi eksporti mamlakat mehnat bozoridagi vaziyatni yaxshilaydi, ya’ni ish kuchi migratsiyasi natijasida ortiqcha mehnat resurslari soni kamayadi. Bu, ayniqsa, aholisi zich mamlakatlar(Xitoy, Hindiston, Meksika, Turkiya, Pokiston)ga ijobiy ta’sir o‘tkazadi;

- ish kuchi eksporti donor mamlakatlar fuqarolariga retsepiyent davlatlarda yangi zamonaviy mutaxassisliklarni o‘zlashtirish, o‘z malakalarini oshirish, yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish imkonini beradi;

- ish kuchi eksporti donor mamlakatlarga qo‘srimcha valyuta kirib kelishi hamda emigrant xodimlar oila a’zolari turmush darajasini oshirish manbai hisoblanadi;

- donor mamlakatlar o‘z fuqarolarining chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirish bilan shug‘ullanadigan firmalardan davlat budjetiga soliq undiradi.

Shu bilan bir qatorda ish kuchi migratsiyasining donor mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'siri ham mavjuddir. Ular quyidagilardan iborat:

- ish kuchini eksport qiladigan mamlakatlar o‘z mehnat resurslari, mehnatga layoqatli iqtisodiy faol aholi ma’lum qismidan ajraladilar;
- donor mamlakatlar imigrant ishchilarni o‘qitish va malakasini oshirish uchun sarflagan mablag‘lari retsipyent davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadlarida foydalaniladi;
- yuqori malakali va mehnat bozorida g‘oyat raqobatbardosh ish kuchi eksporti donor mamlakatlar ishlab chiqarishining muhim tarmoqlarida yuqori malakali kadrlar taqchilligiga olib kelishi mumkin.

Ish kuchi migratsiyasi retsipyent mamlakatlar iqtisodiyotiga quyidagi ijobjiy samara keltiradi:

- xorijdan ish kuchining kirib kelishi yuqori darajadagi safarbarlikni ta’minlab, iqtisodiyot tarkibidagi muayyan tarmoqlarni jadal rivojlantirishga xizmat qiladi;
- ish kuchi migratsiyasi retsipyent mamlakatlarning kadrlar tayyorlash uchun harajatlarini tejash imkonini beradi;
- imigrantlar ichki bozorni rivojlantiradi, chunki ular tovar va xizmatlarga talabni oshiradilar;
- ish kuchi importi retsipyent mamlakatlar kompaniya va firmalarning bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi, chunki arzon ish kuchi kirib kelishi natijasida ishlab chiqarish harajatlari tejaladi;
- imigrantlarning vaqtinchalik bo‘sh mablag‘laridan retsipyent mamlakatlar iqtisodiyotini moliyalashtirish uchun foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Mehnat migratsiyasining retsipyent davlatlar uchun ham salbiy tomonlari mavjuddir. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining xorij ish kuchiga qaramligi ortadi;
- ichki ish kuchining mahalliy mehnat bozoridagi bahosi pasayadi hamda xorij ish kuchining taklifi ortadi.

Shuning uchun har bir davlat o‘z migratsiya siyosatini amalga oshiradi. Jumladan, qator davlatlardan xorij ish kuchi sifatiga – ularning ma’lumoti, kasb-malakasi, ish stajiga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, Avstraliyada imigrantlar ishga qabul qilinishi uchun o‘z mutaxassisligi bo‘yicha kamida uch yillik ish stajiga ega bo‘lishlari kerak.

Ish kuchini import qilayotgan mamlakatlar yosh bo‘yicha ham muayyan talablar qo‘yadilar. Mehnat migrantlari asosan 20-40 yoshda bo‘lishlari talab etiladi. Shu bilan birga xorijlik ishchilar, jumladan, Shvetsiya va Norvegiyada tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ishga qabul qilinadi.

Turli davlatlarda ish kuchi miqdoriga kvotalar belgilanadi yoki moliyaviy va vaqt cheklovleri o‘rnataladi. Masalan, Gretsiyada grek millatiga mansub bo‘limgan xodimlarni ishga yollashda cheklovlar o‘rnataligan. Irlandiyada esa mehnat faoliyatini boshlash uchun migrantlar muayyan miqdorda mablag‘ to‘lashlari talab etiladi. Ish kuchini qabul qilib oluvchi davlatlar mehnat faoliyati davomiyligini ham belgilaydilar.

Migratsiya, odatda, mehnat faoliyatini inson kapitalining bahosi yuqori bo‘lgan sohalarga ko‘chirishga ko‘maklashadi. Amerikalik iqtisodchilar R.J. Erenberg va R.S.

Smit aholi imkoniyatlar yomon bo‘lgan mintaqalardan imkoniyatlar yaxshi bo‘lgan mintaqalarga ko‘chib o‘tadi degan xulosaga kelgan. Ushbu jarayonda ko‘chib o‘tish to‘g‘risida qaror qabul qilishga muhojirning yoshi va ta’lim darajasi katta rol o‘ynaydi. Mehnatga loyaqatli yoshlarning migratsiya faolligining eng yuqoriligi ularning migratsiyadan manfaat olishlari uchun vaqtłari ko‘pligi bilan izohlanadi<sup>9</sup>.

So‘nggi paytda mehnat migratsiyasini tahlil etishda inson kapitalining mamlakat iqtisodiy o‘sishning *endogen omilini* tadtiq etishga e’tibor kuchaydi. Bunday yondashuv tarafdorlari (R. Lukas, P. Romer va boshqalar) jamlangan inson salohiyati iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili, xalqaro iqtisodiy migratsiya mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy o‘sish sur’atlaridagi farqlar natijasidir degan xulosaga kelganlar. Bunda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirishning endogen mexanizmi sifatida inson kapitalining jamlanishi namoyon bo‘ladi. Xalqaro mehnat migratsiyasi muxojirlarda inson kapitali jamg‘arilishiga yordam beradi.

Aholini hisobga olish statistikasida quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- *mavjud aholi* – hisobga olish paytida mazkur aholi punktida doimiy yashash joyidan qat’i nazar mavjud bo‘lgan aholi qismi;
- *doimiy aholi* – hisobga olish paytida amalda qayerda bo‘lganidan qat’i nazar mazkur aholi punktida doimiy yashaydigan aholi qismi;
- *vaqtincha yo‘qlar* – hisobga olish paytida doimiy yashash joyida vaqtincha yo‘q bo‘lgan (6 oydan ko‘p bo‘lmagan davrda) shaxslar;
- *vaqtincha borlar* – xhsobga olish paytida mazkur aholi punktida vaqtincha bor bo‘lgan (6 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda) shaxslar.

*Aholi sifati* – aholining ijtimoiy hayot kechirishi, ijtimoiy ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar sub’ekti sifatida xarakterlaydigan kategoriadir. Ya’ni bu aholining tarkib topgan tabiiy, texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sharoitlarga munosabati hamda ushbu sharoitlarni o‘zlarining o‘zgarib boradigan ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyatidir. Aholi xususiyati (tug‘ilish, o‘lim, ta’lim, malaka darajasi va hokazolar) miqdor jihatidan o‘zgarib boradi. Aholining sifat xususiyatlarini, eng avvalo, ta’lim va salomatligini yaxshilash aholi takror hosil qilinishi tejamkorligini, ya’ni aholi sonini saqlab turish aholi soni va uning o‘sishi sur’atlarini o‘lim va tug‘ilishning mutlaq soni qisqarganda ham saqlab turish imkonini beradi.

<sup>9</sup> Эренберг Р.Дж., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная практика. – М.: МГУ, 1996. - С.338, 367.

## IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATYERIALLARI

(jami 10 soat)

### 1-mavzu: Demografiya statistikasi

Aholi bilan bog'liq ma'lumotlarni toplash, ilk davlatchilikning shakllanish davrlariga borib taqaladi. Hatto uzoq o'tmishda, ya'ni Rim imperiyasi davrida mamlakat harbiy qudratini oshirish maqsadida aholi, yoshi, jinsi haqida dastlabki ma'lumotlar toplanganligi tarixdan hammaga ma'lum.

**Aholi haqida ma'lumot toplash** - Demografiyadagi asosiy axborot manbalari quyidagilar:

5. Har 10 yilda bir marta o'tkazilib turadigan aholi ro'yxati.
  6. Demografik xodisalarining joriy statistik ro'yxati (tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish)ning hisobi va uzlucksizligi.
  7. Aholi joriy kartotekasining uzlucksizligi.
  8. Alohidalar va maxsus kuzatuvalar.
2. Aholi ro'yxati bu mamlakat yoki uning biror hududida ma'lum vaqtida yashovchi aholi bilan bog'liq ma'lumotlar toplami bo'lib, unda demografik va aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlar tahlili va bahosi aks ettiriladi. Aholi ro'yxatida quyidagi masalalar o'r ganiladi:
- mamlakat hududidagi aholi soni va joylashuvi, shahar va qishloq aholisi, aholi migratsiyasi;
  - aholining milliy tarkibi, ona tili va muloqat tili, fuqaroligi;
  - aholining ma'lumoti, qishloq xo'jaligi va sanoat yoki xizmat ko'rsatish tizimlarida bandligi, daromadlari;
  - oilalarining kompleks va ijtimoiy tavsifiga ko'ra turi va soni;
  - tug'ilish;
  - aholining yashash sharoitlari va b.q.
2. Aholining tabiiy harakati hodisalarining joriy hisobi – asosan tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish xodisalarining qayd etilishidir. Aholi tabiiy harakatining joriy hisobi ikki nusxada qayd etilib, ulardan biri arxivga, ikkinchisi esa fuqarolik holatlarini umumlashtirish, ma'lumotlar toplash va qayta ishlash uchun statistika muassasalariga topshiriladi. Biroq, bu ma'lumotlar jamlangan holda ham demografik jarayonlar intensivligini ifodalamaydi. Demografik xodisalar hajmi aholi soni bilan bog'liq. Masalan, aholi zich hududlarda ish o'rinalining kamligi va ortiqcha ishchi kuchlarining toplanib qolishi yoki aksincha, aholi siyrak hududlarda ish o'rnlariing ko'pligi va mehnat resurslarining yetishmasligi holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.
3. Aholining joriy kartotekasini turli ma'muriy davlat organlari yuritadi. Bu kartotekalar aniq maqsadlarni amalga oshirish maqsadida tuziladi va odadta aholining barcha qismini qamrab olmaydi, ya'ni ma'lum qismini (mikrorayon aholisi, ba'zi sotsial guruhlarni) hisobga oladi.
4. Alohidalar va maxsus kuzatuvalar. Aholining alohida guruhlari haqida ma'lumot olish va uni barcha aholi guruhlari uchun joriy etishda aholi ro'yxatiga nisbatan kam kuch talab etadi va ko'proq muammolarni o'r ganish imkonini beradi.

**Asosiy demografik ko'rsatkichlar** - Aholiga oid ko'rsatkichlarni ikkiga ajratish

mumkin, ular nisbiy va mutloq ko'rsatkichlardir.

Mutloq ko'rsatkichlar ma'lum vaqtdagi demografik xodisalar yig'indisidir ( bu vaqt oralig'i ko'pincha bir yilni tashkil etadi). Masalan, unga ma'lum vaqtdagi aholi, tug'ilganlar, o'lganlar sonini kiritish mumkin. Shuningdek, mutloq ko'rsatkichlar orqali aholi haqida ko'p ma'lumotga ega bo'lish qiyin. Ko'proq ma'lumotga va tahlillarga ega bo'lish uchun ilgarigi ma'lumotlardan foydalaniladi. Bu, o'z navbatida, tahliliy ma'lumotlarga erishish va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash imkonini beradi.

Qiyosiy tahlillar uchun faqatgina nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Mazkur ko'rsatkichlarning nisbiy deb atalishining sababi shundaki, ular doimo qaysidir aholi soniga nisbatan taqqoslash natijasida hosil bo'ladi.

**Aholi soni ko'rsatkichlari** - Aholi soni - aniq vaqtdagi aholi ko'rsatkichi bo'lib, bu ko'rsatkichlar orqali aholining mutloq o'sishi, o'sish tezligi va aholining o'rtacha sonini aniqlash mumkin bo'ladi.

Aholi soni  $S$ , ya'ni ma'lum yildagi aholi sonini aniqlash uchun

$$1) \quad \bar{S} = \frac{S_0 + S_1}{2} \quad - \text{ yil boshidagi va oxiridagi aholining mutloq soni ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.}$$

$$2) \quad \bar{S} = \frac{\frac{1}{2} S_0 + S_1 + \dots + S_{n-1} + \frac{1}{2} S_n}{(n-1)} \quad \text{teng oraliq muddatlarda (yil choraklari ko'rsatkichlari asosida) o'rtacha xronologik formuladan foydalaniladi.}$$

$$3) \quad \bar{S} = \frac{\sum s_i \cdot t_i}{\sum t_i} \quad \text{teng bo'limgan oraliq muddatlarda qo'llaniladigan formula.}$$

**Aholining tabiiy harakati** - Aholining tabiiy harakati - tug'ilish va o'lim jarayonlari bilan bog'liq aholi sonining o'zgarishidir.

$$\text{Tabiiy o'sish: } \Delta_{tab} = D - O \quad (4)$$

Unda,  $D$  – Tug'ilganlar (dunyoga kelganlar) soni,  $O$  – o'lganlar soni.

Aholining tabiiy harakati ba'zan aholining umumiy koeffitsiyenti ham deb atalishining sababi tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari hisoblanganda aholining umumiy soniga mos keladi. Biroq, aholining tabiiy harakati deb atashning ma'qulligi shundaki, tug'ilish va o'lim doimo turli tabiiy omillar ta'sirida bo'ladi va ma'lum qonuniyatlarga muvofiq yuz berdi.

Tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti:

$$Udk = \frac{D}{S} \times 1000 \quad (5)$$

Bugungi kunda tug'ilish ko'rsatkichlari mamlakat kelgusi turmush tarzini belgilovchi eng muhim omildir. Chunki, kelgusidagi mamlakatning ist'emol ko'rsatkichlari ham aynan shu omil bilan bog'liq.

O'limning umumiy koeffitsiyenti:

$$U_{O'k} = \frac{O'}{\bar{S}} \times 1000 \quad (6)$$

Tabiiy o'sishning umumiy koeffitsiyenti:

$$U_{tab} = \frac{d - O'}{\bar{S}} \times 1000 = Dk - O'k \quad (7)$$

**Mexanik harakat ko'rsatkichi, migratsiya** - Migratsiya – aholining mamlakat hududidagi yoki davlatlararo mexanik harakatidir.

1-jadval

Migratsion oqimlar

	2004			2005		
	Keluvchilar soni	Ketuvchilar soni	Migratsion o'sish (+), kamayish(-)	Keluvchilar soni	Ketuvchilar soni	Migratsion o'sish (+), kamayish(-)
Migratsiya	147398	243490	-96092	144778	246386	-101608
Ichki hududiy	140669	148009	-7340	137599	141395	-3796
Xalqaro migratsiya	6729	95481	-78752	7179	104991	-97812
MDH va Baltika davlatlari ishtirokida	6597	92690	-86093	6989	102990	-96001
MDH va Baltika davlatlaridan tashqari	132	2791	-2659	190	2001	-1811

$$\Delta_{mex} = \Delta_{kel} - \Delta_{ket} \quad (8)$$

$\Delta_{kel}$  – ko'chib keluvchilar,  $\Delta_{ket}$  – ko'chib ketuvchilar.

Aholi sonining umumiy o'sishi:

$$\Delta_{ym} = \Delta_{tab} - \Delta_{mex} \quad (9)$$

Unda  $\Delta_{tab}$  – tabiiy o'sish;  $\Delta_{mex}$  – migratsion (mexanik) o'sish.

Mexanik o'sish koeffitsiyenti:

$$K_{mex} = \frac{\Delta_{mex}}{\bar{S}} \times 1000 \quad (10)$$

Bunda  $\bar{S}$  - aholi sonining yillik o'rtacha ko'rsatkichi.

Umumiy o'sish koeffitsiyenti:

$$K_{ym} = K_{tab} - K_{mex} \quad (11)$$

Umumiy koeffitsiyentning afzalliklari quyidagilardan iborat:

5. Aholi sonidagi farqlarni (noaniqliklarni) bartaraf etadi (u doimo ming kishiga nisbatan hisoblanadi) va hududdagi aholi sonini turli demografik jarayonlar darajasi bilan qiyoslash imkonini beradi.
6. Murakkab demografik xodisa va holatlarni bitta raqam yordamida ifodalaydi va voqelikni umumlashtiruvchi xususiyatga ega.
7. Rasmiy statistik nashrlarda umumiy koeffitsiyentlarni hisoblash uchun ilgarigi ma'lumotlardan ham foydalaniladi.
8. Ommaviy axborot vositalarining foydalanishi va ommaning tushunishi uchun qulay.

### **O'zbekiston aholisi tabiiy harakatining umumiy koeffitsiyentlarini hisoblash -**

2003 yil ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisi yil boshida  $S_0=25523,0$  ming kishi va yil oxirida  $S_1=25802,5$  ming kishini, tug'ilganlar soni  $D=546,2$  ming kishi, o'lganlar soni  $O'=139,0$  ming kishini tashkil etgan. Shu ma'lumotlarga ko'ra, avvalo, aholining yillik o'rtacha sonini, so'ngra ba'zi koeffitsiyentlarni hisoblab topamiz:

$$\bar{S} = \frac{25523,0 + 25802,5}{2} = 25662,75 \text{ ming kishi}$$

Tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti:

$$Udk = \frac{D}{\bar{S}} \times 1000 = \frac{546,2}{25662,75} \times 1000 = 21,2\% \quad (12)$$

O'limning umumiy koeffitsiyenti:

$$Uo'k = \frac{O'}{\bar{S}} \times 1000 = \frac{139,0}{25662,75} \times 1000 = 5,4\% \quad (13)$$

Tabiiy o'sishning umumiy koeffitsiyenti:

$$Utab\Delta k = \frac{D - O'}{\bar{S}} \times 1000 = \frac{407,2}{25662,75} \times 1000 = 15,8\% \quad (14)$$

2003 yildagi umumiy o'sish:

$$\Delta ym = S^{t+1} - S^t = 25802,5 - 25523,0 = 279,5 \text{ ming kishini}, \quad (4)$$

Tabiiy o'sish:

$$\Delta tab = D - O' = 546,2 - 139,0 = 407,2 \text{ ming kishini}, \quad (5)$$

Migratsion o'sish:

$$\Delta mex = \Delta ym - \Delta tab = 279,5 - 407,2 = -127,7 \text{ ming kishini} \quad (6)$$

tashkil etgan. Shunga muvofiq ravishda aholining umumiy o'sish va migratsion o'sish koeffitsiyentlari quyidagicha bo'lgan.

$$\Delta ymk = \frac{279,5}{25662,75} \times 1000 = 10,8\% \quad (7)$$

$$\Delta mexk = \frac{-127,7}{25662,75} \times 1000 = -4,9\% \quad (8)$$

Natija: 2003 yilda O'zbekiston aholisining tabiiy o'sishi 407,2 ming kishini, migratsion (mexanik) o'sishi -127,7 ming kishini, umumiy o'sish 279,5 ming kishini va tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti 21,2 % ni, o'limning umumiy koeffitsiyenti 5,4 % ni, tabiiy o'sishning umumiy koeffitsiyenti 15,8 % ni va shunga muvofiq ravishda umumiy o'sish koeffitsiyenti -10,8 % ni, migratsion (mexanik) o'sish koeffitsiyenti -4,9 % ni tashkil etgan.

**Xususiy demografik ko'rsatkichlar** - Tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti (ayollarning tug'uvchanlik koeffitsiyenti) 15 yoshdan - 50 yoshgacha bo'lgan ayollarning o'rtacha va yillik tug'ilgan bolalar soniga nisbatan aniqlanadi:

$$F = \frac{D}{\bar{A}_{15-49}} \times 1000 \quad (20)$$

Bunda  $F$ -tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti,  $D$ -tirik tug'ilgan bolalar soni,  $\bar{A}_{15-49}$  - 15 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan ayollar soni.

Masalan, tug'ish yoshidagi ayollar soni 2003 yilda 7740 ming kishi bo'lsa va yuqorida qayd etilganidek, 546,2 ming kishini tashkil etsa, unda:

$$F = \frac{D}{\bar{A}_{15-49}} \times 1000 = \frac{546,2}{7740} \times 1000 = 75,5\%$$

Shuningdek, maxsus va umumiy koeffitsiyent o'rtaidagi o'zaro aloqadorlik mavjud bo'lib, u quyidagi formulaga ko'ra aniqlanadi:

$$Dk = F \times A$$

Aholining migratsion harakati bilan bog'liq jarayonlarni iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil etishga dastlab ingliz olimi Ye.Reyvensteyn e'tibor qaratgan. Uning hisoblariga ko'ra, ma'lum hududdagi ko'chib keluvchilar soni ko'chgan va joylashgan hududlar oralig'idagi masofaga teskari proporsional va ko'chib ketgan hududdagi jami aholi soniga to'g'ri proporsional [4].

Shu davrda avstriyalik olim Lill shahar aholisi harakatini kuzatish mobaynida o'zining «Sayohat qonuni»ni yaratishga harakat qilgan. U tadqiqotlarida temir yo'l yo'lovchilari haqidagi statistika natijalariga tayanadi. Shunga ko'ra, u Reyvensteyndan farqli ravishda nafaqat migratsiya muammolarini balki, transport muammolarini ham tadqiq etgan [5].

Mashhur amerikalik olim Sipf ko'chish va joylashish hududlari oralig'idagi migratsiyani natijali baholash maqsadida quyidagi formulani taklif etgan:

$$M_{n,z} = \frac{B_n \cdot B_z}{E_{n,z}}$$

Unda,  $M_{n,z}$  - ko‘chish  $n$  hududdan joylashish  $z$  hududiga migrantsion oqimning intensivligi,

$B_n$  - ko‘chish hududi aholisi soni,

$B_z$  - joylashish hududi aholisi soni,

$E_{n,z}$  -  $n$  va  $z$  hududlar oralig‘idagi masofa.

Mazkur formulaga ko‘ra, migrantsiya oqimi faolligi ko‘chish va joylashish hududlari oralig‘ida ortgan sayin, ular orasidagi masofa qisqarib boradi.

Bu boradagi aniqroq formula quyidagicha bo‘lishi mumkin:

$$M_{n,z} = K \frac{B_n \cdot B_z^a}{E_{n,z}^b}$$

Unda,  $K$  – doimiy birlik. Unga ko‘ra, bir tomondan  $M$ ,  $B_n$ ,  $B_z$  va ikkinchi tomondan  $Y$  birliklari orasida ko‘rsatkichli funksiya shaklidagi aloqa mavjud[6].

Ko‘p korrelyatsiyali yuqori koeffitsiyentlarni aniqlash uchun barcha omillar hisobga olinadi. Migrantsion jarayonlarni imitatsion modellashtirish va migrantsiyaning ekstrapolyatsion modeliga I.S.Matlin o‘zining «Aholi joylashuvini modellashtirish» asarida e’tibor qaratgan[7].

Masalan, 2003 yilda O’zbekistonda aholi soni 25523 ming kishini, Rossiya aholisi 147000 ming kishini va Qozog‘iston aholisi 15400 ming kishini; shunga muvofiq ravishda O’zbekistonning migrantsiya saldosi -4916 kishini, Rossiyaning O’zbekiston bilan migrantsiya saldosi 46653 kishini va Qozog‘istonning O’zbekiston bilan esa 36712 kishini tashkil etgan bo‘lsin.

Unda, 2003 yilda O’zbekistonning migrantsiya darajasi

$$Mo` = \frac{-4916}{25523000} \times 1000 = -0,19\% \quad \text{bo‘lsa, Rossiya va Qozog‘istonning}$$

O’zbekiston bilan migrantsiya aloqalari darajasi:

$$Mo` = \frac{46653}{147000000} \times 1000 = 0,32\% \quad \text{va}$$

$$Mo` = \frac{36712}{15400000} \times 1000 = 2,38\% \quad \text{bo‘lgan.}$$

Migrantsiya hajmiga nisbatan uning saldosi aholi migrantsion harakatining intensivligini belgilaydi. Bu holatni immigratsiya va emigratsiya koeffitsiyentlarida kuzatamiz.

$$K_{O,R} = \frac{50223}{25523000} \times 1000 = 2,0\%$$

$$K_{O,Q} = \frac{38529}{25523000} \times 1000 = 1,5\%$$

$$K_{R,O} = \frac{3570}{147000000} \times 1000 = 0,02\%$$

$$K_{Q,O} = \frac{1817}{15400000} \times 1000 = 0,12\%$$

**Demografik prognozlash -** Demografik prognoz har qanday ijtimoiy prognozlash va rejorashtirish asosida yotadi. Prognoz qilinayotgan davrdagi demografik jarayonlarning barchasi aholining umumiy soni bilan bog'liq bo'ladi. Prognozlashda aholi sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omilning barqaror yoki beqarorligi muhim o'rinn tutadi. Aholi sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar barqaror bo'lgan sharoitda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$S_t = S_0 \times \Sigma^{kt} \quad (21)$$

Bunda  $S_t$  - prognoz qilinadigan davr oxiridagi aholining umumiy soni;  $S_0$  - prognoz qilinadigan davr boshidagi aholining umumiy soni;  $k$  - prognoz qilinayotgan davrda aholi o'sishidagi taxmin qilinayotgan koeffitsiyent;  $t$  - prognoz qilinayotgan davr oralig'idagi yillar.

2015 yilda O'zbekiston aholisi soni qancha bo'lishini hisoblab topamiz. 2003 yil boshida aholi soni 25523,0 ming kishini tashkil qildi. Prognoz qilinayotgan davr aholi o'sishidagi taxmin qilinayotgan koeffitsiyent sifatida odatda aholining umumiy koeffitsiyenti olinishi lozim. Biroq, 2003 yildagi migratsiya koeffitsiyenti yuqoriligi va ma'lumki, bu doimiy ko'rsatkich ekanligini e'tiborga olgan holda aholining tabiiy o'sish koeffitsiyentidan foydalanamiz. 2003 yildagi aholining tabiiy o'sish koeffitsiyenti esa 15,8% ga teng bo'ldi. 1998-2003 yillar davomidagi migratsion o'sishning o'rtacha koeffitsiyenti -3,0% ga teng, ya'ni

$k = \frac{\Delta}{\Delta t} = 12.8\%$  - deb qabul qilamiz va (22) formuladan foydalanamiz.

$$S_t = \frac{S_0}{1000} \times \Sigma^{kt} + S_0 \quad (22)$$

Unda, natija quyidagicha bo'ladi:

$$S_{2015} = \frac{25523,0}{1000} \times \Sigma^{12,8 \times 12} + 25523,0 = 29443,3 \text{ ming kishi.}$$

O'tgan asrning 80 yillarida rus olimi D.Veresov 2020 yilda O'zbekiston aholisi 40362 ming kishiga yetishini prognoz qilgan. U davrda aholining yillik o'rtacha o'sishi 23,8% ga teng bo'lgan. Biroq, umumiy o'sish koeffitsiyentiga turli omillar (ma'lum davr oralig'ida tug'ilishning kamligi, migratsion o'sish) ta'sir etib turadi. Shu bois, prognoz ko'rsatkichlari

nisbiy va ko‘p variantli bo‘ladi.

## **2-mavzu: “O’zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlari.**

### **O’zbekistonda aholining demografik rivojlanishi**

Bugungi kunda O’zbekistonda o‘ziga xos demografik vaziyat vujudga keldi va u aholi o‘sish sur’atining pasayishi, tug‘ilishning kamayishi, aholining yosh tarkibida keksa yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog‘ining kamayishi, shu bilan bir vaqtida o‘rta yoshdagi aholi sonining ko‘payishida namoyon bo‘lmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov BMT Sammiti Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqida quyidagilarni ta’kidladi: “...qariyb 20 yil mobaynida odamlarning o‘rtacha umr ko‘rishi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko‘rishi esa 75 yoshgacha oshdi”<sup>10</sup>.

2011 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, O’zbekistonda aholi soni 28453,7 ming kishini tashkil qilgan. Aholining umumiy soniga ko‘ra O’zbekiston jahoning 230 mamlakati orasida 43, Osiyoda esa 18-o‘rinda turadi. Markaziy Osiyo respublikalari jami aholisining 45,0 % O’zbekiston hududida istiqomat qiladi.

Mustaqillik yillarida (1991-2010 yillar) O’zbekiston aholisining soni 7,4 mln. kishiga, ya’ni yiliga o‘rtacha 389,1 ming kishidan ko‘paydi. O’tgan qariyb 20 yil mobaynida respublikada aholi soni – 1,35, shahar aholisi – 1,73, qishloq aholisi esa 1,1 martaga ko‘paydi. Shu bilan birga respublika va uning shahar hamda qishloq joylari miqyosida aholi sonining ko‘payish sur’ati turlicha bo‘ldi (12.1-jadval).

12.1-jadval ma’lumotlarining tahlili 2006-2010 yillar davomida jami aholi sonining 2142,2 ming kishiga yoki 8,1 % ga ko‘payganligini ko‘rsatadi. Biroq respublikaning shahar va qishloq joylarida aholi sonining o‘sish sur’atlarini bir me’yorda kechmagan. Jumladan, 2010 yilda 2006 yilga nisbatan shahar aholisi soni 53,9 % ga ko‘paygan bo‘lsa, qishloq aholisi esa 17,8 % ga kamaygan. Shu bilan birga, bu davrda jami aholi tarkibida shahar aholisining ulushi 36,0 % dan 51,4 % ga ortgan, qishloq aholisiniki esa 64,0 % dan 48,6 % gacha kamaygan. Ya’ni mamlakatda aholining urbanizatsiya jarayoni kuchaymoqda. Qishloq aholisi sonining kamayganligi esa O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma’muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009 yil 13 martdagি 68-sonli qaroriga ko‘ra respublikadagi 966 ta qishloq punktiga shaharcha maqomi berilganligi bilan izohlanadi.

#### **12.1-jadval**


#### **O’zbekistonda aholi sonining o‘zgarish dinamikasi (ming kishi hisobida)<sup>11</sup>**

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримов БМТ Саммити Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишиланган ялпи мажлисидаги нутки // Халқ сўзи, 2010 йил 22 сентябрь.

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари // <http://www.stat.uz>.

Ko‘rsatkichlar	Yillar					2010 yilda 2006 yilga nisbatan o‘zgarishi	
	2006	2007	2008	2009	2010		
Jami aholi soni	26312, 5	27072, 2	27533, 3	28001, 4	28453, 7	2141,2	108,1
Shundan:							
Shahar aholisi	9495,1	9584,6	9758,3	14327, 8	14618, 4	5123,3	153,9
Qishloq aholisi	16817, 4	17487, 6	17775, 0	13673, 6	13835, 3	- 2982,1	82,2

Respublikada aholi sonidagi o‘zgarishlar uning bevosa yosh tarkibi bilan bog‘liq. O‘zbekiston aholisining hozirgi yosh tarkibi XX asrning 90-yillarida boshlangan tug‘ilish darajasining qisqarishiga qaramay yosh hisoblanadi. Ya’ni, aholi tarkibida 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar ulushi 62,1% ni, 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar ulushi – 33,3% ni, 16-29 yoshdagilar ulushi – 28,8% ni tashkil etadi<sup>12</sup>. Shu bilan birga, statistik ma’lumotlar tahlili so‘nggi yillarda 0-15 yoshdagi aholi mutlaq sonining kamayayotganligini ko‘rsatmoqda (12.3-rasm.)



### 12.3-rasm. O‘zbekistonda aholi yosh tarkibining o‘zgarishi

2006-2010 yillar davomida respublikada aholi tarkibida mehnatga qobiliyatli yoshgacha bo‘lgan aholi soni 235,4 ming kishiga yoki 2,6 % ga kamaygan. Bunday tendensiyani bu guruhning aholi tarkibidagi ulushida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, 2006 yilda mehnatga qobiliyatli yoshgacha bo‘lgan aholi ulushi 35,0 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2010 yilga kelib bu ko‘rsatkich 31,5 % ga teng bo‘lgan. Mazkur holat mustaqillik

<sup>12</sup> Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т.: Ижтимоий фикр, 2009. – С.154-155.

yillari respublikada tug‘ilish ko‘rsatkichining kamayganligi bilan izohlanadi. Jumladan, 1991 yili respublikada tug‘ilishning umumiyo koeffitsiyenti 34,5 % dan<sup>13</sup> 2010 yili 23,2 % gacha<sup>14</sup> kamaygan.

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida yillar davomida shakllangan qadriyatlar, urfatlarda o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y berayotganligi, xalqning munosib turmush sharoitini yaratishga intilish, omma o‘rtasida homiladorlikdan saqlavchi tibbiy vositalarning keng tarqalishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligining ortishi, har bir oila o‘z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda farzandlar tug‘ilishini nazorat etishi kabi omillar tug‘ilish ko‘rsatkichining pasayishiga olib keldi.

2006-2010 yillarda mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi soni – 13,6 % ga, mehnatga qobiliyatli yoshdan yuqori bo‘lgan aholi soni esa 16,0 % ga ortgan. Tahlil natijalari mehnatga qobiliyatli yoshdan katta bo‘lgan aholi sonining mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi soniga nisbatan yuqori sur’atda o‘sganligini ko‘rsatadi. Bu holat ikkinchi jahon urushidan keyingi “demografik to‘ldirish” davrida tug‘ilgan aholining bugungi kunda keksalar guruhi qatoriga qo‘shilishi bilan izohlanadi.

Aholining keksayishi jarayoni O’zbekiston uchun ham xos bo‘lmoqda. Respublikada kechayotgan demografik jarayonlarning zamonaviy tendensiyalarining tahlili aholining yosh tarkibida bolalar salmog‘ining kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagi va qariyalar salmog‘ining oshib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida istiqbolda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo‘nalishlarida ham o‘ziga xos o‘zgarishlarning amalga oshirilishini, aholi keksayishining hududiy va gender jihatlari e’tiborga olingan keksalarni ijtimoiy himoya qilish loyihalari va dasturlarini ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi demografik rivojlanish istiqbolini belgilashga bog‘liq. Shuni hisobga olgan holda O’zbekistonning 2025 yilgacha bo‘lgan davrdagi uzoq muddatli demografik prognozi “yoshni siljitish” usulidan foydalanib, amalga oshirildi.

Istiqbolda demografik jarayonlar va bu jarayonlarning borishi bilan bog‘liq yuzaga keladigan tendensiyalar, birinchi navbatda, reproduktiv yoshdagi ayollar sonining istiqbol ko‘rsatkichlariga bog‘liq (12.2-jadval).

## 12.2-jadval

### O’zbekistonda reproduktiv yoshdagi ayollar sonining istiqbol ko‘rsatkichlari (ming kishi hisobida)

Yillar	Reproduktiv yoshdagi ayollarning yosh guruhlari bo‘yicha soni							
	15-19	20-24	25-29	30-34	35-39	40-44	45-49	15-49
2011	157,3	156,0	137,2	110,9	98,0	86,2	82,8	828,4
2012	153,4	157,6	143,5	114,6	99,6	88,8	82,6	840,1
2013	148,5	158,3	148,7	119,1	101,4	91,0	82,7	849,7
2014	143,3	158,7	151,9	123,9	104,2	93,2	82,9	858,1
2015	137,6	158,7	153,6	129,7	107,2	95,3	83,4	865,5
2016	131,5	156,8	155,3	136,4	110,1	97,1	85,2	872,4

<sup>13</sup> Демографический ежегодник Узбекистана 2003. – Ташкент, 2004, – С.127

<sup>14</sup> Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане 2010. – Ташкент, 2011. – С.46

2017	127,0	153,0	156,9	142,6	113,8	98,7	87,7	879,7
2018	124,3	148,1	157,6	147,8	118,2	100,5	90,0	886,5
2019	123,1	142,9	158,0	151,0	123,0	103,3	92,1	893,4
2020	129,2	137,2	158,0	152,7	128,8	106,3	94,2	906,4
2021	137,0	131,1	156,1	154,4	135,4	109,1	96,0	919,1
2022	145,6	126,7	152,3	156,1	141,6	112,8	97,6	932,7
2023	154,8	123,9	147,4	156,7	146,8	117,2	99,3	946,1
2024	164,3	122,8	142,3	157,0	150,0	121,9	102,1	960,4
2025	167,6	128,8	136,6	157,1	151,6	127,7	105,1	974,5
2025 yilda 2011 yilga nisbatan, %	106,5	82,5	99,5	141,6	154,7	148,1	126,9	117,6

12.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2011 yildan boshlab respublikada 15-19 yosh guruhidagi ayollarning soni keskin kamaya boshlaydi. So‘ngra bu tendensiya 2016 yildan aholining 20-24 yosh guruhiga, 2021 yildan esa 25-29 yosh guruhiga o‘tadi. Bu tendensiya respublikada 1996 yildan boshlangan tug‘ilish darajasi keskin kamaygan davrda tug‘ilgan aholining 15-19 yosh guruhiga kirishi bilan izohlanadi. Tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan 1980-1995 yillarda tug‘ilgan aholi kogortasining 30-34, 35-39, 40-44, 45-49 yosh guruhlariga o‘tishi hisobiga bu yosh guruhlaridagi ayollarning soni muntazam ortib boradi. Xususan, 2025 yilda 2011 yilga nisbatan 30-34 yosh guruhidagi ayollar sonining 41,6 %ga, 35-39 yoshdagilarning – 54,7, 40-44 yoshdagilarning – 48,1, 45-49 yoshdagilarning esa 26,7 %ga o‘sishi kutiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, 1987-1991 yillarda tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan davrda tug‘ilgan aholining 2002 yilda 15-19 yosh guruhiga o‘tishi natijasida respublikada tug‘ilish darajasining birmuncha ortganligi hisobiga shu yillarda tug‘ilgan aholining 2020 yilda 15-19 yosh guruhiga, 2025 yilda esa 20-24 yosh guruhiga o‘tishi bu yosh guruhidagi ayollar sonining ortishiga olib keladi.

Aholining keksayishi tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari dinamikasida ro‘y beradigan takrorlanmas o‘zgarishlar oqibatidir (12.3-jadval).

### 12.3-jadval

#### O‘zbekistonda tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyentlarining istiqbol ko‘rsatkichlari (% hisobida)

Yillar	Demografik ko‘rsatkichlar ( 1000 kishi hisobida)					
	Jami aholi		Shahar aholisi		Qishloq aholisi	
	tug‘ilish	o‘lim	tug‘ilish	o‘lim	tug‘ilish	o‘lim
2011	21,0	5,5	17,6	6,7	23,2	4,8
2015	21,9	5,7	18,8	7,0	24,8	4,9
2020	20,5	6,4	17,9	7,4	23,2	5,2
2025	19,2	7,2	17,3	8,5	21,9	6,0
2025 yilda 2011 yilga nisbatan o‘zgarishi (+,-)	-1,8	1,7	-0,3	1,8	-1,3	1,2

Prognoz qilinayotgan davrda jami aholida, shu jumladan shahar va qishloq aholisida ham tug‘ilishning umumiyo koefitsiyentining 2011-2025 yillar davomida nisbatan kamayishi va bu tendensiya barqaror bo‘lmasligi kutiladi. Xususan, 2011-2015 yillar davomida jami aholida tug‘ilishning umumiyo koefitsiyenti 0,9 punktga ko‘payishi va 2015-2025 yillarda 2,7 punktga kamayishi kutiladi. Respublika va uning hududlarida 2015 yilgacha bo‘lgan davrda tug‘ilish ko‘rsatkichining ortishi tug‘ish yoshidagi ayollar mutlaq sonining nisbatan barqaror o‘sishi hamda uzoq davr mobaynida tug‘ilish ko‘rsatkichining nisbatan yuqori bo‘lganligi hisobiga ta’milanadi. 2015 yildan keyingi davrda tug‘ilish koefitsiyentining birmuncha kamayishi esa 1991-2000 yillardagi tug‘ilishning past davrida tug‘ilgan aholining asosiy reproduktiv yoshga (20-24, 25-29 yosh) kirishi bilan bog‘liqdir.

Hisob-kitoblarga qaraganda, prognoz qilinayotgan davr oxirigacha O’zbekistonda o‘limning umumiyo koefitsiyentining muntazam ortib borishi kutiladi. Agar 2011-2025 yillarda respublikada o‘limning umumiyo koefitsiyenti 1,7 punktga ko‘paysa, shahar aholisida bu ko‘rsatkich – 1,8, qishloq aholisida esa 1,2 punktga ortadi. Bunday holat mamlakat aholisi yosh tarkibida nisbatning keksa yosh guruhiga tomon siljishi bilan izohlanadi. Ma’lumki, qariyalarda o‘lim ko‘rsatkichi yuqori va bu o‘z navbatida aholi o‘rtasida o‘lim ko‘rsatkichining ko‘payishiga olib keladi.

Asosiy demografik jarayonlarga xos bo‘lgan yuqorida ko‘rilgan tendensiyalar aholi yosh tarkibiga ta’sir etadi. Shularni hisobga olgan holda respublika aholisi yosh tarkibining 2025 yilgacha bo‘lgan istiqboli aniqlandi (12.4-jadval).

#### 12.4-jadval

#### O’zbekistonda aholi yosh tarkibining istiqbol ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Birlik	Yillar			2025 yilda 2015 yilga nisbatan o‘zgarishi	
		2015	2020	2025	+,-	%
Jami aholi soni	ming kishi	30189,6	32346,5	34390,7	401,1	113,9
	foiz	100,0	100,0	100,0	-	-
Mehnatga qobiliyatli yoshgacha bo‘lgan aholi soni (0-15 yosh)	ming kishi	9841,8	9995,0	9835,7	-6,1	99,9
	foiz	32,6	30,9	28,6	-4,0	-
Mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi soni (16-54 yoshdagi ayollar, 16-59 yoshdagi erkaklar)	ming kishi	17842,0	19440,2	21012,7	3170,7	117,7
	foiz	59,1	60,1	61,1	2,0	-
Mehnatga qobiliyatli yoshdan yuqori bo‘lgan aholi soni (55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar)	ming kishi	2505,8	2911,3	3542,3	1036,5	141,3
	foiz	8,3	9,0	10,3	2,0	-

Prognoz qilinayotgan davrda respublikada jami aholi soni 13,9 foizga ko‘payadi va 2025 yilga borib 34390,7 ming kishini tashkil qilishi kutiladi. Bu davr mobaynida aholi tarkibida mehnatga qobiliyatli yoshgacha bo‘lgan aholi sonining 0,1 foizga kamayishi, aksincha mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi sonining 17,7, mehnatga qobiliyatli yoshdan kaata bo‘lgan aholi sonining 41,3 foizga ko‘payishi kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlar tahlili asosida shunday xulosa qilish mumkin, bolalar soni muntazam kamayib, aksincha mehnatga layoqatli yoshdagi va undan katta bo‘lgan aholi soni ortib boradi. Bu o‘z navbatida respublikaning barcha hududlarida aholining “quyidan” qarish jarayonining rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 1991-2010 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining qarish indeksi 6,1 punktga ko‘paygan. Albatta, ko‘rilayotgan davrning turli oraliqlarida hududlar miqyosida aholining qarish indeksining ko‘payish sur’ati turlicha bo‘lgan. Jumladan, 1991-1995 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Buxoro viloyatida aholining qarish indeksi – 0,8, Toshkentda – 0,1, Navoiy va Xorazm viloyatlarida – 0,6, Toshkent shahrida – 2,2 punktga o‘sgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Andijonda – 0,3, Samarqandda – 0,8, Jizzax, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida – 0,2 punktga kamaygan. Demak, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Toshkent, Navoiy, Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrida aholining keksayish jarayoni 1991 yildan boshlangan va bu bu tendensiya 2000-2010 yillarda respublikaning barcha hududlariga ular aholisining yosh tarkibida bolalar mutlaq sonining qisqarishi hisobiga qarish indeksi ko‘rsatkichi ortishi bilan yoyildi.

Hisoblab chiqilgan aholining qarish indeksiga asoslangan holda hududlar aholisining keksayish darajasini jahonda qabul qilingan demografik mezonga ko‘ra uch guruhga ajratildi:

- birinchi guruhga – aholisi nisbatan sust keksayayotgan hududlar (20,0 % dan kam): Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari;
- ikkinchi guruhga – aholisi o‘rtacha darajada keksayayotgan viloyatlar (20,0-30,0%): Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari;
- uchinchi guruhga – aholisining keksayishi yuqori darajada bo‘lgan hududlar (30,0 % dan baland): Toshkent shahri va Toshkent viloyati kiritildi.

Yuqorida qilingan tahlillarga asoslangan holda shuni aytish kerakki, aholisi nisbatan sust keksayayotgan viloyatlarda ham aholining qarish indeksi ko‘tarilib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida yaqin kelajakda respublikamizning barcha hududlarida ham aholining keksayish darajasi rivojlanishini ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, aholining keksayishi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi hamda bu jarayon quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi.

Birinchidan, keksalar ulushining ortishi aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi. Odamning yoshi qancha katta bo‘lsa, mahsuldarligi shunchalik past bo‘ladi.

Ikkinchidan, aholining keksayishi iqtisodiyotda yoshlari ulushi kamayishini anglatadi. Bu esa ish bilan band aholini kasb-malaka va tarmoq tarkibining o‘zgarishi jarayoni va binobarin iqtisodiyotning samaradorligi oshishini sekinlashtiradi.

Uchinchidan, pensiya jamg‘armasi zimmasiga pensiyalar to‘lash xarajatlarining benihoya og‘ir yuki tushadi. Zero, pensionerlar ulushining ko‘payishi bilan bir yo‘la pensiya jamg‘armalariga mablag‘ to‘lab boradigan mehnatga qobiliyatli aholi salmog‘i qisqaradi.

To‘rtinchidan, keksalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun qo‘srimcha mablag‘ sarflash, gerontologik muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va butun sog‘liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi.

Beshinchidan, hali ishslashni istaydigan “yosh qariyalar”ni ish bilan ta’minalash lozim. Bu oson vazifa emas, chunki pensiya yoshiga yetmaganlarga ham ish o‘rinlari yetishmaydi.

Oltinchidan, aholining keksayishi moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining tarkibiga ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni aholi bu guruhining talab-ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovar va xizmatlar assortimentini o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi. Ba’zi texnologik operatsiyalarni ham o‘zgartirish, mashina va uskunalarni xodimlarning yosh xususiyatlariga moslashtirish kerak. Transport vositalari ham keksalarning talablariga monand bo‘lishi lozim.

Aholining keksayishi sharoitida qariyalarning turmush farovonligini oshirish uchun quyidagi choralarini amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- pensiya jamg‘armasining moliyaviy holatini yaxshilash;
- nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan qariyalarni manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasini yanada kuchaytirish;
- Sog‘liqni saqlash vazirligi huzurida geriatrik markaz va respublikaning barcha tuman va shaharlarida shu markazning bo‘limlarini ochish hamda ular tomonidan aholining shu kategoriyasiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat turlarini ko‘paytirish;
- bakalavriat va magistratura yo‘nalishlari klassifikatoriga “Gerontologiya”, “Geriatriya” ixtisosliklari, tibbiyot kollejlari “Patronaj hamshirasi”, “Ijtimoiy xodim” ixtisosliklarini kiritish bo‘yicha davlat ta’lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritish va shu ixtisosliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;
- barcha mahallalarda qariyalar uchun mo‘ljallangan kunduzgi muloqotda bo‘lish va hordiq chiqarish jamoatchilik markazlarini ko‘paytirish;
- yolg‘iz keksalarga o‘z uyida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish.

**3-mavzu: Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minalash dasturlarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish omillari. (2 soat)**

## 2. Reja:

1. ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minalash dasturlarini ishlab chiqish va barqaror rivojlanish
2. Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish.

3. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.

### **1.Aholi ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.**

**Aholini ish bilan bandligi** inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, u mehnat masalalari bilan bog‘liq muammolarni hamda mehnatga bo‘lgan talab va takliflarni qondirish yo‘llarini ochib beradi.

**Ish bilan bandlar** – a)pul bilan to‘lanadigan yoki natural xolidagi haq evaziga yollanib, shuningdek, o‘z faoliyati evaziga qancha muddat haq yoki daromad olishidan qat’iy nazar, foya yoki oilaviy daromad olish uchun yollanmasdan haftasiga kamida 2 soat mobaynida ish bajargan; b)kasalligi yoki jarohatlanganligi tufayli, bemorlarga qarab turish uchun; yillik mehnat ta’tili yoki dam olish kunlarida; o‘z ish joyidan tashqarida ta’lim olganligi uchun; ma’muriyat tashabbusi bilan ta’minoti saqlab qolningan yoki saqlab qolinmagan holda mehnat ta’tilida bo‘lgan va boshqa shunga o‘hshash sabablar bilan vaqtincha ishda bo‘lмаган; v)oilaviy korxonada haq olmasdan ish bajargan shaxslar hisoblanadi.

### **2.Ish bilan bandlikning turlari.**

Ijtimoiy mehnatda qatnashish usuli bo‘yicha aholining ish bilan bandligi ish bilan yollanish bo‘yicha bandlik va o‘z-o‘zini yollash tufayli mustaqil ravishda ish bilan band etish bilan xarakterlanadi. Ish bilan yollanish bo‘yicha bandlik ishlab chiqarish vositalari egalari bilan ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘лмаган va bo‘lg‘usi mehnatini (o‘z ishchi kuchini) ish haqi shaklidagi muayyan qiymatga almashinish tarzida sotadigan xodimlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlardir.

Yollanib ishlaydiganlar – ish bilan bandlarning eng ko‘p sonli guruhi bo‘lib, mulkchilikning har qanday shaklidagi korxona rahbari yoki alohida shaxs bilan pul yoki natura holida haq oladigan mehnat faoliyati shartlari haqida yozma mehnat shartnomasi, kontrakt yoki og‘zaki bitim tuzgan shaxslarni o‘z ichiga oladi.

O‘z-o‘zini yollash tufayli mustaqil ish bilan bandlik (self-employment) aholining ish bilan bandligini ta’minlashda nisbatan yangi shakldir. Bu shunday ijtimoiy, huquqiy munosabatlarki, ularga kishilar ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish tufayli kirishadilar.

Iqtisodiyot va insonning ehtiyojlariga to‘g‘ri kelishi darajasiga qarab ish bilan bandlik **oqilona, samarali mahsuldor va eng maqbul** ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Ish bilan oqilona bandlik agregatsiyalangan ijtimoiy-iqtisodiy tushunchadir.

Ish bilan samarali bandlik ijtimoiy boshqaruvning jamiyat rivojining mazkur bosqichida turmush tarzining mezonlari taqozo etadigan xodimlarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tiklab borishga qodirligini nazarda tutadi.

Ish bilan mahsuldor bandlik shunday ish bilan bandlikki, u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish, mehnat unumdarligini oshirish maqsadlariga javob beradi.

Ish bilan eng maqbul bandlik insonning doimiy ish bilan band bo‘lishga davlat tomonidan kafolat bo‘лмаган taqdirda jamiyatda muayyan mavqe egallashini ta’minlaydigan shaxsiy tarkibda haq to‘lash shart-sharoitlari asosida moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish maqsadida mehnat jarayonida qatnashishidir.

### **3.Aholining ish bilan bandligini tartibga solish.**

Davlatning to‘lov talabini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan xilma-xil usullar vositasida iqtisodiyotga aralashuvi orqali iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va buning natijasida ish bilan bandlikni kengaytirishga erishish mumkin.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim mezoni ish bilan bandlikka bo‘lgan munosabatdir. Ish bilan bandlik kompleks ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi deb qaraladi. Ish bilan bandlik muammolarining ijtimoiyligi uning avval, boshdan inson, uning manfaatlari va mehnat sohasidagi ehtiyojlariga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Aholini ish bilan ta’minlashga ta’sir ko‘rsatish usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bevosita (ma’muriy) usullar: qonun yo‘li bilan tartibga solish; mehnat qonunchiligi, jamoa shartnomalari.
- bilvosita (iqtisodiy) usullar: moliyaviy, monetar, fiskal (xazina) siyosati.

### **4.O’zbekiston Respublikasida aholini ish bilan bandlik siyosati.**

O’zbekistonda aholini ish bilan ta’minlash sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mehnat qilish va ishni erkin tanlash huquqini amalga oshirishda barcha fuqarolarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, mansab mavqeい, dinga munosabati, e’tiqodi va jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik jihatlari hamda ular mehnatining natijalariga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlardan katiy nazar teng imkoniyatlarni ta’minlash;
- kishilarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularda mehnat qilish va hayot kechirishda munosib sharoitlarni ta’minlaydigan unumli va ijodiy mehnat qobiliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- mehnat qilishning ixtiyoriyligi;
- sh bilan ta’minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta’minlash;
- ijtimoiy himoyaga o‘ta muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolar uchun mavjud ish joylarini saqlab qolayottan va yangi ish joylarini yaratayottan ish beruvchilarni rag‘batlantirish;
- ish bilan ta’minlash sohasidagi tadbirlarni ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning boshqa yo‘nalishlari bilan muvofiqlashtirish;
- aholini ish bilan ta’minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishda davlat organlari, kasaba uyushma-lari, xodimlarning vakillik organlari va ish beruvchilarning o‘zaro hamkorligi;
- aholini ish bilan ta’minlash muammolarini hal qilishda davlatlararo hamkorlik<sup>15</sup>.

### **5. Aholini ish bilan bandligini oshirish yo‘nalishlari.**

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Ахолини иш билан таъминлаш тўғрисида”ти Қонуни 5-моддаси, Тошкент, 2002.

Ish bilan bandlik siyosati umumdavlat (makrodaraja), mintaqaviy va mahalliy darajalarga ega. Ish bilan bandlik siyosatining barcha darajalari yagona ish bilan bandlik konsepsiysi bilan birlashgan, bu konsepsiya iqtisodiy rivojlanishning qabul qilingan tipini aks ettiradi.

Makrodarajadagi ish bilan bandlik siyosati ijtimoiy bozor iqtisodiyotidagi ish bilan bandlikning asosiy xususiyatlarini shakllantirish: fuqarolarning mehnat qilish huquqini amalgaga oshirish va yuqori turmush darajasiga erishishning zarur sharti bo‘lgan ish bilan to‘liq bandlikni ta‘minlashga qaratilgan. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti boshqaruv usullarida iqtisodiyot samaradorligini oshirish, xo‘jalik yuritish sohasi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan ish o‘rinlarini siqib chiqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining iste’mol talabini qondirish uchun ishchi kuchini qayta guruhlarga bo‘lishga qaratilgan. Bunday sharoitda ish bilan to‘liq bandlikka ko‘maklashish strategik maqsad bo‘lib qoladi.

Eng yaqin taktik maqsad ish o‘rinlariga bo‘lgan talab va taklifning balanslanishidir. Bunga faqat ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklif balansli bo‘lishiga erishish shartlariga kompleks yondashuv bilan erishish mumkin. Bu muammoni hal qilishda, ko‘pincha ommaviy ishsizlikning oldini olishning zarur sharti bo‘lgan ish o‘rnlari tizimini rivojlantirishga e’tibor beriladi.

Aholining qayta barpo bo‘lishida o‘g‘il bolalarning ko‘proq tug‘ilishi muhim o‘rin tutadi. Chunki ayollarga nisbatan erkaklar o‘limi deyarli dunyoning barcha mintaqalarida saqlanib kelmoqda. Aholi qayta barpo bo‘lishining barqarorlashuvi muntazam yangicha ko‘rinish kasb etuvchi ishlab chiqarishni, ilm-fanni yetarli darajada kadrlar bilan yechish uchun xizmat qiladi. Shu o‘rinda turmush quruvchilarning yoshi ham muhim o‘rin tutadi. Juftliklarning muvofiqligini nemis olimi Zelgeym quyidagi nisbatda belgilaydi:

Agar ayol yoshi	bo‘lganda erkak yoshi
21 yosh	27 yosh
25 yosh	32 yosh
28 yosh	35 yosh
31 yosh	39 yosh
35 yosh	45 yosh
38 yosh	50 yosh

1979 yilda demograf olim A.G.Vishnevskiy shunday degan: «Aholining qayta barpo bo‘lishi – go‘yo o‘zgarmas doimiy jarayon sifatida ilm-fan diqqatini uzoq vaqt o‘ziga tortmadi. Vaqt o‘tib, unda shunday o‘zgarishlar sodir bo‘ldiki, natijada katta hajmdagi muammolar paydo bo‘la boshladi va bu muammolarning yechimini topishga butun dunyo fani tayyor emasligi ma’lum bo‘lib qoldi». 1974 yilga kelib yirik demograf olim B.S.Urlanis «Problemy dinamiki naseleniya SSSR» nomli asarida aholining kelgusidagi o‘sish tempi variantlarini keltirish barobarida ishlab chiqarish va iste’mol masshtabini belgilash bevosita aholisining kelgusida qancha bo‘lishi bilan bog‘liq ekanligini asoslashga harakat qildi.

Professor B.S.Urlanis - rejallashtirilgan iqtisodiyotda aholi sonining o‘sishini prognozlash o‘ziga xos rol o‘ynaganini e’tirof etgani holda demografik jarayonlarning harakatini kuzatish asnosida kelgusida ishlab chiqarishdagi qilinishi lozim bo‘lgan birinchi darajadagi ishlarni belgilab berishini ta‘kidlaydi.

Aholining qayta barpo bo‘lishi to‘g‘risida gap ketganda, professor B.S.Urlanis hisobi bo‘yicha ko‘payish samarali natijalarini beradi. Unga ko‘ra, 200 ota-onal uchun bolalar soni 265 ta bo‘lishi aholining qayta barpo bo‘lishining samarali kechishini ta‘minlaydi. Shundagina balag‘ot yoshidagi erkak va ayollar o‘rtasidagi mutonosiblikni ta‘minlaydi, ya’ni 1,00. birlikni hosil qiladi. Aholining qayta barpo bo‘lishi turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Masalan, 1926-1927 yillarda 1,68; 1958-1959 yillarda 1,26; 1968-1969 yillarda 1,11. Agar, u 1,00 birlikdan yuqori bo‘lsa, aholining qayta barpo bo‘lishida musbat o‘zgarish yuzaga keladi. Bu o‘z o‘rnida, aholining yashash shart-sharoiti (shahar, qishloq) bilan ham bog‘liq. Keyingi 30 yil davomida, hozirgi Markaziy Osiyoda aholining qayta barpo bo‘lishi o‘rtacha 2,5 koeffitsentni tashkil etdi.

1,00 - depopulyatsiyaning boshlanish darajasi bo‘lib, ikkinchi jahon urushiga qadar dastlab Fransiyada kuzatildi. 1930 yillarda tug‘ilish ko‘rsatkichlari o‘lim ko‘rsatkichlaridan pasayib ketdi. Aholining qayta barpo bo‘lishi 0,87 ga tushib qoldi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda tug‘ilishning rag‘batlantirilishi aholining takror barpo bo‘lishi koeffitsiyentida 1,31, ya’ni 1,5 marta o‘sishiga olib keldi. Fransiya aholisi 1945 yilda 40 mln. bo‘lgan bo‘lsa 1965 yilga kelib (20 yilda), 50 mln. kishiga yetdi.

## 2 §. Aholining tabiiy xarakatining umumiy, tarixiy va regional jihatlari

1960 yillarda mehnat resurslarining xalqaro aralashuvi ishlab chiqarishni yuksaltirishdagi omillardan biri sifatida maydonga chiqdi va u iqtisodiy o‘sish ko‘rsatikchlariga ta’sir etishi hamda uning sababi sifatida davlatlarning mehnatga haq to‘lash darajasidagi tafovutlar ekanligi ilmiy asoslandi.

Neoklassik yondoshuv tarafдорлари fikriga ko‘ra, «har bir kishi o‘z mehnati orqali yaratgan mahsulotni oladi va iste’mol qiladi», ular fikricha, emigratsiya qabul qiluvchi davlatlarning iqtisodiy rivojlanishida ijobjiy o‘zgarishlarni sodir etadi. Emigratsiya qilinadigan davlat esa o‘z holicha qoladi yoki har qanday holatda uning iqtisodiyotida salbiy o‘zgarish bo‘lmaydi. Biroq, neokeynschilar mehnat resurslari, ayniqsa, yuqori ixtisoslashgan, ya’ni sifatli ishchi yoki xizmatchilar emigratsiyasi yuz bergan davlatlar iqtisodiyotida salbiy o‘zgarishlar bo‘lishni tan oldilar.

Eramizning boshlaridan dunyo aholisi XIX asrga qadar 710 mln. kishiga, XX asrga qadar 4590 mln. kishiga va 1990 yillarga qadar 23 martaga oshgan. XX asr boshlariga qadar bolalar o‘limi yuqori edi. U davrda yaxshi ta‘minlangan va madaniyatli oilalarda ham bolalarning yashab ketishiga kafolat yo‘q edi. Oqibati o‘lim bilan tugaydigan bolalar kasalliklarini davolash yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli shunday holat yuzaga kelgan. 1950-1990 yillar davomida dunyo aholisi 2,1 martaga, jumladan, Xorijiy Yevropada 1,3, Shimoliy Amerikada-1,6, Avstraliya va Okeaniyada 2,0, Xorijiy Osiyoda 2,2, Lotin Amerikasida 2,7, Afrikada 2,9 martaga oshdi.

XX asr boshidan II jahon urushiga qadar hozirgi hamdo‘stlik davlatlaridagi demografik jarayonlar tahlilining diqqat markazida avvalombor Rossiya, keyin Sobiq ittifoqning Yevropa qismi turardi. Bu davr migratsiyasi ham yangi yerlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘ldi. 1926 yildan 1939 yilga qadar Rossiya aholisi yiliga 1318,3 ming kishiga, Ozarbayjon aholisi 895,9 ming kishiga, Ukraina 159,7, O‘zbekiston aholisi 143,0 ming kishiga o‘sib bordi. 1959 yilda Qozog‘istonda jami aholining 42,7%i, Qirg‘izistonda 30,2%i, Ukrainada 16,9%i, O‘zbekistonda 13,5%i yoki sobiq Ittifoqdagi barcha ruslarning

shunga muvofiq ravishda 3,5; 0,5; 6,2; 1,0 foizi yashagan.

Xalq xo‘jligini rivojlantirishga asoslangan avvalgi tizimda mehnat resurslarining ichki migratsiyasiga ham rejalarhtirilgan iqtisodiyotning ta’siri yuqori bo‘ldi. Ayniqsa, 70-yillarda qishloqlarni shaharlarga tenglashtirishga qaratilgan siyosat oqibatida migratsiyadagi erkin harakat izdan chiqdi. Aslida shahar va qishloqlar o‘rtasidagi tavofut doimo mavjud bo‘lgan va bundan keyin ham shundayligicha qoladi. Masalan, o‘sha davrda tashkil qilingan shahar tipidagi aholi punktlari (soxta shaharlar) bugungacha shaharga aylanib ulgurmadi. Chunki shaharlardagi sanoat ishlab chiqarishning rivojlanib borishi uchun malakali va sifatli mehnat resurslariga ehtiyoj saqlanib qoladi. Bu to‘g‘risida 70-yillarda V.I.Perevendensev, J.A.Zayonchkovskaya, TI.Zaslavskayalar o‘z tadqiqotlarida izoh berib o‘tishgan. V.I.Perevedensev: «Qishloq aholisi – shahar yoshlariga nisbatan taqqoslanganda, shahar ishchilarining o‘rnini to‘ldirish uchun biroz bilimsizroq, ammo hozirda ishlayotgan ishchilarga nisbatan ancha uquvli» - ekanligini ta’kidlagan. 90-yillardan boshlab Dunyo mamlakatlarida aholining ham ichki, ham tashqi migratsiyasining faollashuvi Yevropa, sobiq Ittifoq va boshqa mintaqalarda aholining hududiy taqsimlanishiga sabab bo‘ldi. Masalan, Yugoslaviyaning besh davlatga parchalanib ketishi va harbiy urushlar oqibatida 2,5 mln.dan ortiq kishining qochoqlar qatoriga qo‘shilishiga sabab bo‘ldi. Shu yillar davomida 125 mln. dan ortiq kishi o‘z yurtidan tashqarida yashaganligi qayd etilgan. Yevropada sanoatning eng og‘ir tarmoqlarida immigrantlar ishlashadi. Masalan, Fransiyada qurilishida band bo‘lganlarning 1/4 qismi va avtomobilsozlikda band bo‘lganlarning 1/3 qismi, Shveysariyada qurilishda band bo‘lganlarning 2/5 qismini immigrantlar tashkil etadi.

Albatta, butun sanoat yoki iqtisodiyotni tashqaridan ishchi kuchi yollash orqali sifatli mehnat resurslari bilan ta’minalash yoki iqtisodiyotni barqarorlashtirish mumkin emas. Bunda asosiy e’tibor mamlakatning ichidagi malakali mutaxassislardan samarali foydalanishga qaratiladi. Ikkinci jahon urushidan keyingi davrdagi demografik jarayonlar bevosita yangi yerlearning o‘zlashtirilishi va mehnat resurslarining joylashuvi bilan bog‘liq bo‘ldi.

XX asrning ikkinchi yarmida bir necha yuz minglab ziyolilarning xalqaro mehnat migratsiyasiga kelib qo‘silishi «aqlli idrokli odamlar» («Utechka mozgov» yoki «Brain drain») ning boshqa yurtlarga o‘tib ketishi odatiy hol bo‘lib qoldi. Masalan, 80-yillarning boshida Buyuk Britaniya Arab mamlakatlarining 600 ta olimi, 45 mingdan ortiq universitet ma’lumotiga ega bo‘lgan kishi ishlagan. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, bu davrda AQShdag‘i milliy akademiya a’zolarining 1/4 qismi, Nobel mukofoti sovrindorlarining 1/3 qismini xorijiy mutaxassislar tashkil etgan.

Bugungi kunga kelib, reemigratsiya masalasida ko‘pgina G’arb mamlakatlari faol tadbirdarni ishlab chiqmoqda. Masalan, Fransiya, Niderlandiya kabi davlatlar reemigratsiyaga yo‘naltiruvchi dasturlarni ishlab chiqqan. Biroq, rivojlanayotgan davlatlarning ko‘philigidagi mehnat resurslarini eksport yoki import qilishga ehtiyoj mavjud. Masalan, ilmiy bashoratlarga ko‘ra, 2025 yilga borib, Rossiya aholisi 147 mln. dan 134 mln. kishiga kamayishi oqibatida Rossiyada 11 mln., Qozog‘istonda mln. kishi (mehnat resurslari) ga ehtiyoj ortadi. Mehnat resurslari eksporti va importidan samarali foydalanish va uning sifatiga e’tibor qaratish chet el valyutasi yoki tajribasi kirib kelishining asosiy manbalaridan biridir.

Bu davrda barcha migratsiyalarning 85%dan ortig‘rog‘i Rossiya Federatsiyasi, Ukraina

va Qozog‘iston hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ko‘chib kelganlar hissasi Qирг‘изистон, Арманистон, Туркманистон, О‘збекистон, Qозог‘истон respublikalarida yuqori bo‘lgan. Shuningdek, ko‘chib ketuvchilar hissasi yuqori bo‘lgan respublikalarga Turkmaniston, O‘zbekiston, Qирг‘изистон kiritish mumkin. Bu mamlakatlarga barcha ko‘chib ketuvchilarning 50% dan ortig‘ini tashkil etadi. Demak, bu davr Turkmaniston, O‘zbekiston, Qирг‘изистонда aholi harakati tarixida migratsion faollik eng yuqoriligi bilan iz qoldirgan.

Migratsiya saldosi eng yuqori musbat ko‘rsatkichga ega bo‘lgan respublikalarga Rossiya, Ukrainani kiritish mumkin. Manfiy migratsiya saldosi yuqoriligiga ko‘ra, O‘zbekiston (-1540), Gruziya (-1036), Ozarbayjon (-875) respublikalari ajralib turadi. Yana shuni ta’kidlash joizki, o‘scha yillardagi Gruziya aholisining 22,1%ni, Ozarbayjon aholisining 17,0%ni boshqa respublikalarga ko‘chib ketishgan.

Yer sharida so‘nggi vaqtida yiliga 135-137 mln bola tug‘ilib, 53-55 mln kishi o‘lmoqda. Tabiiy o‘sishning miqdori 82-84 mln. kishini tashkil qiladi. Dunyoda tug‘ilishning juda ko‘p koeffitsiyentlari Afrikaga regionlar ichida Afrikaning barcha regionlari hamda Markaziy Amerika va G‘arbiy Osiyoga juda past koeffitsiyentlari Shimoliy Amerikaga, Yevropa, Rossiya hissasiga to‘g‘ri keladi.

Aholi soni va uning tarkibiga go‘daklar o‘limi ham juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Yer sharida 1999 yilda jami 7,8 mln bola bir yoshga yetmasdan o‘lganligi qayd etildi. Shundan sal kam 2 millioni Hindistonga, 631 mingtasi Xitoyga to‘g‘ri keladi. Pokiston, Bangladesh, Indoneziya, XXDR, Braziliya, Nigeriya, Efiopiya, mamlakatlarida hozirgi vaqtida yiliga 200-500 ming bola bir yoshga yetmasdan o‘lmoqda. Afg‘oniston, Butan, Gvineya, Liberiya, Mozambik, Chad va boshqa jami 26 mamlakatda 100 yuqori, 42 mamlakatda 50 dan 100 promillegacha bo‘lgan ko‘rsatkich bilan aniqlanmoqda. Bolalar o‘limi mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti darajasi bilan teskari aloqaga ega. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bolalar o‘limi koeffitsiyenti 4-8 promillega o‘zgaradi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyati beqaror, iqtisodiy qoloq bo‘lgan mamlakatlarda mazkur ko‘rsatkich odatda 100 dan ortiq, ayrim hollarda 50 dan ham yuqori darajaga egaligi bilan ajralib turadi.

Aholining turmush darajasi va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tabiiy harakati jarayonlari hamda shakllangan yosh tarkibi orqali uning o‘rtacha umr davri aniqlanadi. Aholining o‘rtacha umr davri 1999 yil 66 yoshga teng bo‘ldi.

Bu ko‘rsatkich iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda (Yaponiya, Shvetsiya, Shveysariya jami 57 davlat) 77-81 yoshni, qoloq mamlakatlarda 42-60 yoshni tashkil etadi. O‘rtacha umr davrini eng yuqori ko‘rsatkichlari Yaponiyaga (81 yosh), Fransiyaga va yana 17 mamlakatga 78-79 yosh eng past ko‘rsatkichlari Markaziy Afrika Respublikasi (41 yosh), Afg‘oniston (43 yosh) va Gviniya (44 yosh) mamlakatlariga xosdir. O‘zbekistonda o‘rtacha umr davri erkaklarda 66 yoshga ayollarda 72 yoshga, o‘rtacha 69 yoshga teng. So‘nggi ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston dunyo mamlakatlari ichida 101-107 o‘rinlarda joylashgan. Tarixiy umr davri atigi 25 yoshga teng bo‘lganligini asoslaydi. O‘rta asrlarda bu ko‘rsatkich taxminan 30 yoshgacha ko‘tarildi. Mana shu o‘rtacha ko‘rsatkichlar umr davri yuqori bo‘lgan insonlar mavjudligini inkor qilmaydi.

### **3 §. Demografik jarayonlar va mehnat resurslarining shakllanishi**

Mehnat resurslari soni va sifati mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. 2004

yilda O'zbekistonda mehnat resurslari jami aholining 54,3 foizini tashkil etdi. 2000 yildan keyingi davrda mehnat resurslari soni yiliga o'rtacha 400 ming kishiga ortib bormoqda. Mamlakat aholisining o'rtacha yoshi 25 yoshni tashkil etib, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanuvchi mazkur omil, o'z nFavbatida, uni rivojlantirish va taraqqiy ettirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Respublika aholisining soni 2005 yilda 26,3 mln. kishini tashkil etdi. O'zbekiston aholisi yiliga salkam 300 ming kishiga ko'paymoqda. Hozirgi kunda mamlakat aholisining o'sishi – yiliga o'rtacha 1,2% ga teng. Aholining tabiiy o'sishi koeffitsiyenti yuqori bo'lgan viloyatlarga Surxondaryo (19,2%), Qashqadaryo (19,4%), Jizzax (17,6%) viloyatlari kiradi.

O'zbekistonda aholining 36,7 foizini 14 yoshgacha bo'lganlar tashkil qiladi. 2004 yilda aholining tabiiy o'sishi har 1000 kishiga 15 kishini tashkil qildi. 2005 yilning boshida qishloq joylarda 16,6 mln. kishi yoki mamlakat aholisining 63,6 foizi yashadi. Qishloq aholisining umumiy tarkibida 8,8 mln. kishi yoki 54,08 foiz aholi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshda. Shundan 5,5 million kishi (70,5 foizi) ish bilan band. Statistik ma'lumotlarda qayd etilishicha, band aholining 30,9 foizi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Aholi to'g'risidagi bu ma'lumotlar uning respublika qishloq xo'jaligi uchun naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

Shuningdek, mehnat resurslari bandligi borasida ayrim hududiy nomutonosibliklar ham mavjud. Bu nomutonosibliklar qishloq xo'jaligida yangi xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanishi bilan o'z yechimini topadi. Qishloq joylarda mehnat bazalarining asosiy muammosi – ish o'rinalining talab darajasidan pastligidir. Bu uzoq davrlar davomida qishloq xo'jaligining barcha sohalari yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli paydo bo'lgan.

Bunday nomofiqliklar ishsizlik, ishslashni xohlaydigan, lekin turli sabablarga ko'ra bandlik xizmatlarida ro'yxatga olimmagan mehnatga layoqatli yoshdag'i aholi to'planganligi bilan bog'langan. Qishloq joylarda mehnatni qo'llash sohalarining kamligi tufayli ish kuchiga bo'lgan talabning pastligi amalda respublikaning barcha mintaqalariga xos xususiyat bo'lib, ishchi kuchlarining qo'shni davlat Qozog'iston va Rossiyaga yashirin migratsiyasi ham shu hususiyatlarga bog'liq bo'lmoqda.

Ma'lumki, sobiq Ittifoq parchalanib, uning o'rnida paydo bo'lgan mustaqil suveren davlatlarda 25 million rus millatiga mansub aholi bor edi, hozirgacha ularning ko'pchiligi Rossiyaga ko'chib o'tdi. Rossiya hozirgi kunda MDH davlatlari orasida ishchi migrantlari oqimi qaratilgan davlat bo'lib qolmoqda va kelajakda ham shunday bo'ladi. Mualliflarning fikricha, bunga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

birinchidan, Rossiyadagi demografik vaziyat, masalan, 2003 yil Rossiyada tug'ilish koeffitsiyenti har ming kishiga 9,0%, o'lim esa 15,0% ni, tabiiy ko'payish manfiy 6,0% ni tashkil etgan;

ikkinchidan, Rossiyaning bepoyon hududidagi tabiiy resurslarning o'zlashtirilishi; uchinchidan, MDH davlatlaridagi aholining ko'pchiligi rus tilida gaplasha bilishidir.

Rossiya uchun hozir ham, kelajakda ham Markaziy Osiyo respublikalari asosiy ishchi kuchi bilan ta'minlaydigan mamlakatlar bo'lib qoladi, chunki ushbu respublikalarda hali ham tug'ilish darajasi ancha yuqori [1]. O'zbekiston Markaziy Osiyoda tabiiy o'sishning yuqoriligiga ko'ra, boshqa mamlakatlardan farq qiladi. 2000 yilda noqonuniy migrantlar

soni Rossiyada – 1,3-1,5 mln. kishini, Qozog‘istonda 200 ming kishini, O‘zbekistonda 30 ming kishini tashkil etgan. Shu o‘rinda, O‘zbekistondan Rossiyaga borib ishlab yashirin migratsiyani hosil qilayotganlar soni 231 ming kishini tashkil etadi. MDH davlatlari o‘rtasida sodir bo‘layotgan migratsiya tebranma (mayatniksimon migratsiya) xususiyatiga ega.

Markaziy Osiyo davlatlaridan MDHning boshqa hududlari jumladan, Rossiya, Ukrainaga ishlash uchun ketayotganlar orasida vrachlar va boshqa yuqori ixtisoslashgan mehnat resurslarining ketishi o‘z mustaqilligi uchun kurashayotgan va ayni paytda shu kabi mutaxassislarini tayyorlashda katta mehnat sarflayotgan bu davlatlar uchun salbiy yo‘qotish hisoblanadi. Ayrim statistik prognozlarga ko‘ra, 2020 yilga borib, Rossiyada 11 mln., Qozog‘istonda 6 mln. mehnat resursiga ehtiyoj ortadi. Shu bois, MDH mamlakatlari migratsiya xizmatlarini amalga oshiruvchi muassasalari sodir bo‘layotgan noqonuniy migratsiyaga chek qo‘yishlari uchun hamkorlik doirasini kengaytirishlari lozim bo‘ladi.

Bizga ma’lumki, 200 ota-onaga 265 tug‘ilish aholining qayta barpo bo‘lishini 100% ta’minlaydi. Biroq, ko‘payishiga olib kelmaydi. Bugungi kunda aholisi o‘sishdan kamayishga o‘zgarayotgan Rossiya uchun 1,20 koeffitsiyenti lozim bo‘ladi. Bu har 100 samarali oila uchun 320 tug‘ilishning ta’minlanishi demakdir.

Ko‘p sonli egizaklarning tug‘ilishi dunyo miqyosida ko‘p qayd etilgan. Ko‘pgina holatda bunday egizaklar yashab ketishi qiyin bo‘lgan va o‘lim bilan yakun topgan. Beshtadan egizaklarning tug‘ilishi bir necha 10 marta yuz bergen. Shundan 15 holatda ular yashab ketishgan. Masalan, 1934 yilda Kanadada, 1943 yilda Argentinada, 1971 yilda Polshada bu kabi bolalar tug‘ilishi ijobjiy yakun topgan.

X.Zayonchkovskayaning fikriga ko‘ra, Rossiya tabiiy o‘sishdagi tendensiyaga ko‘ra, immigrantlarga doimo ehtiyojda bo‘ladi. Uning fikriga ko‘ra, faqatgina mamlakat iqtisodiyoti krizisdan chiqmagandagina immigrantlarga ehtiyoj sezilmaydi. Rossiya iqtisodiyotining rivojlanishi barqarorlashgan sayin immigrantlarga ehtiyoji ortib boradi. XIX-XX asrda AQSh immigratsiya davlati bo‘lganligi singari XXI asrda Rossiya dunyoda immigratsiya mamlakatiga aylanadi. 2000 yilda Rossiya aholisining barqaror o‘sishi va immigratsiya oqimining yuqori bo‘lishiga qaramay ishsizlik yoki ishga joylashishda muammolar yuz berdi. Bu mehnat yoshidagi aholining kasb egallash salohiyati bilan bog‘liq bo‘ldi. Ishlab chiqarish quvvati 1990 yillar darajasiga yetmasada, hozirda mehnat resurslarining yetishmasligi mamlakat iqtisodiyotini turg‘unlashtirmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2002 yilda sanoatda mehnat resurslarining 1/4 qismi to‘lmay qoldi [3].

Rossiya XXI asr o‘rtalariga qadar hozirgi aholi ko‘rsatkichlarini saqlab qolish uchun, u 50 yil davomida 35-70 mln. immigrant qabul qilishi lozim. Shundagina aholining qayta barpo bo‘lishi 700 ming kishiga o‘sadi. Joriy 5 yillikdan 2025 yilga qadar 1200 kishiga ortadi [4]. 1990 yillarda Rossiya ko‘chib keluvchilar oqimi yuqori bo‘lgan davrda ham aholi ko‘rsatkichlaridagi tabiiy yo‘qotishni qoplay olmadi.

1989 yillarga nisbatan aholining qayta barpo bo‘lishini taqqoslaganda, agar immigratsiya oqimi yuqori bo‘lmaganda edi, hozirda Rossiya aholisi 7,4 mln. kishiga yoki 5 foizga qisqarishi mumkin edi. Aholining qayta barpo bo‘lishi immigratsiya hisobiga 1/4 tabiiy yo‘qotishni qopladi. Shu bois, Rossiya aholisi atigi 18 mln. kishiga yoki 1,25% ga qisqardi. 1991-2001 yillar davomida dunyo miqyosida immigratsiya intensivligi yuqori bo‘ldi. Bu davr

davomida AQSh 924 ming, Germaniya 865 ming, Rossiya 781 ming immigrant qabul qildi. 1989-2002 yillardagi statistik tahlillarga ko‘ra, Rossiya aholisi migratsiya hisobiga 5560 ming kishiga o‘sdi va aholining migratsiya hisobiga o‘sishi esa, yiliga 400 ming kishini tashkil etadi, bu 1980 yillarga nisbatan ikki hissa yuqoridir.

1990 yillarda Rossiya aholisining migratsion o‘sishi asosan Qozog‘iston bilan bog‘liq bo‘ldi. Keyingi o‘rinni O’rta Osiyo mamlakatlari egallagani holda, ularning ulushi 1/3 qismini tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda Kavkaz orti mamlakatlari (20 foiz atrofida), Boltiq bo‘yi davlatlari (5 foiz) hamda Ukraina, Moldaviya (9 foiz). Sobiq Ittifoq mamlakatlaridan ko‘chib kelgan migrantlarning aksariyat qismini ruslar tashkil etgani holda ularning ulushi 1992 yillarga qadar 60 foizdan kam bo‘limgan. Migrantlarning 10 foizdan yuqorisi boshqa etnik guruhlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

Hozirgi davrda sobiq Ittifoq respublikalaridagi 1989 yilga qadar yashagan 25,3 mln. etnik ruslardan 3,3 mln. kishi Rossiyaga ko‘chib o‘tgan. Qиргизистон, Turkmaniston, O‘zbekistondan kelgan migrantlarning umumiy soni 1,5 mln. kishini tashkil etgani holda, bu shu mamlakatlarda yashayotgan 2 mln. ruslarni qisman o‘rnini bosadi.

Immigrantlar sonini har ming kishiga hisoblaganda Rossiya hisobiga 5,4 kishi tashkil etgan holda, Germaniya (10,6)dan keyingi o‘rinda va faqat AQSh (3,5) Rossiyadan keyingi o‘rinda turadi. Shu yillar davomida Qozog‘iston hududidagi 20 foiz ruslar ko‘chib ketishgan. Bu davrdagi Qozog‘istondan Rossiyaga ko‘chib ketuvchilar soni Qozog‘istondagi iqtisodiy ahvol bilan bog‘liq bo‘ldi. 1994 yil Qozog‘istondan ruslarning 20 foizi ko‘chib ketishga tayyor edi. 1997 yil 1/3 qism ruslar ko‘chib ketishni xohlashgan, keyinchalik ko‘chib ketuvchilar soni qisqara borgan.

1994-2001 yillar davomida Rossiyadagi migratsiya saldosи 810 ming kishini tashkil etgani holda, bu ko‘chib keluvchilarning 1/4 qismini tashkil etadi va shundan 39 foizi ukrainlar, 45 foizi kavkazliklar va Markaziy Osiyo etnik guruhlaridan kelishgan. 1994 yilda Rossiya aholisining migratsion o‘sishi 810 ming kishiga yetdi. Keyinchalik 2001 yilga kelib, 72 ming kishigacha pasaydi.

Hozirda malakali ishvchilar uchun ish o‘rinlari va to‘lovlarining pasayishi o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Dunyo bo‘yicha davom etayotgan tendensiyaga ko‘ra, yuqori to‘lovli ish o‘rinlarining qisqarishi kuzatilmoxda. Bu davrda malakali ishvchilar bir vaqtning o‘rnida o‘zi va oilasini ta’minalash uchun bir necha o‘rta va kam to‘lovli ishlarda ishlashiga to‘g‘ri keladi.

Bu qatlamga kiruvchi intilegentlar va xizmatchilar yanada murakkab vaziyatlarda qolishadi. Asosan ta’lim sektorida xizmat qiluvchilar, o‘qish yoshidagi aholi qatlamining kamayishi hisobiga 10 minglab tarbiyachi o‘qituvchilar ish o‘rinlarini yo‘qotadi.

Demografik jarayonlar ham tabiat qonunlari singari murakkab tuzilishga ega. Demografik siyosat qanday bo‘lishiga qaramay, u doimo o‘zining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilib turadi. G’arbiy Yevropadagi singari Rossiya aholisida ham 65 yoshdan oshganlar yaqin kelajakda jami aholining 1/5 qismini tashkil etadi.

XX asr boshlarida 20 yillardan boshlab, Qozog‘istonning asosan shimoliy qismida qulq qilinganlar, keyinchalik koreyslar, polyaklar, nemislar o‘rnasha boshlashdi. 50-yillarga kelib esa bir necha yuz minglab, aslida qishloq xo‘jaligi hashari uchun kelib, keyinchalik o‘rnashib qolganlar hisobiga aholi soni orta bordi. Natijada 1926 va 1939 yillar davomida chetdan kelgan aholi 2,8 mln.dan 3,8 mln. kishigacha o‘sdi. Shu davrda tub

qozoqlar soni 3,7 mln. dan 2,3 mln. gacha yoki 38% ga qisqardi. Bu natijaga Sovet hukumati sun’iy ocharchilikni tashkil etish hisobiga erishdi [5]. 1927-1938 va 1939-1958 yillardagi aholi ro‘yxatida Qirg‘izistonda yashovchi o‘zbeklar ulushi 20% dan yuqori bo‘lgan. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi chegarasidagi O’sh viloyatida asosan o‘zbeklar ulushi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu davrda Qozog‘iston va O‘zbekiston respublikalari poytaxtlarida tub aholi shunga muvofiq ravishda 40,3% va 16,3% rus millatiga mansub aholi 33,8% va 65,3% ni tashkil etgan.

1959 yildagi o‘tkazilgan aholi ro‘yxatiga ko‘ra, Qozog‘iston mintaqasidagi eng ko‘p millatli respublikaga aylandi. Bu davrda tub aholi, ya’ni qozoqlar respublika aholisining 30%ini tashkil etdi. Bu davrda respublikada ruslarning ulushi biroz kamaydi va jami aholining 42,7%ini tashkil qildi va boshqa millat vakillari ulushi 27,3% ni tashkil etdi.

1970-1979 yillardagi davr oralig‘ida ham shu holat deyarli saqlanib qolgan. Bu davrda ruslarning respublikadagi ulushi 40,8% ga tushgan. Boshqa omillar ta’sirida qolgan millatlar ulushi ham 23,2% ga qisqargan. Bu davrlar mobaynida Qirg‘izistondagi aholining etnik tarkibi dinamikasini baholaganda ham shunday holat kuzatiladi. Bu respublikaga albatta quloq qilinganlar jo‘natilmagan bo‘lsada, O’rta Osiyo xalqlari (o‘zbeklar, qozoqlar, tojiklar, uyg‘urlar, dunganlar)ning ulushi yuqori bo‘ldi. Bu davrda ruslarning ulushida ham birmuncha o‘sish yuz berdi. Rus millatiga mansub mehnat resurslari rejalahtirilgan iqtisodiy davrdagi ko‘chirilishi oqibatida respublikaning tub aholisini milliy ozchilik darajasiga tushirib qo‘ydi.

#### **4 §. Aholining yosh-jins tarkibi va mehnat resurslarining shakllanishi**

Aholining yosh jins tarkibi unga xos belgilar ichida eng muhimi hisoblanadi. Chunki ishga qarab aholining jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati baholanadi. Butun dunyoda erkaklarning soni ayollarnikiga nisbatan qariyb 30 mln.ga ko‘proqdir. Lekin ayrim materiklar, regionlar va erkaklar bilan ayollar soni o‘rtasidagi farq sezilarli tusga ega. Bolalar yoshlarida barcha materiklar va regionlarda o‘g‘il bolalarning ustunligi ko‘zga tashlanadi. Dunyoda 9-14 yoshda har ming qizga 1040 o‘g‘il bola to‘g‘ri keladi. Ushbu ko‘rsatkich Yevropada (1060) Osiyoda (1050) hamda Avstraliya va Okeaniyada (1059) undan ham yuqori. Faqat Afrika (1008) va Amerika (1029) da nisbatan past daraja bilan ifodalanadi. Bolalar sonidagi farqning kelib chiqishida tug‘ilgan har ming go‘dakning 520 tasi o‘g‘il bolalardan iborat bo‘lishligi omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aholining asosan mehnatga layoqatli yoshdagagi qismidan tashkil topgan 15-65 yoshida dunyo bo‘yicha har 1000 ayloga 1020 ta erkak to‘g‘ri keladi. Yevropada erkaklar soni ayollar soniga teng. Osiyoda xar 1000 ayloga 1049 ta erkak Avstraliya va Okeaniyada esa 1039 erkak to‘g‘ri keladi. Mazkur ko‘rsatkich Afrika (979 erkak) va Amerika (990 erkak) da aksincha ayollar ustunligi bilan ifodalanadi. Yuqoridai yosh guruhlarida erkaklar bilan ayollar o‘rtasida mavjud bo‘lgan farqlar juda ko‘p omillar ta’sirida shakllangan. Bunda dunyo va region hamda mamlakat doirasidagi urushlar erkaklar bilan ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning o‘rtacha umr davridagi farqlar va boshqa omillarning roli juda kattadir.

Dunyo aholisining tarkibida bolalar ulushi kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagagi va aholi salmog‘i ko‘paymoqda. Binobarin, 1970-1999 yillardida 0-14 yoshdagagi bolalar ulushi

36,6 da 31 foizgacha kamaydi. Mehnatga layoqatli yoshlarda aholi salmog‘i 57, 7 dan 62,0 foizga yetdi.

Keksa aholining ham salmog‘i 7,0 foizni tashkil etdi. Xitoy, Hindiston va boshqa qator mamlakatlarda erkaklar soning ustunligi ayollarning jamiyatda tutgan murakkab, ba’zi xollarda ayanchli o‘rni hamda mazkur mamlakatlarda oila o‘g‘il bolani ko‘rishga bo‘lgan juda katta intilish va ana shu maqsadga erishishda xar qanday choraga hatto endi tug‘ilgan qizni o‘ldirishgacha borishga tayyorligi bilan bog‘langan.

Aholi jinsiy tarkibining shakllanishida dunyo ayrim region va mamlakatlar miqyosida bo‘lib turuvchi migrantsion aloqalarning roli ham kattadir. Yevropa va Shimoliy Amerika emigrantlarni qabul qiluvchi Osiyo va Afrika emigrantlarni yetkazib beruvchi hisoblanadilar. Dunyo aholisining yosh tarkibi ham katta hududiy farqlarga ega. Bunda tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari dinamikasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Quyidagi jadval ma’lumotlaridan dunyo aholisining yosh tarkibiga xos xususiyatlar va nisbatlarni ko‘rish mumkin.

#### **4-mavzu: Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida. (2 soat)**

##### **Reja:**

1. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarining omillari
2. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanishning ilmiy uslublari hamda yo‘llari.

Har bir mamlakatdagi demografik vaziyat iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tug‘ilish darajasining o‘sishi muayyan vaqtidan so‘ng mehnat bozorida ish bilan bandlik tegishli ravishda o‘zgarishiga hamda davlat budgetining ijtimoiy ehtiyojlarga xarajatlari darajasiga, shuningdek ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi amal etishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Demografik tendensiyalarining o‘zgarishi va insonni rivojlanadirish – o‘zaro bog‘liq jarayondir.

*Demografiya* (ko‘hna yunoncha “δῆμος” — “xalq” va “γράφω” — “yozaman” so‘zlaridan) — aholi takror hosil qilinishi qonuniyatları, uning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy sharoitlar, migratsiyaga bog‘liqligi, aholining soni, ularning hududlarda joylashishi, tarkibi, o‘zgarishi, sabablari va mazkur o‘zgarishlar oqibatlari to‘g‘risidagi fandir.

Demografik vaziyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. U aholining tabiiy o‘sishi, milliy va ijtimoiy tarkibi, migratsiyasi, mehnat resurslari va ularning ish bilan bandligi kabi kategoriyalarni mujassamlashtiradi.

Demografiyaning predmeti aholini tabiiy takror hosil qilish qonunidir. Umuman olganda, demografiyaning fan sifatida uchta muhim vazifasi ajratib ko‘rsatiladi:

- demografik jarayonlar tendensiyalari va omillarini o‘rganish;
- demografik prognozlarni ishlab chiqarish;
- demografiya sohasidagi siyosatni ishlab chiqish.

Demografi fani uzoq vaqt davomida amaliy ehtiyojlarga muvofiq aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, ularni qayta ishslash va talqin etish bilan shug‘ullanib kelgan. Demografiyaning ushbu funksiyalarini bajarishi jarayonida uning tadqiqot usullari muttasil takommilashib bordi.

“Demografiya” atamasi birinchi bor fransuz olimi A. Giyyarning “Inson statistikasi unsurlari yoki taqqoslama demografiya” (A. Guillard, “Eléments de statistique humaine ou Démographie comparée”, 1855) kitobi nomida paydo bo‘ldi. Muallif demografiyaga *keng ma’noda* – “*inson zotining tabiiy va ijtimoiy tarixi*” yoki *torroq ma’noda* – “*aholi, uning umumiy harakati, jismoniy, fuqarolik, intellektual va ahloq xolatini matematik anglash*” sifatida qaragan.

“Demografiya” atamasi 1882 yilda Jenevada bo‘lib o‘tgan Gigiyena va demografiya bo‘yicha xalqaro kongress nomlanishida rasmiy e’tirof etildi.

Qadimiy davrlardayoq aholini ro‘yxatga olish zarurati tug‘ilgan. Ko‘hna Gretsya, Rim, Xitoyda, keyinchalik O’rta asrlarda aholishunoslik to‘g‘risidagi bilimlar va tassavurlar mavhum, tizimsiz bo‘lganligi tushunarlidir. Ayrim mamlakatlarda oilalar, tug‘ilishni tartibga solishga harakat qilib ko‘rilgan. O’sha davrlardayoq mutafakkirlar aholi soni bilan inson rivojlanishi o‘rtasidagi aloqadorlikka e’tibor qaratganlar.

Konfutsiy (miloddan ilgari taxminan 551-479 yillar) ishlov beriladigan ekin maydonlari bilan aholi soni o‘rtasidagi eng maqbul nisbatni aniqlashga harakat qilib ko‘rgan. Uning fikricha, bu nisbatning buzilishi quyidagi sabablarga olib kelishi mumkin bo‘lgan:

- aholi soni kam bo‘lsa, ekinzorlarga ishlov berish yomonlashadi va dexqonlar soliq to‘lashdan bosh tortadi;
- aholi nihoyatda zikh bo‘lsa, odamlarning qashshoqlashishi, bekorchilarning ko‘payishi sababli ijtimoiy muammolar kuchayadi.

Bundan aholi soni davlat tomonidan tartibga solinishi kerakligi hamda odamlarni aholi zikh mintaqalardan aholi kam bo‘lgan hududlarga ko‘chirish masalasini hal qilish talab etilishi kabi xulosalar chiqarilgan.

Platon (miloddan avvalgi 428-347 yillar) ideal davlat to‘g‘risidagi ta’limotida erkin fuqarosi 5040 nafar bo‘lgan davlat ana shunday modelga javob berishini ko‘rsatgan. U nikoh munosabatlarida ham muayyan tartib o‘rnatishni taklif etgan, jumladan erkaklar faqat 30 yoshdan 55 yoshgacha farzand ko‘rishi maqsadga muvofiqligini asoslagan. Platon shunday yozadi: “nikoxlar sonini belgilashni hamda urush, kasallanish va hokazolarni hisobga olgan holda erkaklar soni imkoniyat darajasida muqim bo‘lishi, davlat imkoniyati boricha kattalashmasligi ham, kichiklashmasligi ham choralarini ko‘rishi hukmdorlardan so‘raymiz”.

Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 yillar) ham erkin fuqarolari kamsonli bo‘lgan davlatni ideal deb hisoblagan. Uning fikricha, fuqarolar sonining kam bo‘lishi ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlaydi, aholi haddan tashqari ko‘p bo‘lganda esa bunga erishish mumkin emas. Aholining ortiqchaligi ular tomonidan e’tirozlar bildirilishi hamda jinoyatlar soni ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Shu bmlaye birga oholi ko‘paysa, fuqarolarning bir qismi yerga ega bo‘lmasdan qashshoqlashadi.

Demografiyaning fan sifatda chinakam shakllanishi XVII asr ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Ana shu vaqtida kapitalizmning rivojlanishi aholishunoslikni o‘rganishga doimiy ehtiyoj tug‘dirdi.

Tarixan olib qaralganda demografiyada ilmiy o‘rganishning birinchi ob’ekti odamlar o‘rtasidagi o‘lim bo‘ldi. Avlodlar o‘limi xaqidagi bilimlar umr ko‘rish davomiyligini (tug‘ilish darajasi muqim bo‘lsa, aholi soni ham barqaror bo‘ladi) aniqlash hamda hayotni

sug‘urtalashda umr ko‘rish davomiyligiga bog‘liq ravishda sug‘urta to‘lovlari miqdorini xisoblab chiqish imkonini berardi.

XVIII asrda ayrim mamlakatlarda vafot etganlar va tug‘ilganlar hamda aholi sonini aniqlashga dastlabki urinishlar kuzatildi.

XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshida AQShda aholini ro‘yxatga olishning zamonaviy usuliga asos solindi, 1790 yilda aholini joriy hisobga olish yo‘lga qo‘yildi. Demografiyada aholini takror xosil qilish tadqiqotlarning markaziy ob’ektiga aylandi.

*Aholini takror hosil qilish* – aholining tabiiy harakati natijasida avlodlarning armashinishidir. Aholini takror xosil qilish tug‘ilish va o‘limlar soniga qarab aniqlanadi. Demografik jamlanma ko‘rsatkichlar o‘zgarishiga muvofiq, aholi takror hosil qilinishining uch asosiy tarixiy turini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Ulardan birinchisi – *aholini takror hosil qilishning qadimiy turidir*. U ibtidoiy jamiyat uchun xos bo‘lgan va hozirgi paytda uchramaydi.

Aholi takror hosil qilinishining ikkinchi turi – “*an‘anaviy*” yoki “*patriarxal*” *takror hosil qilish turidir*. U agrar jamiyatda hamda industrial jamiyatning ilk boqichlarida ustunlik qilgan. Tug‘ilish va o‘lim darajasi yuqoriligi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining pastligi bu turning asosiy belgilaridir.

Ko‘pbolalik an‘anaviy odad bo‘lib, u agrar jamiyatda oila yaxshi amal etishiga ko‘maklashadi. O‘lim darajasining yuqoriligi esa odamlar turmush darajasi pastligi, mehnatning og‘irligi, to‘yib ovqatlanmaslik, tibbiyotning zarur darajada rivojlanmaganligi oqibatidir. Takror xosil qilishning bunday turi rivojlanish darajasi past bo‘lgan Nigeriya, Bangladesh va ayniqsa Efiopiya uchun xosdir. Efiopiyada tug‘ilish darajasi - 45,0%, o‘lim esa – 20,0 % ni, umr ko‘rishning o‘rtacha davomiyligi atigi 43 yilni tashkil etadi.

Rivojlanayotgan davlatlarning ko‘pchiligidagi (Meksika, Braziliya, Filippin va boshqalar) keyingi 10 yillikda takror hosil qilishning “an‘anaviy” turi jiddiy ravishda o‘zgardi. Ushbu mamlakatlarda tibbiyotdagi muvaffaqiyatlar tufayli o‘lim darajasi 6,0 % – 10,0 % gacha pasaydi, lekin tug‘ilishning an‘anaviy hisoblangan yuqori darajasi asosan saqlanib turibdi. Natijada ushbu davlatlarda aholining tabiiy o‘sishi yuqori – yiliga 2,5 – 3,0 % ni tashkil etadi. Aholini takror hosil qilishning bevosita ana shu - “o‘tish” turi XX asr oxirida jahonda aholi soni o‘sishi sur’atlari yuqori bo‘lishini ta’milnadi.

*Aholini takror hosil qilishining “zamonaviy” yoki “oqilona” turi* tug‘ilish darajasi pastligi, o‘lim darajasining o‘rtachaligi, aholining tabiiy o‘sishi nisbatan kamligi va umr ko‘rish o‘rtacha davomiyligining yuqoriligi xususiyatlariga egadir. Mazkur tur aholining turmush darajasi va madaniyati yuqoriroq bo‘lgan, iqtisodiy jixatdan rivojlangan davlatlar uchun xosdir. Ushbu mamlakatlardagi tug‘ilish darajasining pastligi oilani ongli tartibga solish bilan uzviy bog‘liqidir. O‘lim darajasiga esa aholi tarkibida katta yoshdagilar salmog‘ining yuqoriligi ta’sir ko‘rsatadi.

Keyingi yarim asr mobaynida demografiyani umumiy rivojlanishning iqtisodiy va ijtimoiy omillari nuqtai nazaridan o‘rganishga e’tibor ortmoqda.

Demografiyada *jamlanma birlik – insondir*. Bu birlikning belgilari ko‘p – jins, yosh, oilaviy ahvol, ta’lim darajasi, mashg‘ulot turi, millat va hokazolar. Ushbu belgililar inson umri davomida o‘zgarib boradi. Shuning uchun aholi miqdorida odamlarning yosh, jins tarkibi, oilaviy ahvol kabi xususiyatlar mujassamlashgan. Har bir odam hayotidagi

o‘zgarishlar aholi tarkibidagi o‘zgarishlarga ham olib keladi. Ushbu o‘zgarishlar jamlanma holida aholining harakatini tashkil etadi.

Aholi soni o‘sishining umumiyligi xususiyatini tabiiy o‘sish belgilaydi. Mazkur ko‘rsatkich tug‘ilganlar bilan o‘lganlar soni o‘rtasidagi farqning mutlaq mikdori sifatida ifodalanadi. Aholi tabiiy o‘sishining yuqori sur’atlari, agar bu jarayon o‘lim darajasi past sharoitlarda kechayotgan bo‘lsa, qulay demografik vaziyat sifatida baholanadi. Biroq qator mamlakatlarda tug‘ilish tartibga solinmasligi oqibatida demografik vaziyat keskinlashadi. Bunda demografik inqirozning turli belgilari – bolalar va onalar o‘limi darajasining yuqoriligi, aholi salomatligi ko‘rsatkichlarining pastligi, umr ko‘rish o‘rtacha davomiyligining kamayishi va hokazolar paydo bo‘ladi.

Odatda aholi harakati uch guruhga tasdiqlanadi:

- *tabiiy harakat* – bu tug‘ilish, o‘lim sonini qamrab olib, mazkur vaziyatlarni o‘rganish bevosita demografiya vakolatidadir;
- *mechanik harakat (migratsiya)* – bu aholining hududlar bo‘yicha harakatlanishlarining barcha turlari jamlanmasidir. Mazkur jarayon pirovard natijada aholining joylashishi, zichligi, mavsumiy va tebranuvchan harakatchanligi xususiyatlarini belgilaydi;
- *ijtimoiy harakat* – bu odamlarning bir ijtimoiy guruhdan ikkinchisiga ko‘chib o‘tishidir. Ushbu harakat turi aholi ijtimoiy tarkibi takror hosil qilinishini belgilaydi.

Migratsiya va takror hosil qilish jarayonlari o‘rtasida uzbek aloqadorlik mavjuddir. Migratsiya ko‘chib yurgan odamlar ommasining tug‘ilishi, nikohda bo‘lishi, salomatligi va o‘limiga ta’sir ko‘rsatadi. Ana shu sifatda u aholini takror hosil qilishining omillaridan biriga aylanadi. Biroq migratsiya jarayonlarida jo‘g‘rofiv va iqtisodiy omillarning (tabiiy sharoitlar, iqlim, iqtisodiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy infratuzilma va hokazolar) roli takror hosil qilishnikiga qaraganda ancha sezilarlidir. Aholining migratsiyasi – bu, eng avvalo ish kuchining migratsiyasidir.


Xalqaro Mehnat Tashkiloti hamda Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot mehnat migrantlariga aholining o‘zi istiqomat qiladigan mamlakat bir hududidan ikkinchisiga yoki boshqa mamlakatga ko‘chib borib, mehnat faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lish ta’rifini beradi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1949 yil 1 iyuldagagi “Ko‘chmanchi mehnatkashlar to‘g‘risida”gi 97-Konvensiyasiga muvofiq: “ko‘chmanchi mehnatkash ishlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chuvchi shaxsni anglatadi”<sup>16</sup>.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti mehnat migratsiyasining quyidagi asosiy turlarini ajratib ko‘rsatadi:

- *shartnoma asosida ishlovchilar*. Bu holda migrantlarni qabul qiluvchi davlat tomonidan ularning mazkur mamlakatda bo‘lish muddatlari aniq belgilab qo‘yiladi. Migratsiyaning bu turi asosan ish kuchini mavsumiy (masalan, qishloq xo‘jaligi, qurilish) ishlarga jalb qilish bilan bog‘liqdir;

- *malakali kadrlar migratsiyasi*. Bunga yuqori malakali mutaxassislar yoki ishchilarni imtiyozli tartibda (yuqori ish haqi, boshqa imtiyozlar hisobiga) ishga taklif qilinishi misol bo‘la oladi;

<sup>16</sup> Инсон хукуклари бўйича халқаро шартномалар. –Т. Адолат. 2004. -149 б.



### 12.1-rasm. Mehnat migratsiyasi tasnifi<sup>17</sup>

• *noqonuniy migratsiya*. Bu noqonuniy ravishda boshqa mamlakatlarda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishdir;

• *qochoqlar*. Bular toifasiga hayoti xavf ostida qolishi oqibatida boshqa joylarga ko‘chishga majbur bo‘lganlar kiradi;

• *ko‘chmanchilar*. Ular doimiy yashash uchun boshqa joyga ko‘chib borganlardir.

*Hudud bo‘yicha* ichki va tashqi migratsiya farqlanadi. *Ichki mehnat migratsiyasi* bir mamlakat miqyosida, mintaqalar, tuman va shaharlar o‘rtasida bo‘ladi. *Tashqi mehnat migratsiyasi* deyilganda ish kuchining bir davlatdan boshqa davlatga ko‘chib o‘tishi tushuniladi. U quyidagi xususiyatlarga egadir:

- rivojlanayotgan davlatlardan rivojlangan davlatlarga mehnat migratsiyasi;
- rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida mehnat migratsiyasi;
- rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida mehnat migratsiyasi.

*Malaka bo‘yicha* yuqori malakali hamda past malakali ish kuchi migratsiyasi farqlanadi.

Mehnat migratsiyasi *davomiyligiga* qarab:

• *doimiy yoki uzoq muddatga* mo‘ljallangan (boshqa mamlakatga doimiy ko‘chib ketish yoki qishloq joylaridan shaharga doimiy yashashga ko‘chib ketish);

• *vaqtinchalik* (masalan, shartnoma asosida boshqa mamlakatga muayayn davrga ishslash uchun borish);

<sup>17</sup> Абдурахмонов К.Х. Мехнат иқтисодиёти. –Т.: Мехнат. 2009. -254-255 б.

- *mavsumiy* (masalan, qishloq xo‘jaligi ishlariga jalg etish);
- *tebranuvchan* (ish kuchining bir hududdan ikkinchisiga, masalan qishloq joylaridan shaharlarga muntazam qatnab ishlashi).

Mehnat migratsiyasi, shuningdek, *qonun jihatidan qonuniy*, ya’ni mamlakatda amal qilayotgan qonunchilik, xalqaro huquq normalari, davlatlararo huquqiy bitimlar asosida hamda *noqonuniy* bo‘lishi mumkin.

Mehnat migratsiyasida ish kuchi harakatchanligi mezoni ham hisobga olinadi. *Ish kuchi harakatchanligi* mehnatga layoqatli aholining muayyan turdag'i mehnat faoliyatini muayyan joyda bajarishga qodirligi va tayyorligi bilan belgilanadi. Uning ijtimoiy-kasbiy va hududiy xususiyatlari mavjuddir. Mazkur jihatlarni quyidagicha guruhash mumkin:

1.Ish kuchi ko‘chishining zarurati omillari. Ularga ijtimoiy-kasbiy harakatchanlikda ish haqi, mehnat shart-sharoiti va mazmuni, ish vaqt, xizmat sohasida ko‘tarilish ehtimoli bilan belgilansa, hududiy harakatchanlik turmush darajasi, ijtimoiy infratuzilma, turar joy sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

2.Yangi ish joyining maqbulligi omillari yuqorida qayd etilganlar qatori qilingan sarflardan yangi ish joyida foydalanish hamda turar joyni almashtirish imkoniyatlarini ham qamrab oladi.

3.Bu guruh omillari imkoniyati harakatchanlikning osonligi bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy-kasbiy harakatchanlikda xodim malakasi, tajribasi, yoshi va boshqa xususiyatlari hamda yangi ish joyiga joylashishning osonligi asosiy rol o‘ynasa, hududiy harakatchanlikda ular qatori ko‘chib o‘tish harajatlari ham ahamiyatga egadir.

4. Mazkur guruh omillari ijtimoiy-kasbiy harakatchanlikda bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi axborotlar mavjudligi, ularning ishonchligi, axborot olish qiymati bilan belgilansa, hududiy harakatchanlikka ko‘chib boriladigan joylar to‘g‘risidagi axborotlar hamda ularning qiymati muhim hisoblanadi.

Mehnat migratsiyasida *donor mamlakatlar* (ish kuchini eksport qiluvchilar) hamda *retsepiyent mamlakatlar* (ish kuchini import qiluvchilar) farqlanadi. Umuman olganda mehnat migratsiyasi retsepiyent mamlakatning ish kuchiga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlaydi, donor mamlakatlarda esa iqtisodiy faol aholini esa ish bilan bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Mehnat migratsiyasi donor mamlakatlar iqtisodiga quyidagicha ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi:

- ish kuchi eksporti mamlakat mehnat bozoridagi vaziyatni yaxshilaydi, ya’ni ish kuchi migratsiyasi natijasida ortiqcha mehnat resurslari soni kamayadi. Bu, ayniqsa, aholisi zich mamlakatlar(Xitoy, Hindiston, Meksika, Turkiya, Pokiston)ga ijobjiy ta’sir o‘tkazadi;

- ish kuchi eksporti donor mamlakatlar fuqarolariga retsepiyent davlatlarda yangi zamonaviy mutaxassisliklarni o‘zlashtirish, o‘z malakalarini oshirish, yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish imkonini beradi;

- ish kuchi eksporti donor mamlakatlarga qo‘srimcha valyuta kirib kelishi hamda emigrant xodimlar oila a’zolari turmush darajasini oshirish manbai hisoblanadi;

- donor mamlakatlar o‘z fuqarolarining chet ellarda mehnat faoliyatini amalgaga oshirish bilan shug‘ullanadigan firmalardan davlat budgetiga soliq undiradi.

Shu bilan bir qatorda ish kuchi migratsiyasining donor mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta’siri ham mavjuddir. Ular quyidagilardan iborat:

- ish kuchini eksport qiladigan mamlakatlar o‘z mehnat resurslari, mehnatga layoqatli iqtisodiy faol aholi ma’lum qismidan ajraladilar;
- donor mamlakatlar imigrant ishchilarni o‘qitish va malakasini oshirish uchun sarflagan mablag‘lari retsipyent davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadlarida foydalaniladi;
- yuqori malakali va mehnat bozorida g‘oyat raqobatbardosh ish kuchi eksporti donor mamlakatlar ishlab chiqarishining muhim tarmoqlarida yuqori malakali kadrlar taqchilligiga olib kelishi mumkin.

Ish kuchi migratsiyasi retsipyent mamlakatlar iqtisodiyotiga quyidagi ijobiy samara keltiradi:

- xorijdan ish kuchining kirib kelishi yuqori darajadagi safarbarlikni ta’minlab, iqtisodiyot tarkibidagi muayyan tarmoqlarni jadal rivojlantirishga xizmat qiladi;
- ish kuchi migratsiyasi retsipyent mamlakatlarning kadrlar tayyorlash uchun harajatlarini tejash imkonini beradi;
- imigrantlar ichki bozorni rivojlantiradi, chunki ular tovar va xizmatlarga talabni oshiradilar;
- ish kuchi importi retsipyent mamlakatlar kompaniya va firmalarning bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi, chunki arzon ish kuchi kirib kelishi natijasida ishlab chiqarish harajatlari tejaladi;
- imigrantlarning vaqtinchalik bo‘s sh mablag‘laridan retsipyent mamlakatlar iqtisodiyotini moliyalashtirish uchun foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Mehnat migratsiyasining retsipyent davlatlar uchun ham salbiy tomonlari mavjuddir. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining xorij ish kuchiga qaramligi ortadi;
- ichki ish kuchining mahalliy mehnat bozoridagi bahosi pasayadi hamda xorij ish kuchining taklifi ortadi.

Shuning uchun har bir davlat o‘z migratsiya siyosatini amalga oshiradi. Jumladan, qator davlatlardan xorij ish kuchi sifatiga – ularning ma’lumoti, kasb-malakasi, ish stajiga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, Avstraliyada imigrantlar ishga qabul qilinishi uchun o‘z mutaxassisligi bo‘yicha kamida uch yillik ish stajiga ega bo‘lishlari kerak.

Ish kuchini import qilayotgan mamlakatlar yosh bo‘yicha ham muayyan talablar qo‘yadilar. Mehnat migrantlari asosan 20-40 yoshda bo‘lishlari talab etiladi. Shu bilan birga xorijlik ishchilar, jumladan, Shvetsiya va Norvegiyada tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ishga qabul qilinadi.

Turli davlatlarda ish kuchi miqdoriga kvotalar belgilanadi yoki moliyaviy va vaqt cheklovleri o‘rnataladi. Masalan, Gretsiyada grek millatiga mansub bo‘lman xodimlarni ishga yollashda cheklovlar o‘rnatalgan. Irlandiyada esa mehnat faoliyatini boshlash uchun migrantlar muayyan miqdorda mablag‘ to‘lashlari talab etiladi. Ish kuchini qabul qilib oluvchi davlatlar mehnat faoliyati davomiyligini ham belgilaydilar.

Migratsiya, odatta, mehnat faoliyatini inson kapitalining bahosi yuqori bo‘lgan sohalarga ko‘chirishga ko‘maklashadi. Amerikalik iqtisodchilar R.J. Erenberg va R.S. Smit aholi imkoniyatlar yomon bo‘lgan mintaqalardan imkoniyatlar yaxshi bo‘lgan mintaqalarga ko‘chib o‘tadi degan xulosaga kelgan. Ushbu jarayonda ko‘chib o‘tish to‘g‘risida qaror qabul qilishga muhohirning yoshi va ta’lim darajasi katta rol o‘ynaydi. Mehnatga loyaqatli

yoshlarning migratsiya faolligining eng yuqoriligi ularning migratsiyadan manfaat olishlari uchun vaqtлari ko‘pligi bilan izohlanadi<sup>18</sup>.

So‘nggi paytda mehnat migratsiyasini tahlil etishda inson kapitalining mamlakat iqtisodiy o‘sishning *endogen omilini* tadqiq etishga e’tibor kuchaydi. Bunday yondashuv tarafdorlari (R. Lukas, P. Romer va boshqalar) jamlangan inson salohiyati iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili, xalqaro iqtisodiy migratsiya mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy o‘sish sur’atlaridagi farqlar natijasidir degan xulosaga kelganlar. Bunda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirishning endogen mexanizmi sifatida inson kapitalining jamlanishi namoyon bo‘ladi. Xalqaro mehnat migratsiyasi muxojirlarda inson kapitali jamg‘arilishiga yordam beradi.

Aholini hisobga olish statistikasida quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- *mavjud aholi* – hisobga olish paytida mazkur aholi punktida doimiy yashash joyidan qat’i nazar mavjud bo‘lgan aholi qismi;
- *doimiy aholi* – hisobga olish paytida amalda qayerda bo‘lganidan qat’i nazar mazkur aholi punktida doimiy yashaydigan aholi qismi;
- *vaqtincha yo‘qlar* – hisobga olish paytida doimiy yashash joyida vaqtincha yo‘q bo‘lgan (6 oydan ko‘p bo‘lmagan davrda) shaxslar;
- *vaqtincha borlar* – xhsobga olish paytida mazkur aholi punktida vaqtincha bor bo‘lgan (6 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda) shaxslar.

*Aholi sifati* – aholining ijtimoiy hayot kechirishi, ijtimoiy ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlар sub’ekti sifatida xarakterlaydigan kategoriadir. Ya’ni bu aholining tarkib topgan tabiiy, texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sharoitlarga munosabati hamda ushbu sharoitlarni o‘zlarining o‘zgarib boradigan ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyatidir. Aholi xususiyati (tug‘ilish, o‘lim, ta’lim, malaka darajasi va hokazolar) miqdor jihatidan o‘zgarib boradi. Aholining sifat xususiyatlarini, eng avvalo, ta’lim va salomatligini yaxshilash aholi takror hosil qilinishi tejamkorligini, ya’ni aholi sonini saqlab turish aholi soni va uning o‘sishi sur’atlarini o‘lim va tug‘ilishning mutlaq soni qisqarganda ham saqlab turish imkonini beradi.

<sup>18</sup> Эренберг Р.Дж., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная практика. – М.: МГУ, 1996. - С.338, 367.

## V. GLOSSARIY

Aholi –	<b>er yuzida yoki uning muayyan hududi, qita, mamlakat, tuman, shaharida istiqomat qiluvchi odam (inson)lar majmui.</b>
Aholi daromadlari –	<b>bu, aholi yoki uning oila a'zolari tomonidan ma'lum davr ichida olingen yoki ishlab chiqarilgan pul va natural mablag'lar yig'indisidir.</b>
Aholi zichligi –	<b>muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat aholi sonini shu joy maydoniga (odatda 1 km<sup>2</sup>ga) taqsimlash bilan hisoblanadi.</b>
Aholi migratsiyasi –	<b>aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chishi.</b>
Aholining milliy tarkibi –	<b>muayyan hudud yoki mamlakatda yashovchi aholining millatlar bo'yicha tarkibi.</b>
<b>Aholining tabiiy o'sishi (kamayishi)</b>	– yil davomida tug'ilganlar va yil davomida o'lganlar o'rtasidagi farq.
<b>Aholining mexanik o'sishi (kamayishi) –</b>	yil davomida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar o'rtasidagi farq.
<b>Aholini ijtimoiy muhofaza qilish –</b>	bu, biz aholiga davlat tomonidan yashash uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga maqsadli yunaltirilgan kafolatlar tizimidir.
<b>Ayrim mehnat taqsimoti</b>	ishlar va mehnat funksiyalarining ayrim korxona yoki alohida tashkilot xodimlari o'rtasida: sexlar, uchastkalar, brigadalar, zvenolar, ayrim ijro etuvchi xodimlar bo'yicha, shuningdek, ularning kasb-malaka guruhlari o'rtasida taqsimot.
<b>Aholini ijtimoiy muhofaza qilish –</b>	bu, biz aholiga davlat tomonidan yashash uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga maqsadli yunaltirilgan kafolatlar tizimidir.
Aholi daromadlari –	<b>bu, aholi yoki uning oila a'zolari tomonidan ma'lum davr ichida olingen yoki ishlab chiqarilgan pul va natural mablag'lar yig'indisidir.</b>
<b>Davlat ijtimoiy ta'minoti –</b>	bu, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini keksayganda, kasallik ro'y berganda, mehnatga layoqatini qisman yoki butunlay yo'qotganda, boquvchisini yo'qotganda, shuningdek, bolali oilalarni moddiy ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish davlat tizimidir.
<b>Davriy ishsizlik</b>	iqtisodiy tushkunlikning muayyan davrida (ishlab chiqarishning pasayishi) yuzaga keladigan ishsizlik turi tushuniladi.
<b>Yollanib ishlaydiganlar –</b>	bular korxona rahbariyati bilan mehnat faoliyati shartlari to'g'risidagi tuzilgan yozma kontrakt (shartnomalar) yoki og'zaki bitim bo'yicha ishlaydigan shaxslar bo'lib, ular ana shu faoliyat uchun yollanish vaqtida kelishib olingen ish xaqini oladilar.
<b>Jamoa –</b>	bu birgalikda mehnat qiladigan shaxslar guruhi bo'lib, unda kishilar bir-birlari bilan shunday o'zaro harakat qiladilarki, har kim boshqa shaxsga murojaat qiladi, ayni vaqtida uning ta'sirini ham his etadi.
<b>Ijtimoiy ruhiy vaziyat –</b>	korxona va tashkilot xodimlariga ta'sir qiluvchi ko'pgina omillarning ta'siridan keladigan jamlama samaradir. U mehnat qilish jarayonida, xodimlarning muomalasida, ularning

	shaxslararo va guruhiy aloqalarida o‘z ifodasini topadi.
<b>Introversiya –</b>	(intro - ichki) shaxsning o‘z shaxsiy manfaatlariga, ichki olamiga diqqat-e’tibori qayd qilinishi bilan ajralib turadi.
<b>Ijtimoiylashuv –</b>	shaxsning muomala yordamida mazkur jamoaga, guruhga, jamiyatga xos bo‘lgan normalarni, qadriyatlarni, yo‘l-yo‘riqlarni o‘zlashtirish asosida uning shakllanish jarayoni.
<b>Ish –</b>	bu tabiat va inson tomonidan birlashgan kuchlarning ob’ektiv natijasidir.
<b>Ish o‘rni –</b>	bu ishlab chiqarish makonining bir qismi bo‘lib, unda barcha asosiy va yordamchi texnologiya uskunlari, moslamalar, ish mebellari va maxsus qurilmalar joylashgan va ular muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.
<b>Ishsizlar –</b>	bu xalqaro tashkilotlarning bergan ta’rifiga binoan ishga ega bo‘lmagan, ishlashga tayyor va ish izlayotgan fuqarolardir.
<b>Inson resurslari –</b>	bu zarur uquv-farosatga, bilim va mahoratga, ishslash qobiliyati va malakasiga ega bo‘lgan jamiyat a’zolari, mehnat ahlidir, ya’ni inson resurslari haqiqiy va salohiyatli hodimlardan iborat.
<b>Inson omili –</b>	tashkilot va muassasalarining birgalikda faoliyat kechirishi uchun birlashgan kishilardir. Tarkibiy jihatdan u shaxs, ishchi guruhi, mehnat jamoasidir.
<b>Inson kapitali –</b>	investitsiyalar natijasida shakllangan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va sabablar zahirasidan iborat bo‘lib, u shaxsning jismoniy. Aqliy va psixologik sifatlari hamda qobiliyatlarini aks ettiradi.
<b>Inson kapitaliga investitsiya qilish –</b>	odatda malakaviy qobiliyatni, demakki, mehnat unumдорligini oshirishga yo‘naltirilgan har qanday harajat tushunilib, u ta’lim olishga xarajatlarni, ish qobiliyati va mehnat unumдорligini ta’minlaydigan sog‘liqni saqlashga qilinadigan harajatlarni va ishchi kuchini unumsiz yerlardan yuqori unumli yerlarga ko‘chirishga ya’ni xarakatchanlikka qilinadigan xarajatlarni o‘z ichiga oladi.
<b>Inson resurslaridan ekstensiv foydalanish –</b>	ishchilar umumiy sonining, mehnatga layoqatli aholi bandligining o‘sishi, mehnatga layoqatlilik davrining uzunligi, ish vaqtining uzunligi bilan ifodalanadi.
<b>Inson resurslaridan intensiv foydalanish –</b>	mehnat faoliyati samarasini oshirishni bildiradi va u mehnat unumдорligiga asoslanadi.
<b>Iqtisodiy faoliyat –</b>	bu inson tirikchiligini ta’minalash usullari va vositalari majmuidir.
<b>Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan bandlar –</b>	doimiy, vaqtinchalik, mavsumiy ishlarni yollanib bajaradigan, o‘z biznesiga ega, ro‘yhatga olinmagan faoliyatdan ish haqi, daromad topadigan shaxslar.
<b>Ishchi kuchi –</b>	bu insonning jismoniy va aqliy qobiliyatları yig‘indisi, uning mehnatga layoqati bo‘lib, iqtisodiyotda band bo‘lgan mehnat resurslarining foydalanilayotgan qismidir.
<b>Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish</b>	bu insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlarining uzluksiz ravishda tiklanib borishi, doimiy ravishda uning bilim malaka savyasini ko‘tarilib, yangilanib borishidir.
<b>Ishchi kuchi sifatining ko‘rsatkichi</b>	ishchi kuchining ma’lumot darajasi va ishlab chiqarish tajribasi hisoblanadi.
<b>Iste’mol budgeti –</b>	<b>bu, moddiy va ma’naviy ne’matlar va xizmatlar iste’moli salmog‘i va tarkibining qiymati bahosi hamda soliplardir.</b>

Iste'mol savati –	<b>bu, insonning salomatligini saqlash va uning hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning minimal to'plamidir.</b>
<b>Ish haqi –</b>	bu, yollanma xodim daromadining elementi, unga tegishli ishchi kuchiga bo'lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarish shaklidir.
<b>Ish haqining shakllari va tizimlari –</b>	bu, mehnatning miqdor natijalari va sifatiga (uning murakkabligi, intensivligi, shart-sharoitlariga) bog'liq ravishda ish haqini belgilash mexanizmidir.
Ijtimoiy muhofaza tizimi –	<b>bu, aholining hayotiy muhim manfaatlari sohasi bo'lib, uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari davlat va jamiyatning iqtisodiy, huquqiy va madaniy rivojlanish darajasidan darak beradi.</b>
Ijtimoiy muhofazalanish huquqi –	<b>bu, odamning munosib turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan hajmdagi fiziologik, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatidir.</b>
<b>Ijtimoiy institut –</b>	bu, odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkiliy tuzilma tarzida tashkil etishning barqaror shakli yoki normativ jihatdan tartibga solinadigan qoidalar tizimidan iboratdir.
Intervyu –	<b>bu, intervyuyerning respondent bilan bevosita, maqsadga muvofiq suhbati orqali ma'lumot olish usulidir.</b> <b>Foydalanish darajasi va olingan ma'lumotning ishonchliligi bo'yicha u eng asosiy usullardan sanaladi.</b>
<b>Iqtisodiy faol aholi –</b>	bu aholining tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun ishchi kuchini taklif etishni ta'minlaydigan qismi. Iqtisodiy faol aholi soni ish bilan bandlarni va ishga joylashishga muhtoj shaxslarni o'z ichiga oladi.
<b>Iqtisodiy nofaol aholi –</b>	ishchi kuchi tarkibiga kirmaydigan mehnatga qobiliyatli aholi. Uning jumlasiga quyidagilar kiradi:
•	• Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar, o'quv yurtlarining tinglovchilari va kursantlari;
•	• Uy xo'jaligini yuritishda, bolalarni, bemor qarindoshlarini parvarish qilishda band bo'lganlar va agar daromad keltiradigan ish taklif qilinsa, shu ishga kirishish imkoniga ega bo'lmagan boshqa shaxslar;
•	• Ishlashni istamayotgan, ish bilan ixtiyoriy ravishda band bo'lmagan shaxslar shuningdek, ishslashni itsaydigan, lekin ishga joylashish yoki o'zini mustaqil daromad bilan ta'minlash uchun hech qanday harakat qilmaydigan shaxslar.
<b>Martaba –</b>	bu, haqiqatdan egallanadigan bosqichlar (lavozimlar, ish o'rinnari va jamoadagi mavqelar) izchilligidir.
<b>Majburiy ishsizlik</b>	turlari ishsizlikning ishchi kuchiga aloqador bo'lmagan holda kelib chiqishini tavsiflaydi.
<b>«Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi» -</b>	bu, ish beruvchi va yollanma xodimlarning mehnat jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini ifoda etadigan fandir.
<b>Mehnat –</b>	bu insonning biron-bir maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali

	faoliyatidir.
<b>Mehnat mazmuni –</b>	bu ishlarning kasbiy mansubligi, ularning tarkibiy murakkabligi, bajarishdagi izchilligi bilan belgilanadigan mehnat elementlari bo‘lib, xodimning mehnat predmetlari va vositalari bilan o‘zaro munosabatga kirishuvlidir.
<b>Mehnat reduksiyasi –</b>	bu murakkab mehnatni oddiy mehnatga aylantirish demakdir.
<b>Mehnat faoliyati -</b>	bu insonning biror mehnat turi bilan band bo‘lishi tushuniladi.
<b>Mehnat taqsimoti –</b>	bu har xil mehnat turlarining bir-biridan ajratilishini, pirovardida ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi turli guruh kishilarning xilmal-xil mehnat faoliyatları bilan band bo‘lishidir.
<b>Mehnat kooperatsiyasi –</b>	bu mehnat faoliyati jarayonidagi alohida ixtisoslashtirilgan ijrochilar o‘rtasidagi aloqalarning o‘rnatalishi va mehnat faoliyatining tashkil etilishidagi eng muhim elementlardan biridir.
<b>Mehnat resurslari –</b>	bu o‘zining aqliy va jismoniy mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan mehnatga qobiliyatli kishilar to‘plamidir.
<b>Mehnat bozori –</b>	bu, mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo‘lgan va band bo‘lmagan qismlari va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi kontraktlar (mehnat kelishuvlari) asosida “mehnatga qibiliyatlarini” xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko‘p aspektli, o‘suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.
Mehnat birligining bozor bahosi –	<b>bu, ish haqining miqdori (stavkasi) bo‘lib, u shartnomada belgilab qo‘yiladi va muayyan vaqt birligi ichida bajariladigan va muayyan kasb-malaka xususiyatlariga ega bo‘lgan mehnatga to‘lanadigan haq darajasini belgilab beradi.</b>
Mehnatni normalash –	<b>bu, ilmiy asoslangan mehnat xarajatlarini va uning natijalarini: vaqt normalari, soni, xizmat ko‘rsatishning boshqarilishi, mahsulot ishlab chiqarishning normalangan topshiriqlari normalarini aniqlashdir.</b>
Mehnat unumdorligi –	<b>bu, xodimlar mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichidir. U ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko‘rsatilgan xizmatlar miqdorining mehnat xarajatlariga nisbatan, ya’ni mehnat xarajatlari birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot bilan belgilanadi.</b>
Mehnat unumdorligini oshirish zahiralari (rezervlari) –	<b>bu, texnika va texnologiyani takomillashtirish, ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etishni yaxshilash hisobiga mehnat unumdorligini oshirishning barcha omillaridan yanada to‘laroq foydalanish imkoniyatidir.</b>
<b>Mehnatga munosabat –</b>	bu, murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, uch element birligi: mehnat muomalasi sabablari va yo‘nalishlari; real yoki haqiqiy mehnat muomalasi; xodimlarning mehnat faoliyatiga og‘zaki baho berishidan iboratdir.
Mehnatdan qoniqish hosil qilish –	<b>bu, xodimning mehnat mazmuniga, xarakteri va shart-</b>

	<b>sharoitlariga qo‘yadigan talablarining muvozanatli holati, bu talablarni amalga oshirish imkoniyatlariiga sub’ektiv baho berishdir.</b>
<b>Mehnatga moslashish (ko‘nikish)</b> –	bu, shaxs yangi mehnat vaziyatini o‘zlashtirishining ijtimoiy jarayoni bo‘lib, unda shaxs va mehnat muhiti bir-biriga faol ta’sir ko‘rsatadi va moslashuvchi-moslashuvchi tizimlar hisoblanadi.
<b>Motiv (sabab – fransuzcha motif - undash ma’nosini bildiradi) –</b>	bu, shaxsni, ijtimoiy guruhni, muayyan ehtiyojlarni qondirish istagi bilan bog‘langan kishilarning birligini faollikka va mehnat qilishga undashdir.
<b>Motivatsiya (sababni asoslash)</b> –	bu, real mehnat xulq-atvorini tushuntirish, asoslab berish uchun sabablar (mulohzalar) tanlashga qaratilgan og‘zaki xatti-harakatdir.
Martaba –	<b>bu, insonning ish bilan bog‘liq yillari mobaynida mehnat tajribasi va faoliyati taalluqli, alohida anglab yetilgan nuqtai nazari va xulq-atvoridir (egallagan lavozimlaridagi, ish o‘rinlaridagi izchillik, mehnat tashkilotidagi mavqeining ahvoli).</b>
Omillari –	<b>bu, mehnat unumdorligining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadigan harakatlantiruvchi kuchlar yoki sabablaridir.</b>
<b>Oukan qonuni</b> –	ishsizlikning tabiiy darajasi 1 foizga oshganda yalpi milliy mahsulot 2,5 foizga kamayadi yoki 2,5 foiz yalpi milliy mahsulot yo‘qotiladi.
<b>Tabiiy ishsizlik</b>	deyilganda ishchi kuchi harakati va uning ma’lum bir jamiyat a’zosi sifatidagi mehnat hulqiga aloqador bo‘lgan ish bilan band bo‘limganlik holatiga aytildi.
<b>Tarkibiy</b>	ishsizlik ishchi kuchiga bo‘lgan taklif umumiylar tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, uning tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi o‘zgarishiga olib keladi. Bu, odatda, ba’zi kasblar va tarmoqlarning paydo bo‘lishi, ba’zilarining yo‘qolishi, gohida esa tarmoqlardagi iqtisodiy krizislardan tufayli mehnat zahiralari qayta taqsimlanishi bilan bog‘liq.
<b>To‘liq ish bilan ta’minlash</b> –	bu, kasbga oid mehnat bilan ta’milanish bo‘lib, u shaxsga daromad keltiradi va o‘zi hamda oilasining munosib turmush kechirishiga sharoit yaratadi.
Turmush darajasi –	<b>bu, aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasi, ularni iste’mol qilish darajasidir.</b>
Turmush darajasi tizimi –	<b>bu, jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalidir.</b>
Tarif setkasi –	<b>bu, razryadlar shkalasidan iborat bo‘lib, ularning har biriga o‘z tarif koeffitsiyenti berilgan va har qanday razryadning tarif setkasida ishning murakkabligiga qarab birinchi razryadga nisbatan ishning necha marta murakkabligini ko‘rsatib turadi.</b>
<b>Tadqiqot muammosi</b>	– bu, ijtimoiy ziddiyatlarni hal etish va ularni tartibga solish

	uchun turmushning biron bir jabhasini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojdir.
<b>Umumiy mehnat taqsimoti -</b>	kishilar faoliyatining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o‘rtasidagi mehnat taqsimoti, bu sohalar orasida esa, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, aloqa, savdo, xalq ta’limi, fan, davlat boshqaruvi, madaniyat va hokazolar o‘rtasidagi mehnat taqsimotidir
<b>Xususiy mehnat taqsimoti -</b>	bu umumiy mehnat taqsimotining sohalar va tarmoqlar ichidagi taqsimot.
<b>Yollanma xodimlar –</b>	bular korxona rahbariyati bilan mehnat faoliyati shartlari to‘g‘risidagi tuzilgan yozma kontrakt (shartnoma) yoki og‘zaki bitim bo‘yicha ishlaydigan shaxslar bo‘lib, ular ana shu faoliyat uchun yollanish vaqtida kelishib olingan ish xaqini oladilar.
<b>Friksion</b>	ishsizlik deyilganda, ishchi kuchining bir ish joyidan boshqa ish joyiga ishga o‘tayotganda ishsiz qolish holatiga aytildi.
<b>Shaxsning ehtiyoji –</b>	bu, insonda harakatga intilishni vujudga keltiruvchi biror-bir narsaning yo‘qligini anglashdir. Uning normal hayot kechirishi uchun ozuqa, uy-joy, ob-havo zarur bo‘lsa, xotin-qizlarga esa ularning ko‘zga tashlanib turishi uchun chiroyli bezaklar darkor.
<b>Ehtiyojlar –</b>	bu, shaxsning yashashi va o‘zini-o‘zi saqlashiga doir zarur vositalar va shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlik qilishi, yashash muhiti bilan barqaror muvozanatni saqlashga intilishdir.
<b>Qadriyatlar –</b>	bu, sub’ekt, jamiyat, sind, ijtimoiy guruhning hayot va ishning asosiy va muhim maqsadlari to‘g‘risidagi, shuningdek, ana shu maqsadlarga erishishning asosiy vositalari haqidagi tasavvurlaridir.
<b>Qiziqish –</b>	bu, shaxsning u yoki bu narsaga qaratilgan bilish ehtiyojining namoyon bo‘lish shakli bo‘lib, bu ijobjiy his-tuyg‘u uyg‘otishi mumkin.
<b>Qobiliyat –</b>	bu, xodimda o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun kasb malakasi mavjudligi, yetarli darajadagi jismoniy kuch-quvvat va chidamlilik, uquvlilik; umumiy madaniyat borligi va shu kabilardir.
<b>Ekstraversiya –</b>	(extra - tashqari) shaxsning shunday psixologik xususiyatlarini ko‘rsatib beradiki, bunda shaxs o‘zining qiziqishlarini tashqi omilga, tashqi ob‘ektlarga qaratadi, ba’zan buni o‘zining qiziqishlari, shaxsiy ahamiyatini pasaytirish hisobiga amalga oshiradi.
<b>Etika(ahloq) –</b>	bu, ijtimoiy hayot jarayonida ro‘yobga chiqariladigan universal va o‘ziga xos axloqiy talabalar va xulq-atvor normalari tizimidir.
<b>Yagona tarif setkasi(YaTS ) –</b>	bu, quyi darajadagi ishchilardan tortib tashkilot rahbarlarigacha bo‘lgan barcha xodimlar mehnatining tarifikatsiyasi va unga haq to‘lashdir.

## VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
- 14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
- 15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagagi 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
- 16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagidagi“Qadimiyyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli Qarori.

17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrdagi “Moddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4068-sonli Qarori.

### **Sh. Maxsus adabiyotlar**

1. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series B: Middle ages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
2. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series S: New Era. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
3. Avery P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.
4. Bayly S. The Cambridge History of India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.
5. Bose S. The New Cambridge History of Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.
6. Brundage A. Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.
7. Bunch B., Hellemans A. The history of science and technology. – Boston – New York, 2004.
8. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Europe. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.
9. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: North and South America. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1084 p.
- 10.Collins R. The Arab Conquest of Spain, 710–797. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.
- 11.David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
13. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Vook 1,2.
- 12.Grant E. A Source Book in Medieval Science. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).
- 13.H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
- 14.Haskins C. H. Studies in the History of Mediaeval Science. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).
- 15.Haskins C. H. The Renaissance of the Twelfth Century. – Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).
- 16.Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.
- 17.Mahmudov O. The beginning of the European renaissance // International Journal of Research and Development. 2020. – Vol. 5 (7). Pp. 104-108. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4787>
- 18.Makhmudov O.V. The Toledo School – early center of investigation of the works

- Central Asian scholars in the Europe. – Saarbrucken: Lambert Academic Publishing, 2017. – p. 193.
14. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooksAccoun 2015. - 134 pp.
19. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.
20. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).
21. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).
22. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.
23. Watt W. M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2020. (Reprint).
15. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 editions 2015. - 350 pp.
24. Aydyn Arif oglы A. Xroniki muslimanskix gosudarstv I – VII vekov xidjty. – Moskva: Umma, 2018. – 448 s.
25. Alimova D.A. Istorya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istorya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
26. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
27. Bolshakov O. G. Istorya Xalifata. – T. 4. Apogey i padeniye arabskogo Xalifata. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2018. – 368 s.
28. Gabrielyan S. I. Istorya stran Azii i Afriki v novoye vremya. – Tashkent, 2012.
29. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
30. Yevropa mamlakalari va AQSh 1640–1918 yillarda. / A.Xolliyev tahriri ostida. – Toshkent: Universitet, 2010.
31. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
32. Istorya noveuyushchego vremeni stran Yevropy i Ameriki v 1945 – 2000 gg. / pod red. Ye.Yazykova. – Moskva: Nauka, 2015.
33. Istorya noveuyushchego vremeni stran Yevropy i Ameriki v 1945 – 2000 gg. II chast / pod red. N.A.Rodriges. – Moskva: Nauka, 2014.
34. Istorya srednih vekov. / pod red. S.P.Karpova. – 1-2 ch. – Moskva: MGU, 2018.
35. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
36. Luchenkova Ye., Myadel A. Istorya nauki i texniki. – M.: Litres, 2017. – 431 s.
16. Matyoqubov X.X. Xorazm vohasi bronza asri va ilk temir davri tarixi. – Toshkent.

2017.

37. Mommzen T. Istorya Rima. – M.: Litres, 2020. – 591 s.
38. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
39. Nemirovskiy A., Nikishin V., Ladynin I., Novikov S. Istorya drevnego mira. Vostok, Gretsya, Rim. – M.: Litres, 2020. – 786 s.
40. Problemy istorii i mejdissiplinarnogo sinteza. – M.: Litres, 2019. – 561 s.
41. Rtveladze E.V. Istorya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.
42. Rusina Yu.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.
43. Usmonov B.Sh., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. – T.: “TKTI” nashriyoti, 2019.
44. Xannikov A. Texnika: ot drevnosti do nashix dney. – M.: Litres, 2020. – 384 s.
45. Xoliqulova X. Mustaqillik yillarda O’zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati. – Toshkent. Mumtoz so’z, 2017.
46. Sheypak A. Istorya nauki i texniki. – M.: Litres, 2020. – 513 s.

#### **IV. Internet saytlar**

47. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
48. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
49. www. Ziyonet. uz
50. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
51. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy sayti: <http://www.edu.uz/modules/wfchannel>
52. “Xalqso‘zi” gazetasi – [wwwinfo XS. Uz](http://wwwinfo.XS.Uz).
53. “Turkiston” gazetasi – [wwwturkistonsarkor.uz](http://wwwturkistonsarkor.uz).
54. “Ma’rifat” jurnali – [wwwma’rifat-inform](http://wwwma’rifat-inform).
55. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali – [wwwrzultacademyfreenetuz](http://wwwrzultacademyfreenetuz).
56. “Moziydan sado” jurnali – [www.moziy.dostlink.net](http://www.moziy.dostlink.net)

**Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil  
mart oyida o'tkaziladigan O'zbekiston tarixi yo'nalishi o'quv-uslubiy  
majmualari bo'yicha  
EKSPERT XULOSASI**

Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil mart oyida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining "O'zbekiston tarixi" yo'nalishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassislik fanlaridan tuzilgan o'quv-uslubiy majmualar va chiqish testi savollari maxsus fanlar blokidagi modullarning o'quv dasturiga mos va uni to'liq qamrab olgan holda tuzilgan. Test savolari 4 ta muqobil javobda tuzilib, 1 ta to'g'ri javobni o'z ichiga oladi. O'quv-uslubiy majmua va test savollari qo'yilgan talablarga javob beradi.

**Ekspertlar**

G'oibov Bobur Sobirovich	SamDU, O'zbekiston tarixi kafedrasи professori, t.f.d.	
Xoliqulov Rustam Sharipovich	SamDU, O'zbekiston tarixi kafedrasи dotsenti, t.f.n.	
Meliev Baxtiyor Abduxomidovich	SamDU mintaqaviy markaz bo'llim boshlig'i, g.f.f.d.	
Murodov Qodir Qo'ldoshevich	SamDU mintaqaviy markaz muhandis-dasturchi	

Mintaqaviy markaz direktori,  
geografiya fanlari doktori, professor S.B.Abbasov



## ЭКСПЕРТНОЕ ЗАКЛЮЧЕНИЕ

**Об учебно-методических комплексах по направление истории Узбекистана, которые пройдут в марте 2022 года в Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете**

В марте 2022 года Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете проведет курс переподготовки и повышения квалификации преподавателей высших учебных заведений по направлению «История Узбекистана». Учебно-методические комплексы соответствуют с учебным планом модулей специального научного блока и полностью охватить его. Учебно-методические комплексы соответствуют современным требованиям.

**Зарубежный эксперт:**  
**Профессор Педагогического института**  
**Таджикистана в городе Пенджикент**  
**доктор исторических наук:**



Вахидов Ш.Х.

